

2025 №3

Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám  
mádeniyat institutı Nókis filialı

**KÓRKEM ÓNER HÁM MÁDENIYAT  
XABARSHÍSÍ**

Ilmiy-metodikalıq jurnal



**SAN'AT VA MADANIYAT AXBOROTNOMASI**



**ВЕСТНИК ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ**



**ART AND CULTURE BULLETIN**

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW, ILIM  
HÁM INNOVACIYALAR MINISTRILIGI**



**Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filiali**

**KÓRKEM ÓNER HÁM MÁDENIYAT XABARSHÍSÍ**

*ilimiy-metodikaliq jurnali*

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali**

**SAN’AT VA MADANIYAT AXBOROTNOMASI**

*ilmiy-uslubiy jurnali*

**Нукусский филиал Государственного института искусств и  
культуры Узбекистана**

**ВЕСТНИК ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ**

*научно-методический журнал*

**Nukus branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture**

**ART AND CULTURE BULLETIN**

*Scientific methodological journal*

**№3 (7)**

**2025**

**Shólkemlestiriwshi:** Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filiali

**Bas redaktor:** Ayapov Amanjol Tilepovich – filologiya ilimleri kandidati.

**Bas redaktor orınbasarı:** Yusupov Kuanishbay Baltabaevich – filosofiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent.

**Juwaplı xatker:** Otepbergenova Guzzal Omirbaevna – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD).

### REDKOLLEGIYA AĞZALARÍ:

**Aximbetova Gulbaxar Kanatbaevna** – Qaraqalpaqstan xalıq baqsısı, professor,

**Akiova Kamola Baltabaevna** – Ózbekstan kórkem óner akademiyası akademigi, kórkem ónertanıw ilimleri doktori, professor,

**Ansatabev Najimatdin** – Ózbekstan xalıq artisti, professor,

**Baltaniyazov Sarsenbay Aytmuratovich** – Qaraqalpaqstan xalıq artisti, professor,

**Bekjanova Aynura Marxabaevna** – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent,

**Berdimuratova Alima Qarlıbaevna** – filosofiya ilimleri doktori, professor,

**Erejepov Artıqbay Abillaevich** – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent,

**Xamidov Nuratdin Shamshetdinovich** – filologiya ilimleri kandidati, docent,

**Ismailova Maryash Xojabergenovna** – Ózbekstan Respublikasına xızmet kórsetken artisti, professor,

**Kalekeev Kuanishbay Jartibaevich** – filologiya ilimleri kandidati, docent,

**Karimova Nigora Ganievna** – kórkem ónertanıw ilimleri doktori (DSc),

**Khodjametova Gulchira Iishevna** – tariyx ilimleri kandidati, professor,

**Qadiralieva Altnay Mustafa qızı** – mádeniyattanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent, (Qazaqstan)

**Munteeva Gulnara Uzakbaevna** – Qaraqalpaqstan Respublikası xalıq artisti, professor,

**Nurmuxamedova Shoira Zaxidovna** – arxitektura ilimleri doktori, professor,

**Otepbergenova Guzzal Omirbaevna** – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD),

**Paxratdinov Dauletmurat Yunisovich** – filologiya ilimleri kandidati, docent,

**Prekeeva Amangul Ansatbayevna** – filologiya ilimleri kandidati, docent,

**Rajabov To‘xtasin Ibodovich** – pedagogika ilimleri doktori (DSc), professor,

**Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich** – tariyx ilimleri kandidati, professor,

**Saparbayeva Gulshira Abatbaevna** – docent,

**Turdiyev Baxtiyar Berdixanovich** – tariyx ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD),

**Tilegenov Asqar** – pedagogika ilimleri kandidati, professor,

**Tleubaeva Baljan Seydraman qızı** – pedagogika ilimleri kandidati, docent, (Qazaqstan)

**Todjiboeva Oltinoy Qosimovna** – kórkem ónertanıw ilimleri doktori (DSc), professor,

**Turgunova Nasiba Mamatovna** – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent,

**Turdiyev Qalbay Abievich** – Qaraqalpaqstan Respublikasına xızmet kórsetken mádeniyat xızmetkeri, docent,

**Yakubov Baxtiyor Choriyevich** – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent,

**Yusupaliyeva Dilafruz Kaxramonovna** – siyasattanıw ilimleri doktori (DSc), docent.

**Urazmbetova Lizaxan Taspolatovna** – professor,

**Urazova Larisa Karamovna** – tariyx ilimleri kandidati, docent,

**Zaretdinov Qurbanbay** – Ózbekstan kórkem óner ǵayratkeri, professor,

**Zaretdinov Karamatdin Kurbanbaevich** – docent,

**Shaniyazov Jeńisbay Ońgarbaevich** – filologiya ilimleri kandidati, docent.

**Juwaplı redaktorlar:** G.Otepbergenova – ózbek hám qaraqalpaq tilleri boyınsha, A.Bekjanova – rus hám inglis tili boyınsha

**Muzıka redaktori:** M.Nasırov

**Korrektor:** D.Paxratdinov

**Operator:** B.Allaniyazov

Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciya agentligi tárepinen Respublika ilimiy-metodikalıq jurnalı sıpatında *2023-jıldıń 15-may kúngi №081166-sanı* menen mámleketlik dizimnen ótkerilgen.

Jurnal JAK (Joqarı attestaciya komissiyası) dizimine **kórkem ónertanıw ilimleri** boyınsha kirgizilgen. (Tiykar: JAK 2025-jıl 12-fevraldaǵı №367/5-sanlı qararı)

«Kórkem óner hám mádeniyat Xabarshısı» ilimiy-metodikalıq jurnalına maqalalar qaraqalpaq, ózbek, rus hám inglis tillerinde tómenдеgi baǵdarlar boyınsha qabıl etiledi:

➤ *Teatr hám muzıka*

➤ *Kino hám dramaturgiya*

➤ *Bibliografiya hám mádeniyat*

➤ *Jámiiyetlik-gumanitar pánler*

Jurnal jılına tórt máрте shıǵadı. (kvartalına bir ret)

## BALET JANRINING RIVOJLANISHI “AYJAMAL” BALETI MISOLIDA

Abatbaeva Rano Allambergenovna

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali***Tayanch so‘zlar:** musiqa, balet, dramaturgiya, xoreodrama, opera, drama, uvertyura, largo, lirika.**Ключевые слова:** музыка, балет, драматургия, хореодрама, опера, драма, увертюра, ларго, лирика.**Key words:** music, ballet, dramaturgy, choreodrama, opera, drama, overture, largo, lyrics.

Balet sahnaviy madaniyatning bir shakli bo‘lib, XV-XVI asrlarda Italiyada Uyg‘onish davri sudlarida paydo bo‘lgan. Balet Italiyadan Fransiyaga Ekaterina Medichining yordami bilan tarqaldi. Ekaterinaning balet san‘ati rivojining dastlabki namunasi “Le Paradis d’amour” asari bo‘lib, uning qizi Marguerite de Valoisning to‘yida navarralik Genrixga taqdim etilgan. Aristokratik pullar “sud baleti”ning rivojlanishini dastlabki bosqichlariga mas‘ul bo‘lgan, chunki qirol pullari birinchi navbatda o‘sha davr aristokratlarini ko‘ngil ochish uchun yaratilgan baletlarda qo‘llaniladigan g‘oyalar, adabiyot va musiqalarni boshqargan. U yerda balet uning aristokratik ta‘sir ostida yanada rivojlandi. Birinchi rasmiy “sud baleti” 1573-yilda “Ballet des Polonais” Ekaterina Medichi tomonidan Genrix Anju Polsha taxtiga o‘tirgandan so‘ng Parijga tashrif buyurgan Polsha elchilarini sharaflash uchun sahnalashtirilgan. Bundan tashqari, “sud baleti”ning dastlabki tashkil etilishi va rivojlanishi o‘sha davr aristokratlari tomonidan moliyalashtirilgan va ishlab chiqarilgan. Bu ularning shaxsiy ko‘ngilochar va siyosiy tashviqot ehtiyojlarini qondirgan.

“Balet” so‘zining etimologiyasi uning tarixini aks ettiradi. *Balet* so‘zi fransuz tilidan kelib chiqqan va taxminan XVII asrda ingliz tiliga ko‘chgan. O‘z navbatida fransuzcha so‘z italyancha *balettodan* kelib chiqqan, *balo* (raqs) so‘zining kichraytirish demakdir. *Balet* oxir-oqibat italyan *balyarasiga* qaytadi, bu “raqsga tushish” degan ma‘noni anglatadi. [1.42]

XVII asr oxirida Lui XIV Musiqa akademiyasi (Parij operasi)ga asos soldi, uning tarkibida birinchi professional teatr balet kompaniyasi – Parij opera baleti paydo bo‘ldi. Balet lug‘atida fransuz tilining ustunligi ana shu tarixni aks ettiradi. Teatr baleti tez-tez opera bilan yaqin aloqada bo‘lsa ham, tez orada mustaqil san‘at turiga aylandi va Yevropaning yuragidan boshqa xalqlarga tarqaldi. Daniya qirollik baleti va Rossiya imperiyasining imperator baleti 1740-yillarda tashkil etilgan va ayniqsa, taxminan 1850-yildan keyin gullab-yashnagan. 1907-yilda rus

baleti o‘z navbatida Fransiyaga ko‘chib o‘tdi, u yerda Sergey Diagilevning rus baletlari va uning vorislari alohida ta‘sir ko‘rsatdi. Tez orada balet dunyo bo‘ylab yangi kompaniyalar paydo bo‘lishi bilan tarqaldi, jumladan, Londonning “Qirollik baleti” (1931), San-Fransisko baleti (1933), Amerika balet teatri (1937), “Qirollik Vinnipeg baleti” (1939), Avstraliya baleti (1940). Borovanskiy baleti, Nyu-York shahar baleti (1948), Kanada milliy baleti (1951) va Hindiston milliy balet akademiyasi va tresti (2002) bunga yorqin misol bo‘la oladir. [2]

XX asrda balet uslublari rivojlanishda davom etdi va konsert raqslariga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida xoreograf Jorj Balanchin hozirda neoklassik balet deb nomlanuvchi yo‘nalishni yaratdi, keyingi ishlanmalar zamonaviy balet va post-strukturali baletni o‘z ichiga olgan. Germaniyada Uilyam Forsitning ishlari ushbu soha rivojiga alohida ta‘sir ko‘rsatgan.

XX asrning 30-40-yillari O‘zbekistonda balet janrining shakllanish davri bo‘lgan. O‘zbek termalaridan foydalanib N.A.Roslavetsning “Paxta”, E.G.Brusilovskiydin “Gulandan”, S.N.Vasilenkonin “Aqbilek” va boshqa baletlar yaratilgan. Qoraqalpog‘istonga balet janri XX asrning 90-yillarida kirib keladi. 1996-yili N.Muxammeddinov musiqasiga, baletmeyster T.Xojasov librettosiga ilk qoraqalpoq “Ayjamal” milliy baleti yaratilib sahnaga qo‘yiladi. Balet ikki akt, besh kartinadan iborat. “Ayjamal” baleti oradan 21 yil o‘tib, kompozitor tomonidan qayta ishlanadi. Musiqiy tomonidan milliy qoraqalpoq naqshlari keltirilgan kostyum-liboslar, chiroyli dekoratsiyalar bilan boyitilgan opera O‘zbekiston xalq artisti, baletmeyster X.Sharipov tomonidan sahnalashtiriladi. Balet 2017-yili 29-aprel kuni qayta sahna yuzini ko‘radi va katta olqishlarga sazavor bo‘ladi. Ikkinchi bor sahnalashtirilishida balet qaharmonlari: Ayjamal obrazda – Nigora Sharipova, Qasim obrazda – Baxtiyar Nazarov, Erman g‘arri obrazda – Baxitjan Dauletov, Orazbiyke – Ayjamal To‘legenova, Dalmenbay – Sultan Duysenbaev, Eshbay obrazda – Batir

Nietullaev, Shilimbet obrazda – Alisher Qurbanov, Esimbet obrazda – Sultan Jubaev, Doshimbet obrazda – Aziz O‘teniyazov va boshqalar. Yosh qiz-yigitlar obrazlarni mahorat bilan yoritib berishda is‘tedod va qobiliyatini ko‘rsata olgan.

Baletda ezgulik va yovuzlik kuchlarning qarama-qarshiligi ko‘rsatiladi. Ayjamal, Yerman ezgulik va odillik tarafdorlari bo‘lsa Darmanbay, Orazbiyke, Shilimbet yovuzlik va adolatsizlik tarafdorlaridir. Baletning bosh qahramoni Ayjamalning otasi Yerman, o‘gay onasi Orazbiyke, sevgan yigiti Qasim va boshqalar ularni ta‘riflovchi leytmotivlar bilan va musiqali mavzular bilan ko‘rsatilgan. Ayjamal va Qasimning o‘lim mavzusi baletni muqaddimasidan tortib asarning oxirigacha har taraflama rivojlanib, o‘lim sahnasida o‘z poyoniga yetadi. Ayjamalni musiqali ko‘rinishida qoraqalpoq xalq kuylaridan – “Qobiz sazi”, “Ayraliq” va boshqalardan foydalanilgan. Qasim baletda “Ufori” ohangi oyoq o‘yini kuyi bilan ko‘rsatilgan. Boshqa qahramonlar ham xalq kuylari orqali ko‘rsatilgan: “Ming tumen”, “Qobiz sazi”, “Eshbay”.

Asarda xalq turmushi – Navro‘z bayrami, qizlar o‘yini, uy sharoitining ko‘rinishlari chiroyli tasvirlangan. Bularni ta‘sirli qilib ko‘rsatish uchun kompozitor qoraqalpoq kuy qo‘shiqalaridan – “Qizlar qo‘shig‘i”, “Chimbay namasi”, “Ayqulash” o‘yini kuylaridan foydalangan. Qiz va yigitlar o‘yini ikki bo‘limdan tashkil topgan: birinchi qismda “Qizlar qo‘shig‘i” yumshoq va lirik ohangda “sol” minor tonalligida berilgan. Ikkinchi qismida yigitlar o‘yini qoraqalpoq xalq kuyi “Chimbay oyini” bilan berilgan. Bu kuy dastlab pastki registrga o‘tadi. Kuy “fa” ioniy va miksolidiy xalq ladlarida berilgan. Bu raqsda sayilning asosiy mavzuvij jihati ko‘rsatilgan.

Qiz va yigitlar raqsi sekin Eshbay cho‘ponning xushchaqchaq kuyiga o‘tadi. Cho‘pon yon atrofdagilarni “Eshbay kuyi”da ijro qilib kuldiradi. Birinchi kartinaning oxirida Qasimning shodlik o‘yiniga Ayjamalning leytmotivi qo‘shiladi. Tabiatning ko‘rinishlarini va turmush sharoitlarini ko‘rsatishda kompozitor simfonizatsiya usullarini keng qo‘llagan. Daryoning bo‘ylarini, qalin to‘qaylarni, qorong‘u tunni, qochish-quvlash, urush harakatlariday janrlilik ko‘rinishlarda simfonizatsiya usulidan keng foydalangan. Balet qatnashuvchilarni va janrlilik ko‘rinishlarni ifodalashda ijodkor dramatik usullarni qo‘llab, musiqali mavzularni rivojlantirib, bo‘rttirib ko‘rsatishda simfonik orkestrning ritmik, garmonik, faktura, dinamika imkoniyatlaridan unumli foydalanib, ko‘pchilik tamoshabinlarga tushunarli musiqali asarini

yaratgan. Kompozitor N.Muxammeddinov xalqimizning ajoyib professional milliy san‘atini har doim to‘ng‘ich asarlar yaratish baxtiga muyassar bo‘lgan. Ijodkor “Ayjamal” baletida o‘zining doimiy izlanishlari natijasida vatanga bo‘lgan muhabbati mavzusidagi muammolarning yechimini topib, musiqa tili bilan gavdalanirib berga harakat qilgan. Uning professionalligi shundaki, asarning bosh mavzusi muhabbat bo‘la turib, shu orqali katta muammo-insonni boshqalardan ajratib turadigan chegara – befarzandlikka to‘xtalib, ilohiy belgilab bergan ota-bobolarimiz orasidagi bajarilishi shart bo‘lgan insoniylik, odob-axloq fazilatlariga ham to‘xtalib o‘tgan.

Ma‘lum bo‘lishicha baletning syujeti odatda taniqli tarixiy materiallarga asoslanib yaratiladi. Shu sababli “Axmaq patsha”, “Yusup Zliyx”, “Malikayi hayar”, “Izzet ham saxaniy” dostonlarining voqealarini A.Xalimov va J.Shamuratovlarning “Suymegenge suykenbe” musiqali dramasiidagi G‘odalaqning raqslaridagi harakalarni ham chuqur o‘rganib, ulardan ilhom olgani seziladi. [3]

“Ayjamal” - bu epik xoreodrama hisoblanadi, N.Muxammeddinov baletning dramaturgiyasiga, musiqaning badiiy gavdalanish roliga katta ma‘no berib, kengaytirib va chuqurlashtirib, haqiqiy qoraqalpoq milliy baletini yaratgan. Bu tragedik asarning bosh mavzusi yoshlarning bir-biriga bo‘lgan muhabbati desak, ikkinchi tomondan ona va bola orasidagi chegara, otalik vazifasini unutilgan egoist, ko‘zi to‘ymas nafsi buzuq, farzand taqdiri ko‘ziga ko‘inmay qolgan otaning insonparvarikka to‘g‘ri kelmaydigan salbiy harakatlari bilan boyutilgan. Otasi sababli umri chigallashgan ikki yoshning ayriliqqa duchor bo‘lib, yosh nihoday Ayjamal majburlikdan hayotdan ko‘z yumadi. Asar liroepik dostonlarga xos lirik, yoki, oshiqlik xoreodrama xarakterida yaratilgan.

Lekin “Suymegenge suykenbe” musiqali dramasiidagi singari qisqa va soddaligicha qoldirmasdan “Ayjamal” baleti keng mazmunli, klassik xakteri og‘ir Yevropa baletlari singari yaratmasdan, o‘zining yakka fantaziyasi orqali qoraqalpoq xalq kuy va raqslari bilan, uning rang-barang boy milliy koloritidan mohirona foydalanib, qoraqalpoq xalqining ilk milliy baletini yaratdi. Ayniqsa, baletda milliy dutor kuylari “Zalim ayraliq”, “Suwg‘a barg‘an qiz”, “Min’ tu‘men” va “Diydim aman” va boshqa qobuz kuy nolalaridan unumli va puxta foydalanib, kerakli joylarida mazmunga xos harakatlarni ifodalagan. [4.41]

Balet mana shunday yoqimli milliy kuy-qo‘shiqalar orqali tomoshabinlarning ko‘nglidan

joy olib, ular bilan qadrdon insonlar singari musiqa va ohanglar bilan ular orasidagi bog‘lanishlarga sabab bo‘ldi. Shu sababli, tomoshabinlar bunday janrning ilk bora guvohi bo‘lishiga qaramasdan, baletni aniq va ravshan tushinib olishiga muvaffaq bo‘lgan.

Kompozitor bilan baletmeysterning birgalikdagi ijodiy hamkorligi balet mazmuniga mos ravishda tanlab olingan xoreografik ko‘rinishdagi raqs harakatlari, balet shakllari qo‘llanib, qahramonlarning psixologik holatni chuqur ifodalab qo‘ymasdan, shu vaqtning o‘zida kompozitor tomonidan musiqaga libretto singdirilgan asosiy ideani ham to‘liq ochib berishga muvaffaq bo‘lishdi. Albatta, xoreografik asarlar bir nechta komponentlardan iborat bo‘lganligidan dastlab musiqa, undan so‘ng raqs, ijodiy yo‘nalishda musiqa spektaklning asosiy ildizi raqs-uning tug‘ilib o‘sgan yeri, asosi hisoblanadi. Shunga bog‘liq baletmeyster tomonidan musiqa raqs tiliga ko‘chiriladi va musiqani harakat go‘zalliklari bilan uyg‘unlashtiradi. Mana shunday fidoiy xizmatlarning natijasida “Ayjamal” spektaklidagi Ayjamal obrazining tomoshabinlarga kuchli ta‘sir qilishga olib keldi. Berdaq musiqali teatrida baletning ilk bora sahnalashitirilishi kompozitor, baletmeyster, dirijyor uchun ham ijodkorning sinov toshi, kriteriyasi bo‘ldi. Undagi kuchli musiqa, yuqori texnik talablar bilan asarning murakkab voqealarga boy bo‘lgani sababchi bo‘lgan. Ayjamal spektaklining ilk ko‘rinishlarida sharq xalqlariga xos milliy kolorit bilan cheklanmagan holatda ota-ona, yoshi kattalar oldidagi uyatchan, andishali qizlarga xos ibo-hayo saqlashlarini oyoq-tana harakatlari bilan ko‘rsatadi. Sevgan yoriga bo‘lgan mehrini mimika harakatlarida, kelajakka umid bilan qarashi, odobini qizning qarashlaridan anglay olish qiyin emas. Ayniqsa, oxirgi sahnalarida, barcha umidlari, armonlari puchga aylangan qizning pantomimik harakatlarida ichki kechinma va tuyg‘ularini ko‘zlarida ifodalay olgan.

Kompozitor Yevropa balet san‘atidan foydalanish bilan bir qator G‘arb klassikasining barcha komponentlarini ko‘chirib olmasdan, xalq raqs kuylaridan foydalanib, aralashma turda boshqa baletlarga o‘xshamagan haqiqiy qoraqalpoq milliy baletini juda ajoyib, takrorlanmas qilib yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

Afsonalardan birida aytilishicha, Alloh taolo Odam Atoni yaratgan vaqtda, unga musiqa orqali jon ato qilgan ekan. Ushbu afsonada aytilganidek, xoreografik asar yaratganda ham dastlab musiqa, keyin raqs yaratiladi. A.Alimov, T.Adambaevalarning “Ataqli sazgerler” kitobida ta‘kidlanganidek “ijodkorlik yo‘nalishida musiqa

– spektaklning ildizi, raqs, uning paydo bo‘lgan joyi, gavdasi hisoblanadi”. [5.40] Demak, baletmeyster tomonidan raqs musiqa tiliga ko‘chiriladi, shunday qilib, musiqani xoreografiyadagi go‘zallik harakatlar bilan uyg‘unlashtiradi. “Ayjamal” baletida kompozitor bilan baletmeysterning birgalikda yuqori professionallik bilan asarga yondashish natijasida bosh qahramonlarning obrazi tomoshabinlarga ta‘sir qilishiga sabab bo‘ladi.

Mualliflar asardagi bosh qahramon Ayjamalning qoraqalpoq qiziga xos bo‘lgan ibo-hayoligi, odobi, tarbiyasi, ota-onaga va yoshu-qariga hurmat-izzat singari insoniylik faziyatlarini ochib beradi. Asarda Ayjamal dastlab o‘z kelajagiga katta umidlar bilan qaraydigan, muhabbat tuyg‘ulari, nozik qiz gavdalanadi, uning mimika harakatlarida aniq sezilgan bo‘lsa, syujetning dramatik kulminatsiyasida umridagi badnafs, yovuz, o‘z manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadigan yomon niyatli odamlarning qo‘liga tushib qolganlikdan, bosh qahramonlarning obrazi butunlay o‘zgarib ketadi. Bunda armonlari so‘ngan, bu hayotning yovuzliklaridan noligan, undagi niyati yomon insonlardan yuz burgan Ayjamalning xarakteri yuzaga chiqadi. Uning pantomimik harakatlarida ko‘zlari chaq nab yonib turgan, qahri qattiq, g‘azabli qiz obrazini ko‘ramiz. Asarning asosini insoniyat umrini ikkiga ajratuvchi ikki qudratli kuch yaxshilik va yomonlikning kurashi tashkil qiladi. Odamzot dunyoga kelib esini taniganidan buyon davom etib kelayotgan halollik bilan harom, havas va hasad, kechirimlilik bilan xafa-gina orasidagi tortishuv gavdalanitirilgan. Ya‘ni, voqea davomida zo‘ravonlikka qarshi xalqning birlashishi, bir-birga mehr-muruvvat qilib yashashi ko‘rsatilgan.

Balet uvertyura bilan boshlanadi. Bu uvertyuraning xarakteri salmoqli, og‘ir-bosiq, qayg‘u aralashgan mungli musiqa “Largo” tempida ijro qilinadi. Uvertyura asarning dramatik mazmunini ochib berib, tomoshabinni baletning voqeasiga qarab olib keladi. Birinchi kartinada “Quwanish jarma” tarafdagi qishloq xalqining Nawriz bayramini ko‘tarinki ruhda o‘tkaziyotgani gavdalanitiriladi. [6] Bu sahnadagi voqeani muallif xalqning tinch, osoyishta yashayotgan turmush tarzini kayfiyatidan boshlab, asta-sekin qudratli musiqa orqali tomoshabinlarning ruhiga ta‘sir qiladigan shovqinli, ta‘sirli musiqali obrazlar orqali bayon qiladi. Bunday xurram kayfiyatni ochib berish uchun kompozitor qoraqalpoq xalq durdonalaridan biri bo‘lgan “Juriñ qizlar” qo‘shhig‘ini rivojlantirib, qizlarning aylanib yurib o‘ynaydigan xoreografik raqsi orqali ko‘rsatgan.

Baletning badiiylik tarafdan ta'sirli chiqishida sahna dekoratsiyasining roli kattadir. Bu joyda zamonabiy teatr-dekoratsiya usullardan tashqari, sharq xalqlariga xos arxitekturali binolar, qora uy, umuman xalqimizga bog'liq milliy meroslarimiz teatr bezaklari sifatida foydalanilgan. Bu kartinada podachi Eshbayning paydo bo'lishi, uning o'z hunari bilan qiz-juvonlarning ko'nglini olib, xoreografik raqslarning imkoniyatlari bilan inson ruhiga ta'sir qiluvchi quvonchli tuyg'ularini ko'rsata bilishi, asar mazmunini tomoshabinlarning ongiga yetkazib beradi.

Baletdagi bosh qahramonlar Ayjamal bilan Qasimning ijro qilgan duetidagi bir-biriga bo'lgan muhabbatga to'li tuyg'ularini ko'rsatuvchi harakatlari hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydigan lirik ko'rinishlardan biri hisoblanadi. Baletda Ayjamal rolini birinchi sahnalastirilishida teatr balerinası Ayjamal To'legenova ijro qildi. U bu obrazdagi muhabbatning kuch-qudrati bilan tuyg'ularini ko'rsata olgan.

Balerinaning rolga to'g'ri tanlangani, uning kelishgan qaddi-qomati bilan harakatlariga, mimikasida kartinaning daslabki ko'rinishlaridanoq aniq ko'zga tashlanadi. Baletda ikki yosh sevishganlarning bir-biriga bo'lgan tuyg'ulari alohida ko'rinishga ega. Ayjamaldning Qasim bilan "o'z baxtinga yettim, sevikli insonim bilan birga bo'ldim, baxtiyor umr kechiraman" - deb, harakat qilgani ajoyib raqslar orqali ifodalagan. Bu raqsqa javoban suykli yori Qasimning ham leitmotivi Ayjamal bilan maqsad-murodiga yetgani, ularning sahnada quloq ochgan duetlari bilan monologlarida dramaturgiyaning kuchayib borganini ko'ramiz. Keyingi ko'rinishda baletmeyster obrazni ta'sirli va ishonarli qilib ochib berishda pantomimo usullaridan ko'p foydalangan. Masalan, "Qasimning otasi Darmanbayning "Bizlar sevgi nimaligini bilmay ham katta bo'ldik, onangni ot aravada borayotgan qizlarning orasidan olib qochganmiz, sen ham to'ydan so'ng sevib qolasan", "qiizni olib kel bog'la!", "Qasimni ko'ndir" - deb dag'dag'a qiladi, jallod o'gay onangning indamasligi, Ayjamal bilan Qasimning "bizlarga fотиha ber" - deb yolvorishlari, unga qo'shilib bukil xalqning "bolalarga fотиha ber" - deb aytgan iltimoslari, yuzi, qoshu-ko'zlari, oyoq-qo'l harakatlari bilan voqeani pantomima usullar orqali tushuntirishi tabiiy va aniq chiqqan". [7.44]

Kompozitor bosh qahramonni tashqi ko'rinishlaridan tortib to ichki kechinmalarining musiqiy dramaturgiyasi orqali topog'onligi bilan bezantirgan. Ayjamal obrazining ta'rifiga kelsak, u chiroyli, nozik qiz bo'lib, yoqimli musiqi xalq

cholg'ulari orkestri orqali beriladigan ma'naviy kayfiyatini syuet bir kartinadan ikkinchi kartinaga kam-kamdan chuqurlashib, o'z muhabbatiga sodiqligi va or-nomusini himoya qilish harakatlarini o'zida jamlab, hayotni tushinib yetishi ko'rsatiladi.

Ilk ko'rinishlarda o'zining shirin xayollari bilan osmonlarda parvoz qilayotgan Ayjamal, armonlari puchga chiqqaniga ishonchi komil bo'lgandan so'ng, ushbu ko'rinishning rivojlanishiga mos orkestrdagi musiqi dramaturgik kulminatsiyasidan kam-kam ko'tarilib, keyingi ko'rinishdagi Ayjamalning badnafs Darmanbayning belidagi xanjarni sug'irib olib, o'z yuragiga urishi vaqtida musiqadagi dramaturgik tragedik kulminatsiyaga yetadi. Bu tragedik kulminatsiyaning ta'sirli chiqishida baletmeyster T.Xojasov va professor Q.Saatovlarning baletmeysterlik san'atidagi to'plagan tajiribasi muhim rol o'ynagan.

Tragediyaning kulminatsiyasida xalq Ayjamalning begunoh ketganiga qiynaladi. Buni kompozitor orkestrning gurkiragan ovozi va akkordlarning bir taxlitdagi harakati bilan uni qayg'u-hasrati bilan yakunlovchi zarbli cholg'ularda akkordlarning yangrashi holatida ijro jo'rligida esa vokalistlarning so'zsiz ingrashi orqali beriladi. Xorning jo'rligida Ayjamalni qo'lga ko'targan xalq ikki yosh qalbning uchrashgan "Muhabbat cho'qqisi"ga qaray yo'l oladi. Bu qayg'uni gavdalandirgan qudratli musiqi ohanglari sekin-asta pasayib, olovga suv sepgandek o'chib qoladi va birdaniga jimjitlik hukm suradi. Asarning yuqori darajada chiqishida taniqli dirijyor O'zbekistan va Qoraqalpog'iston Respublikasiga xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Qurbanbay Zaretidinovning xizmatlari kattadir.

"Ayjamal" baleti qoraqalpoq xalqining yuragidan ochmas o'rin olgan ilk milliy balet bo'lib ajoyib san'at durdonalarimizga aylandi.

Xulosa urnida shuni aytish joiz, bugungi kunda balet janridagi asarlar teatr saxnalarida qoyimastan qolib ketyabdi. Balkim shuning uchundirki yosh kompozitorlar ijodida balet janriga yaratilgan yangi asar namunalarini ko'zga tashlanmayabdi. Bundan 2-3 yil oldin kompozitor Jamil Charshemov tomonida qoraqalpoq xalq dostoni "Qoblan" obraziga balet yaratilgan edi, librettosi esa Joldasbay Turdimuratov, ammo bu balet ham osha qog'ozda yozilganicha qolib ketti. Agar ustoz kompozitorlarimiz yaratgan, N.Muxammeddinov "Ayjamal", Q.Zaretidinov "Qiriq qiz", M.Jiyemuratov "Makariya Suliw", J.Charshemov "Qoblan" baletlari saxnalashtirilib tomoshabinlarga in'om qilinsa musiqamizning rivoji uchun kelajak avlodlar nazarida xalqimizning milliy balet janrida ijod qilishlari va

ularning musiqiy tahlil qilia olishlariga yol bo'ladi deya umid qilamiz.

### Foydalangan adabiyotlar

1. National Ballet Academy & Trust of India in New Delhi, India. Retrieved March 29, 2010.
2. Alimov A., Adambaev T. Ataqli sazgerler. – No'kis Qaraqalpaqstan, 2012.
3. Абатбаева Р. Роль балета «Айжамал» в каракалпакском искусстве Донецкие чтения образование, наука, инновации, культура и вызовы современности 2022 г. 27-28 октябрь. Том 10. Культура и искусство библиотечное дело. – Донецк: Издательство ДонНУ, 2022.
4. "Erkin Qaraqalpaqstan" gazetasi, 2007-jil, 8-noyabr.

**REZYUME.** Maqolada balet janrining paydo bo'lish tarixi, shuningdek, O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda balet janrining shakllanish davrlari haqida so'z yuritilgan. "Ayjamal" baleti qoraqalpoq xalqining ilk milliy baleti hisonlanib, o'ning janrlilik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассказывается об истории возникновения жанра балета, а также периодах становления жанра балета в Узбекистане и Каракалпакстане. Балет "Айжамал" считается первым национальным балетом каракалпакского народа, и его жанровые особенности проанализированы с научной точки зрения.

**SUMMARY.** The article discusses the history of the emergence of the ballet genre, as well as the periods of formation of the ballet genre in Uzbekistan and Karakalpakstan. The ballet "Ayjamal" is considered the first national ballet of the Karakalpak people, and its genre features have been scientifically analyzed.

## BERDAQ BAQSINIŇ ÓNERIN DAWAM ETTIRIWSHI ÁWLADI QARAJAN BAQSÍ HAQQÍDA

G.Allamberganova – professor

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali*

**Tayanch so'zlar:** doston, motiv, folklor, variyant, baxshi, usul.

**Ключевые слова:** эпос, мотив, фольклор, вариант, бахши, метод

**Key words:** epic, motive, folklore, variant, bakhshi, method .

Qaraqalpaq xalqınıń kórkem óneri, bay ádebiy miyrası, milliy nama qosıq sazları, jırawshılıq, baqsıshılıq, qıssaxanlıq óneri, ustazdan shákirtke ótiw jolı menen miyras bolıp búgingi kúnimizge shekem kelip jetken. Ádebiyatımız benen muzika mádeniyatımızdıń rawajlanıwı barısında, ózlerinin' uzaq jıllar izleniwleri nátiyjesinde jazıp qaldırǵan maqalaları menen ilimiy miynetlerinen, kitaplarınan ádebiyatshı, ilimpaz, alımlarımız Qallı Ayımbetovtıń, Qabil Maqsetovtıń, Nawrız Japaqovtıń, Tájjıgúl Adambaevanıń, Sarıgúl Bahadirovanıń, Ásen Alımovtıń jáne basqa da kóplegen ilimpazlarımızdıń baspa sóz betlerinde jariq kórgen miynetlerinen hár tárepleme tastıyqlanıp hám dálillengenliklerin oqip biliwimizge boladı. Qaraqalpaqstanda gárezsizliktiń nátiyjesinde baqsıshılıqtıń úlken bir adam islewine múmkinshilik payda boldı. Japaq baqsı, Esjan baqsı, Qarajan baqsı sıyaqlı qaraqalpaq xalqınıń kórkem - óneriniń ásirler boyı tariyxın dóretiwdegi, sonıń menen birge házirgi gárezsizlik kórkem - ónerdiń rawajlanıwındaǵı qosqan úlesleri xalqımızdıń

mádeniyat tariyxında, biziń dáwirimizdiń múmkinshiligine ılayıq máńgi saqlanadı.

Xalıq namaların, qosıqların kámine keltirip atqarıw hár bir sázendeden, qosıqshıdan úlken talant, uqıplılıq, tereń sezim, kóp jıllıq tájiriye, oqip úyreniw shıdamlılıq hám juwapkershilik penen qatnas jasap miynet etiwdi talap etedi. Sebebi bul namalardı dóretken, shıǵarǵan hám atqarıp kelgen baqsı - jırawlarımız bul namalardı shıǵarǵanda muzikanıń kóp túrli usılların keńnen paydalanıp, olardıń múmkinshiliklerin kórkeytip, bayıtıp barǵan. Usınday altın miyrasımızdıń bayıwına úles qosqan ataqlı baqsılarımızdıń biri Qarajan baqsı.

Qaraqalpaq xalqınıń ullı perzenti Berdaq shayırdıń aqlıǵı, qız baqsı Húrlimannıń tuńǵısh perzenti Qarajan baqsı 1884-jılı Aral teńizi átirapında tuwıladı. Onıń baqsı atalıwı atası Berdaq hám anası Húrlimannıń óz dáwiriniń belgili bálent lapız iyeleri bolıwı menen baylanıslı. Qarajan jaslayınan anasınan duwtar shertiwdiń álwan sırların úyrenip baradı. Nátiyjede, onıń birinshi ustazı óz anası, dep tán alınadı.

Húrliman qız baqsı qaraqalpaq xalqında birinshilerden bolıp qolına duwtar alǵan qız, óz ákesi Berdaq baqsınıń jolın dawam ettirgen Húrliman baqsı edi. Húrliman qız baqsıǵa bul ónerdi iyelew, shıńına jetiw ádewir qıyınshılıq tuwdırdı. Sebebi, sol dáwirde hayal-qızlarǵa bolǵan kóz– qarası sol dáwir dástúrine góre ásirese, qız baqsınıń júzin kórsetip, kópshilik aldında qosıq aytıwına, awıl aqsqaqalları, iyshan-mollalarqarsı turǵan. Húrlimanniń ómirlik joldası Qabıl dabul ónerge qarsı bolıwı qıyınshılıq ústine qıyınshılıq bolǵan. Húrliman olardı óz kásibine bolǵan súyispenshiligi menen jeńip ótedi. Aradan kóp waqıt ótpey Qabıl menen Húrlimanniń shańaraǵında ul perzent dúnyaǵa keledi. Onıń atın Qarajan qoyıp, anası oǵan da óz kásibin úyretip baradı. Húrliman balası Qarajandı qasına ertip, el aralap, qosıq aytıp, baqsılıq etedi. Qarajan anasınıń qasında janapayǵa duwtar shertip júretuǵın bolǵan. Berdaq ómiriniń sońǵı kúnlerinde 1856-jılı ózi soqqan duwtarın qızı Húrlimanǵa qaldıradı. Al, Húrliman qaytı bolǵannan keyin bul duwtar balası Qarajanǵa miyras bolıp qaladı. Qarajan baqsı Berdaq shayırdıń aqlıǵı, qız baqsı Húrlimanniń tuńǵış perzenti.

Er jetken Qarajan kóp ǵana namalar shertip, qosıqlar aytıp, óz jolına iye boladı. Ol da basqa baqsılar sıyaqlı shákirtler tayarlaydı. Onıń dóretiwshiliginiń dawam ettiriwshisi Aytjan baqsı bolıp tabıladı. Aytjan baqsı ustazı jolın dawamlap, onıń aytqan qosıq namaların notaǵa túsirtip, tap házirgi künge deyin milliy bay miyras etip qaldırǵan.

Qarajan baqsı atası hám anasınıń atqarǵan nama qosıqların sheberlik penen úyrenip, keleshek áwladqa rawajlandırıp jetkeriwge háreket etken. Ol xalqımızdın poeziyasın hám muzikasın máńgilestiriwde kóp miynetler islegen. Yaǵnıy, Berdaq hám Húrlimannan miyras bolıp qalǵan, ózi atqaratuǵın 30 ǵa jaqın namanı radiokomitette hám OzSSR ilimler akademiyası Qaraqalpaqstan filialınıń N.Dáwqaraev atındaǵı tariyx, til hám ádebiyat institutınıń iskusstvo tanıw sektorına tapsıradı. Bul namalar arasında «Adıńnan», «Qara jorǵa», «Jeti asırım», «Berdaq nama», «Ala qayıs», «Qırmızı», «Jaman shıǵanaq», «Láy-láy», «Barmeken», «Ne payda», «Muxalles», «Aqsuńgil», «Bozataw» h.t.b. namalar bar.

Qarajan baqsı Berdaqtıń jasaǵan zamanlarındaǵı xalıq namaların jaqsı shertken. Ol «Oyǵana», «Gúlzar», «Qızminayim» namaların shertkende baqsılardıń shertkeninen ayrılıp turǵan ózgeshelikke iye bolǵan. Onıń repertuarında «Góruǵlı», «Bázirgen», «Ashıq nájep» dástanların bar bolıp, ásirese «Bázirgen» bólimin júdá jaqsı bilgen hám súyip aytqan. Ol

eski zamanlardan aytılıp kiyatırǵan baqsı namaları, biziń zamanımızǵa alıp kelip, notaǵa jazdırıp házirgi mádeniyatımızdın ósiwinde úlken járdem etti. Qarajan baqsı belgili sázende, Aytjan Xojalepesovqa ustazlıq etedi, onıń kúshli sázende bolıp jetisiwine xızmetleri oǵada ullı boldı. Aytjan baqsı ustazı Qarajannan kóp sazlar, qosıqlar úyrengen. Sonıń menen birge, ustazınıń namaların, basqa baqsılardıń qosıqların notaǵa jazdırtıp, xalqına minsiz xızmet etiwiniń nátiyjesinde, ózi de baqsı ataǵına miyassar boladı.

Qarajan baqsıdan baslap biz magnit lentalarına jazılǵan qosıqlardı tuńlaǵanbız. Qarajan baqsı, Esjan baqsı, Japaq baqsılardıń aytqanların esitse tap sol zamanǵa túsip qalǵanday bolamız. Sebebi olardıń shertken duwtar saz - áspabınıń tari házirgidey polat sımnan emes, sharxana dep atalatuǵın tábiyiy jipekten taǵılǵan.

Qarajan baqsınıń zapısları onıń qartayǵan waqtında jazılǵanı dawısınan bilinedi. Onıń atqarǵanın esitkenimizde hesh bir baqsıda ushıraspaytuǵın óz aldına jolı bar. Qosıqlardı qıssaxanlıq jolında aytıp atırǵan sıyaqlı. Qosıqtıń jaǵımlı, mazalı jerlerin sozıp, adamǵa yosh beretuǵınday pát berip jiberedi. Jáne de qosıqlar kóbinese úsh - tórt minut atqarılatuǵın bolsa Qarajan baqsınıń qosıqları 2 - minutqa jetpeydi. Ol qosıq aytqanda kupletlerdiń ortasında yaqı 2 qatardan keyin oynalatuǵın namanı oynamay sol yoshı menen irkilmey atqaradı, hám qosıqtıń sazın shertkende de, qosıq atqarǵanda da tez tempte atqarǵan. Jırawlardıń terme-tolǵawların, násiyatların esitkenimizde melodiyaalıq dúzilisine názer salǵanımızda, kóp qatarlı násiyatlardı aytqanın esitkenimizde, kóbinese háwij qospastan, birgelikli melodiyanı ushıratamız. Bıraq baqsılardıń qosıqlarında bunday ushıraspaydı, derlik hár bir qosıǵında sozımlıq, háwij, qayırım bar. Qarajan baqsınıń qosıqların esitseń tap terme esitkendey bolasan. Qarajan baqsı “Bes perde” namasına násiyat atqarǵanın esitse tap terme aytıwǵa beyimlestirip izbe - izlikte izin úzbeý násiyattan keltirip atqarǵan. Qarajan baqsı “Sáwdigim”, “Qara kóz”, “Aqsıńǵıl”, “Adıńnan” “Teke nalısh” qosıqların hesh bir baqsıǵa uqsamaytuǵın nala, ırǵaqlar menen naǵız baqsı dawıs penen atqarǵanın esitemiz.

Qarajan baqsı kompozitor N.Muxammeddinovtıń ustazı bolǵan. N.Muxammeddinov qaraqalpaqstan televideniyesi kórsetiwinde alamoynaq duwtarda saz shertip shıqqanlıǵın kórgenbiz. Ol ustazı haqqında tómendegishe pikirlerdi aytadı: “Qarajan baqsınıń atqarǵan sazları bizler kishkene waqtımızdan baslap qulaǵımızǵa sińip qalǵan. Men Qazaqdaryada 2-klasımnan baslap oqıdım hám Qarajan baqsı menen qońsı otırdıq. Sol waqtta

qasına barıp shertken sazların úyreniwge háreket etetuǵım edik. Sol waqıttan baslap duwtarǵa, sazǵa, qosıqqa qızıǵıwshılıǵım baslanǵan. Qarajan baqsınıń shertken sazları, qosıqları sol waqıttan baslap meniń qulaǵıma sıńıp, júregimniń tórinen orın alǵan. Sonıń tásiiri bolsa kerek, ustazdıń sazın, qosıǵın esitip-aq onıń shákirtimen dep ayta alaman. Sebebi ustazımniń óz aldına atqarıwı, óz aldına joln til menen jetkerip beriw qıyın. Hár bir

baqsınıń óziniń jolı, óziniń atqarıw usılları bar. Óz aldına atqarıw jolına iye baqsılardıń biri Qarajan baqsı edi. Men Qarajan baqsınıń hám shákirtimen hám oǵan qudayday sıyınǵanman dep aytsam hesh qátelespeymen”,-deydi. Haqıyqatında da N.Muxammeddinovtıń ullı nárseler dóretiwinde ustazı Qarajan baqsınıń úlken sebebi bar dep ayta alamız.

### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Erejepov A.A. “Baqsı hám jırawshılıq tiykarları” Oqıw metodikalıq qollanba Nókis-2020.
2. Айымбетов Қ. «Халық даналығы», «Қарақалпақстан» баспасы. Нөкіс, 1988.
3. Nadirova A. “Qaraqalpaq muzıka tariyxı” Tashkent “Sano standart” 2018.
4. Моянов Ы. Қорақалпоқ халқ мусикаси асосида ўқувчи-ёшлар маънавий-ахлоқий фазилатларини шакллантиришнинг хусусиятлари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) . ... дис. – Тошкент, 2019. – 153 б.

**РЕЗЮМЕ.** Bu maqolada baxshichilik sanati, shu bilan birga Qoraqalpog'istonda baxshichilik san'atida ustoz -shogird yo'llari, Qarajan baxshi hayoti va ijodi, ustozlari, u ijro etgan qo'shiqlar va dostonlar, haqida so'z etilgan

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается искусство бахши, а также пути наставничества в искусстве бахши в Каракалпакстане, жизнь и творчество Караджона бахши, его наставники, исполняемые им песни и дастаны.

**SUMMARY.** This article examines the art of bakhshi, as well as the paths of mentorship in the art of bakhshi in Karakalpakstan, the life and work of Karajon bakhshi, his mentors, and the songs and epics he performed.

## MUSIQA CHOLG'ULARINING PAYDO BO'LISH TARIXI, EVOLUYUTSION RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ARXEOLGIK TOPILMALAR

R.Allambergenov – katta oqituvchi

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** cholg'ularini qayta yaratish va takomillashtirish, an'anaviylik va zamonaviylik, arxeologik kashfiyotlar, Ko'shon sulolasi, ommaviy marosimlarni.

**Ключевые слова:** возрождение и совершенствование музыкальных инструментов, традиционность и современность, археологические открытия, Кушанская династия, массовые церемонии.

**Key words:** the revival and improvement of musical instruments, traditionality and modernity, archaeological discoveries, the Kushan dynasty, mass ceremonies.

Ijtimoiy-madaniy hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan san'at va madaniyat har bir millatning ijtimoiy-etnomadaniy shakllanishiga qarab yuzaga keladi. Millatning o'ziga xosligi, uning nomoddiy va moddiy madaniy merosida, xususan, xalq og'zaki ijodi, musiqa san'ati, urf-odat, marosim, an'analarida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, musiqa cholg'ulari ham xalq milliy musiqasining asosi hisoblanadi.

Musiqa cholg'ularining yaralish tarixi uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ba'zi manbalarga ko'ra olimlarning izlanishlari natijasida eng qadimiy musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda paydo bo'lganligi to'g'risida tahminlar

mavjud. Dastlabki musiqa cholg'ulari urma zarbli cholg'ulardir. Bunga oid bir qancha ilmiy tahminlar mavjud. Chunki, eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq.

Mutaxasislarning aksaryati ibtidoiy odamlar insonning tabiat va koinot bilan uyg'unlashuvi, tabiatdagi hodisalarni mushohada qilish va undagi ayrim hodisalarga taqlid qilishlari asnosida birinchi ixtiro qilingan cholg'u sifatida urma cholg'ularni, keyin esa damli va torli cholg'ularni kashf etgan dep hisoblashadi. Birinchi bo'lib zarbli cholg'ular yaralgan deyishga asos sifatida insonlarda turli xil xarakatlarni bajarishda yuzaga

keladigan jarayonlar: toshni toshga urish, qarsak chalish yoki yog'ochlarni bir-biriga urish orqali ham tovush hosil qilish mumkinligini anglagan va hatti-harakatlar orqali raqs usullarini umumlashtirishda ritm asnosida foydalanganligini aytish mumkin. Bu esa harakat va hodisalar vaqtida paydo bo'ladigan tovush (ohang) ni yuzaga kelishiga zamin yaratgan.

Albatta notanish muhitga tushib qolgan har qanday jonzot birinchi navbatda atrofnı o'rganishga va unga moslashishga harakat qilishini yaxshi bilamiz. Tabiatdagi barcha jonzotda "qorin to'ydirish" ehtiyoji birinchi navbatda turishi, undan keyin esa "o'yin" ehtiyoji paydo bo'lishi ham tabiiy holdir. Ibtidoiy davr odamlari kundalik hayotida kerakli bo'lgan vositalar, o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan talab va majburiyatlar inson ong tafakkurning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Insonlarning qiziqishlari tashqi muhit bilan o'zaro bog'liqlik kasb etishida bir qancha omillar vujudga kela boshlagan. Ularning ijodiy kashfiyoti sifatida raqs va turli xil xatti – harakatlarni jamoa bo'lib qo'llanilishi natijasida qarsak chalib ritm hosil qilish orqali shovqinli cholg'ularning paydo bo'lishiga zamin yaratib berganlar.

"Musıqa cholg'ulari asosan qamish, bambuk, yog'och, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yong'og'i, qovoq va shu kabi boshqa materiallardan tayyorlangan. [1] Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, hushtak, yana biroz vaqt o'tgach esa nay (bo'ylama, ko'ndalang, ko'p yo'lli), naysimon hushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar (arfa, lira) va kifalar yasalgan. Musıqa cholg'ularining ko'rinishi, ularda hosil qilinadigan tovushlarning xususiyatlariga nazar tashlasak, ularning ayrimlari juda soddaligi va chalish uchun juda katta malaka shart emasligi, ya'ni qo'l ostimizdagi xom ashyolardan ham tayyorlab olish imkoniyati mavjudligini kuzatish mumkin.

Aslida esa, tabiatdagi hodisalarga taqlid sifatida birinchi ixtiro qilingan eng mukammal "cholg'u" – insonning ovozi ekanligini aytish mumkin. Inson ovozinı bunday xususiyatlari birinchi marotaba buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinolarning musiqaga bag'ishlangan risolalarida keltirilgan. "Forobiy birinchi bo'lib inson ovzining eng mukammal cholg'u sifatida e'tirof etgan bo'lsa, bu fikr Ibn Sino va ash Sheroziy tomonidan yana bir bor ta'kidlangan. [2] Haqiqatan ham inson ovozinı imkoniyatlari cheksizligi, odam o'z ovozi vositasida tabiat hodisalariga taqliddan boshlab, xohlagan musıqa cholg'usiga, inson va hayvonlar, hatto qushlar ovozigaga ham taqlid qilishi

mumkinligini juda ko'p kuzatamiz. Shuning uchun ham nomlari yuqorida qayd etilgan allomalarimizning musıqa ilmiga bag'ishlangan asarlarida musıqa cholg'ulari ikki turga ajratilib, birinchi turdagisi - xalqiy cholg'u, ya'ni inson ovozi, ikkinchi turga inson tomonidan yaratilgan va yaratiladigan barcha cholg'ular kiritilib, ular sun'iy cholg'ular deb ataladi.

Shunday qilib, eng avvalo inson tomonidan ixtiro qilingan "xalqiy cholg'u" vositasida ibtidoiy odamlar tabiat hodisalariga taqlid qila boshlagan. Ya'ni shamolning g'uvillashi, momoqaldiroqning gumburlashi, hayvonlarning uvillashi yoki o'kirishi, qushlarning sayrashi va hokazo kabi hodisalarga taqliddan boshlangan jarayon asta-sekin odamlar qo'l ostidagi ayrim predmetlar hosil qiladigan tovushlarni tizimga solish, boshqacha aytganda ma'lum ritmga tushirish orqali urma cholg'ularning eng dastlabkilari - tosh, yog'och va boshqa qattiq jismlar ixtiro etilgan. Qattiq jismlarda hosil qilingan dastlabki ritmlar (usullar) juda sodda va hamma uchun tushunarli bo'lganligi uchun uni boshqalar ham tezda ilg'ab olib, birgalikda qaytarish imkoniyatini yaratgan. Bu ritmlarning paydo bo'lishi asosida insondagi tabiiy ritm hosil qiluvchi organ – inson yuragining juda katta o'rni bor". [3]

Ibtidoiy odamlarning turmush tarzi ularning madaniyati, xususan, musıqa madaniyati to'g'risida yozma manbalar deyarli mavjud emas. Bizgacha yetib kelgan, ajdodlarimiz musıqa madaniyatiga oid yozma manba o'rnini bosuvchi qadimiy ma'lumotlar, tosh va turli xil sapol buyumlarda, qoyatoshlardagi tasvirlarda, arxeologik qazilmalar paytida topilgan ashyolarda, qolaversa, turli bosma nashrlarga ishlangan rasm va miniatyuralarda aks ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Yozma manbalarning to'liq yetib kelmasligiga bir qancha omillar sabab bo'lganligi, avvalo bunga eng birinchi navbatda u davrda yozuvlar arab yoki fors tillarida yozilganligi, qolaversa davrlar almashinuvi jarayonida ushbu tillarning rivojlanishi natijasida ayrim eski so'z va iboralarni zamonaviy tilga o'girishda uchraydigan muammolar, ma'lumotlarning to'liq yetkazilishiga sezilarli darajada o'z tasirini o'tkazgan. Musıqa cholg'ularining so'zlar yordamidagi tavsifi, cholg'ularning imkoniyatlari va ko'rinishi haqida yetarlicha to'liq tasavvur uyg'ota olmasligi mumkin. Tasvirlardagi ko'rinish esa yozma manbalardagi ma'lumotlarni to'ldirishi bilan birga, tegishli ob'eyektning o'z davrida musavvir tomonidan qanday tasavvur etilganligini ko'rish imkonini beradi. Shuning uchun ham keyingi yillarda arxeologik ekspeditsiyalar natijasida topilgan va topilayotgan turli ashyolar va tasvirlar

ajdodlarimizning musiqa madaniyati, xususan, musiqa cholg'ulari to'g'risidagi tasavvurimizni yanada boyitmoqda.

Musiqa san'atining paydo bo'lish tarixiga nazar solsak, avvalo yuqorida takidlab o'tilgan ibtidoi jamoa odamlari yashagan davrni qamrab olsa, bu sohaning rivojlanish jarayonini davlatchilik paydo bo'lgan davrlarga bog'lash mumkin. Chunki o'sha davrlarda davlatlar bir birlari bilan aloqalar o'rnatilganligi natijasida, ko'plab sohalar rivojlanishiga zamin yaratganlar. Bunga misol tariqasida birgina XV – XVI asrlarda G'arb va Sharq mamlakatlarini birlashtirib turuvchi Buyuk Ipak Yo'li karvon yo'lining zaminimizga boshqa xalqlar madaniyatining kirib kelishi va bizning madaniyatimizni boshqa xalqlar madaniyatiga yoyilishiga sababchi bo'lganliging o'zi misol bo'la oladi. Bu esa o'z-o'zidan barcha sohalar yuksalishiga, hususan musiqa madaniyati ham boshqa sohalar singari rivojlanishiga va Markaziy Osiyo davlatlari hududida ko'plab cholg'ularning saqlanib qolishiga zamin yaratib berganligini misol qilish mumkin.

Davlatchilik paydo bo'lgan davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, tarixdan bizga ma'lumki eramizning I asrida O'rta Osiyoning janubiy qismida qudratli Ko'shon podsholigi tashkil topadi. Paydo bo'lgan bu mahaliy Ko'shon sulolasi hokimiyati ostida bir qancha davlatlar birlashdi. Buning natijasida shaharlar yuksalgan, madaniyat gullab yashnadi, ko'plab sohalar qatori musiqa sohasidaham, yangi-yangi musiqa cholg'ularining yaratilishiga zamin yaratilgan.

Olimlarning takidlashicha bu davrlarda xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmush tarzi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq – kuylar, turli xil o'yinlar va oilaviy yig'inlarda ijro etilgani, qolaversa, xalqning katta-katta marosimlari bo'lgan yil fasillari bayramlarida keng miqiyosda foydalanilgani bizga ma'lum. "O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola" sayli, Hosil bayramlari, Qovun sayli, zum sayli kabi mavsumiy keng tarqalgan. O'sha davrlarda bunday ommaviy marosimlarni, xalq cholg'ulari ansambillari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin edi. Bayramlarda, madaniy marosimlarda, karnay, surnay, doira, nog'ora, chindovul cholg'ulari va boshqa urma zarbli cholg'ular keng qo'llanilgan". Bunday deyishga asosiy sabablarda biri, quldorlik tuzumi davrida ham mavjud bo'lgan quyidagi shaharlar: Maroqand, Niso, Tuproqqal'a, Termiz, va boshqa shu kabi hududlarda olib borilgan qazilma ishlar chog'ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularning tasvirlari topilganligini asos qilish mumkin. Bu kabi topilmalardan bilish mumkinki, O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida quldorlik jamiyati muhim bosqich bo'lganligi, unda xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashgan. Bu olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari XX asr boshlaridagi eng yirik arxeologik kashfiyotlardan biri bo'ldi. Bu esa musiqashunos olimlar tomonidan o'zbek cholg'ularini guruhlarga ajratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O. Nazarov Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2008.
2. Milliy cholg'ular tarixi va evolutsiyasi S.S. Jumayev – Toshkent; "KOMRON PRESS" MCHJ 2017.
3. Sh. Rahimov, H.Nurmatov . Cholg'u ijrochiligi tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2009.
4. O'rozali Toshmatov, Sobirjon Turatov. Ko'hna cholg'ular ijrochiligi. "Tafakkur nashriyoti". 2016.

**REZYUME.** Ushbu maqola o'zbek xalq cholg'ulari, milliy cholg'ular, sozgarlik mahorati, qayta tiklash, rekonstruksiya qilish, yangi cholg'ular, ohang, milliy madaniyati, ustoz-shogird an'analari, cholg'u ijrochiligi, ijrochilik maktabi, musiqiy ta'limdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. O'zbek milliy tarixiy cholg'ularini qayta yaratish va takomillashtirish, yangi cholg'ularni hozirda cholg'u ijrochiligida qo'llanilayotgan amaldagi cholg'ulardan farqli tomonini ilmiy jihatdan o'rganish va cholg'ular taraqqiyoti borasida musiqiy ta'limning har bir bosqichida an'anaviylik va zamonaviylikni o'zaro uyg'unlashtirgan holda milliy kuy ohanglarimizni yanada yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматриваются узбекские народные инструменты, национальные инструменты, музыкальное мастерство, реставрация, реконструкция, новые инструменты, мелодия, национальная культура, традиции учителя и ученика, музыкальное исполнительство, исполнительская школа, ее значение в музыкальном образовании. Воссоздание и усовершенствование узбекских национальных исторических музыкальных инструментов, научное изучение новых музыкальных инструментов, отличных от нынешних, а также развитие музыкальных инструментов на каждом этапе музыкального образования. Планируется разработать предложения и

рекомендации для дальнейшего. улучшение наших национальных мелодий путем объединения традиций и современности.

**SUMMARY.** This article on Uzbek folk instruments, national instruments, musical skills, restoration, reconstruction, new instruments, melody, national culture, teacher-disciple traditions, musical performance, performance school, its importance in musical education is discussed. Re-creation and improvement of Uzbek national historical musical instruments, scientific study of new musical instruments that are different from the current musical instruments, and the development of musical instruments at every stage of musical education. It is planned to develop proposals and recommendations for further improvement of our national melodies by combining tradition and modernity.

## **MUSIQALI DRAMALARDA HAYOTIY VOQEALARNING TASVIRLANISHI ("Vijdon" musiqali dramasi misolida)**

**R.Allanbaev** – professor

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali*

**Tayanch soʻzlar:** teatr, musiqali drama, hayotiy voqea, ifoda usuli, syujet.

**Ключевые слова:** театр, музыкальная драма, жизненное событие, способ выражения, сюжет.

**Key words:** theatre, musical drama, life story, method of expression, plot.

Sahna san'atining eng ta'sirchan janrlaridan biri bo'lgan musiqiy drama asrlar davomida insoniyatning eng chuqur tuyg'ulari, orzulari, kurashlari va yutuqlarini aks ettirib kelgan. U o'tmishdagi qahramonlik dostonlari va afsonaviy syujetlarga murojaat etish bilan birga, zamonaviy hayotiy voqealarni va jamiyatning dolzarb muammolarini ham badiiy tahlil qilishga qodir universal vositadir.

Qoraqalpoq sahna san'atida muhim o'rin tutuvchi asarlardan biri bo'lgan "Vijdon" musiqali dramasi [1] insoniy ma'naviyatning eng nozik qirralarini, axloqiy tanlovlar va vijdon azobining murakkabliklarini badiiy-estetik jihatdan chuqur yoritib beradi. Ushbu drama zamonaviy jamiyatdagi dolzarb muammolar, xususan, insonning o'z-o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabati, adolat, halollik va ichki poklik kabi mavzularni markazga oladi.

Asarning asosiy o'ziga xosligi uning psixologik va axloqiy chuqurligida namoyon bo'ladi. "Vijdon" nomidan ham ko'rinib turibdiki, drama qahramonlarning ichki dunyosiga, ularning yuzaga kelgan vaziyatlarda vijdon bilan bog'liq bo'lgan kurashlariga, xatolarining oqibatlariga va to'g'ri yo'lni topishga intilishlariga e'tibor qaratadi. Bu asar orqali jamiyatda uchraydigan adolatsizlik, mansabparastlik, xiyonat kabi illatlarning inson ruhiyatiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi va vijdonning bu kabi holatlardagi hal qiluvchi roli yorqin tasvirlanadi.

S.Palvanov va P.Tilegenov qalamiga mansub "Vijdon" ikki qismli musiqali drama bo'lib, insonning ma'naviy tanlovlari, oilaviy qadriyatlar va moddiy manfaatlar to'qnashuvi kabi dolzarb masalalarni markazga oladi. Birinchi bo'lim

dramaning asosiy konfliktini yorqin aks ettirib, qahramonlarning xarakterlarini ochib beradi va asarning keyingi rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

**Qatnashuvchilar:**

1. Odilbek: O'zining shaxsiy istaklari va moddiy boyliklar ortidan oilasini tark etgan, mas'uliyatsiz va beparvo er.

2. Jamila: Odilbek tomonidan tashlab ketilgan, bolasini yolg'iz tarbiyalayotgan, oilasiga sodiq, kuchli va vijdonli ayol.

3. Nozli: Odilbek bilan birga bo'lgan, moddiy narsalarga va yuzaki hayotga berilgan, vijdonsiz ayol timsoli.

4. Oyxon: Odilbekning opasi

5. Sabir: Jamilaning sadoqatli do'sti, adolat va insoniylik tarafdorlari.

6. To'ti va Jugunis: Dastlab Odilbek va Nozlining ta'siri ostida bo'lgan, keyinchalik Jamila so'zlaridan ta'sirlanib, vijdoni uyg'ongan qahramonlar.

7. Karim: Nozli va Odilbekning yuzaki dunyoparast do'sti.

Drama syujeti klassik dramatik tuzilishga ega bo'lib, ekspozitsiyadan kulminatsiyagacha bo'lgan birinchi bo'limda konfliktning keskinlashuvi yorqin tasvirlangan.

Drama Odilbekning uyida, Jamilaning ichki dunyosidagi g'amginlik va intiqish fonida boshlanadi. Sahna oddiy bo'lishiga qaramay, Jamilaning qo'shig'i -

"Oq bulutni oralab,

Oy suzadi osmonda,

Yor, yurakni yaralab,

Jabr berar yosh jonga" – uning ruhiy holatini, yolg'izlikdagi iztirobini musiqiy ohanglar orqali

ifodalaydi. Aynan shu paytda mast holda Odilbekning kirib kelishi va Jamilaning “Hoy Odilbek. Tong otguncha sen nima qilib yuribsan?” degan savoliga Odilbekning keskin “Unda sening ishing bo‘lmasin” deb javob berishi, ular o‘rtasidagi munosabatlarning sovuqchiligini, oilaviy totuvlikning buzilganligini ko‘rsatadi. Odilbekning chamadonini joylay boshlashi esa yaqinlashib kelayotgan fojiani, konfliktning yuzaga kelishining dastlabki belgisidir.

Asarda konfliktning rivojlanishi quyudagi harakatlarda ko‘rinadi:

Odilbekning oiladan voz kechishi: Odilbek Jamilaning “Rostdan ham ketmoqchimsan?” degan savoliga “Ha... ketaman” deb javob berishi bilan konflikt aniq shakl oladi. Jamila uning sababini so‘raganda, Odilbekning sovuq javoblari – “Ikkimizning fe‘l-atvorimiz, hayotimizni tushunishimiz ikki xil. Dunyoga ham qarashimiz har xil. Yurar yo‘limiz boshqa, taqdirimiz boshqa. Men uni endi tushundim” - uning o‘z qarorini qat‘iy qabul qilganini ko‘rsatadi. Jamilaning bolani o‘rtaga solib, otalik tuyg‘ulariga ta‘sir qilishga urinishi ham befoyda bo‘ladi: “U haqida gapiradigan vaqt emas. Men bilan tortishma”. Bu Odilbekning nafaqat xotiniga, balki o‘z farzandiga bo‘lgan beparvoligini, mas‘uliyatsizligini oshkor etadi. Uning Nozliga qo‘ng‘iroq qilib, “Kutyapmiz deyapsanmi? Hozir yetib boraman. To‘tini chaqirdingmi? Men ham Juginisni olib boraman. Yaxshi” deyishi, oilasini moddiy manfaatlarga va yuzaki xursandchilikka almashtirganini tasdiqlaydi. Odilbekning “Endi men sening uchun begona odamman, sen ham men uchun begonasan” degan so‘zlari Jamilani chuqur iztirobga soladi.

Nozlining dunyosi: Konflikt Nozlining uyidagi sahna bilan davom etadi. Bu yerda Odilbek va Nozlining yuzaki, hashamatga yo‘naltirilgan hayot tarzi ochib beriladi. “Saten kiygan qiz-yigitlar zamonaviy raqs o‘ynamoqda” va sharobning “Aytilsin shirin toslar” bilan ichilishi, ularning qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Nozlining Odilbekdan “menga qulay bobroviiy po‘stin” so‘rashi, uning moddiy narsalarga bo‘lgan ochko‘zligini va his-tuyg‘ularining savdo ob‘ekti ekanligini fosh etadi: “Puliga yarasha kiyim... Shunday po‘stin edi, shuni olib ber. Jonim yaxshimi, yoningda yarashli bo‘lib yurayin”. Bu Jamilaning sof muhabbati bilan Nozlining moddiyatga asoslangan “sevgisi” o‘rtasidagi keskin kontrastni yaratadi.

Juginis va To‘tining yo‘ldan ozishi: Odilbekning Juginisga pul berib, qizlarni o‘ziga rom etish usullarini o‘rgatishi, uning axloqsiz ta‘sirini ko‘rsatadi: “Pulning nima keragi bor? Qiz deganga borganda sovg‘a olib borish kerak, kino-

teatrga, kafega, tungi barlarga borganda pul kerak bo‘ladi. Shunday qilib o‘zingga tortmasang bo‘ladimi?” Bu sahna yosh avlodning qanday qilib moddiy boyliklar evaziga ma‘naviyatini yo‘qotishi mumkinligini ko‘rsatadi. Juginis va To‘tining dastlabki axloqiy me‘yorlari asta-sekin buzila boshlaydi.

Musiqiy drama kulminatsiyasi ya‘ni eng yuqori nuqtasi Jamila Nozlining uyiga kelib, u bilan yuzma-yuz kelganida yuz beradi. Bu sahna asarning eng keskin va ta‘sirli qismi hisoblanadi. Jamila faqat Odilbekni qaytarish emas, balki Nozlining ham insoniylik va vijdonini uyg‘otish maqsadida keladi. Uning so‘zlari Nozlining yuzaki dunyosiga chuqur ma‘naviy zarba beradi.

“Jamila: - U mana bu narsasini unutib qoldiribdi, men olib keldim. U yana bir narsalarni qoldirdi.

Nozli: - Nimani?

Jamila: - Oilasini, eng qadrli o‘z bolasini qoldirdi. Lekin men uni sizga olib kelib bera olmayman. Siz ham ayolsiz-ku, o‘zingiz o‘ylang. Ona o‘z bolasini

begona odamga bera olarmidi?”.

Jamila: “Siz bularni chin muhabbat halol sevis deb aytasizmi? Har mastlik orasidagi orsiz, iflos lazzatingizni muhabbatga sanaysizmi? Yo‘q, Nozli, senga o‘xshaganlarga muhabbat degan so‘z juda yengil narsa, o‘sha ulug‘ muhabbatni yuzga yopilgan parda qilib sizlar xo‘rlab, ifloslab yuribsizlar... Rostini aytsam, senga muhabbat emas, pul kerak. Muhabbatingizning barchasi pulda, yaxshi turib, yaxshi ichib yeb o‘tishda”.

Jamilaning bu so‘zlari nafaqat Nozlining, balki Odilbekning va shu kechada ishtirok etayotgan To‘ti va Juginislarning ham vijdoniga ta‘sir qiladi. Uning ochiqdan-ochiq haqiqatni aytishi, Nozlining ryumkani yerga urib, “Men endi chidab tura olmayman” deyishi - konfliktning eng yuqori nuqtasini belgilaydi. Bu sahnada Jamilaning ma‘naviy ustunligi, uning haqiqatni yuzaki baxtdan ustun qo‘yishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Kulminatsiyadan so‘ng, birinchi bo‘lim yechimga qarab harakatlanadi. Jamilaning so‘zlari natijasida Odilbek, Nozli va Karim sahnada qolib, qolganlar - Juginis, To‘ti va boshqa mehmonlar ularni tark etadi. “Juginis: “Yur To‘ti bizlar rostdan boshqa poyezdga minibmiz. Toza havoga chiqmoqchimiz”. Bu ularning vijdonini uyg‘onganligini va noto‘g‘ri yo‘ldan qaytishga qaror qilganliklarini anglatadi. Odilbek va Nozli esa yolg‘iz qolishadi, bu esa ularning qilmishlarining natijasi.

Asardagi asosiy mavzular vijdon va ma‘naviy uyg‘onish hisoblanadi. Asarning markaziy g‘oyasi vijdonga murojaat qilishdir. Odilbek va Nozli dastlab o‘z vijdoni bilan murosaga kelishgan

bo'lsa-da, Jamilaning so'zlari ularning ichki dunyosida jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Juginis va To'tining vijdonlari uyg'onib, ma'naviy poklanish yo'liga kirishlari bu mavzuni yanada kuchaytiradi.

Asarda oila qadriyatlariga katta urg'u beradi. Oilaning muqaddasligi va uning jamiyatdagi o'rni muhim o'rin tutadi. Odilbekning oilani tark etishi va Jamilaning uni saqlab qolish uchun kurashi oilaning qadr-qimmatini ochirib beradi. Ayolning kuchi va fidoiyligi hayotiy voqealarni tasvirlab beradi. Jamila obrazi o'z oilasi va qadriyatlari uchun kurashadigan, qiyinchiliklarga qaramay sindirilmaydigan kuchli ayol timsolidir. Uning ma'naviy kuchi, adolatga bo'lgan ishonchi atrofda qilargalarga ham ta'sir o'tkazadi.

"Vijdon" musiqali dramasiining birinchi bo'limi oila, vijdon va ma'naviyat o'rtasidagi konfliktni mohirona tasvirlaydi. Mualliflar nafaqat oilaviy mojarolarni, balki jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlar inqirozi va ularni qayta tiklash yo'llarini ham yoritib berishga intilganlar. Dramaning insoniy qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan g'oyasi, badiiy ifoda vositalaridan mahorat bilan foydalanishi uni tomoshabinlar uchun qadrlı va dolzarb asarga aylantiradi.

"Vijdon" musiqali dramasiining ikkinchi qismi, xususan, uchinchi kartina, asarning ma'naviy-axloqiy konfliktini yanada chuqurlashtiradi va qahramonlarning ichki dunyosidagi keskin o'zgarishlarni tasvirlaydi. Bu qism birinchi bo'limdagi voqealar zanjirining mantiqiy davomi bo'lib, vijdon azobi, xiyonatning oqibatları va haqiqiy qadriyatların ustuvorligi mavzularini yorqin ochib beradi.

Uchinchi kartina ikkinchi kartinadagi manzara - Nozlining uyida davom etadi. Bu xonadon hali ham yuzaki hayot tarzining, o'yin-kulgu va ichkilikbozlikning maskani.

Ekspozitsiyada daslabki kartina Nozlining zerikishidan shikoyat qilib, telefonda Karim bilan gaplashishi bilan boshlanadi. Uning "Bir o'zim to'rt devorning o'rtasida o'tiribman... hozir shunday ko'ngilsizman. U ishda" degan so'zlari tashqi hashamatga qaramay, uning ichki bo'shlig'ini, ma'naviy qashshoqligini ko'rsatadi. Uning "Boshim ozgina og'rib turibdi" deyishi esa o'tgan kechagi ortiqcha ichkilikbozlikning jismoniy oqibati bo'lsa-da, ramziy ma'noda uning hayot tarzining "og'riqli" ekanligiga ishora. Nozlining Karim bilan "importniy" narsalar haqida gaplashishi uning moddiy narsalarga bo'lgan ehtirosini va baxtni shu narsalarda ko'rishini ta'kidlaydi. Musiqiy parchadagi:

"Xohlasang xohlamasang umr o'tadi,  
Yoshlikning lazzatin behuda yuborma,  
Bu kunlar kelmasga badar ketadi,

Behuda o'tsa o'kinasan bir payt.  
Yeb-ichib kiyinishda bor lazzat,  
Muhabbat qizig'i barchasidan o'tar,  
Surib davron, sayronlab haz et,

Bu dunyo bir kuni o'tar-da ketar" satrlar Nozlining falsafasini ochib beradi - faqat hozirgi lahzadan yuzaki rohatlanish, kelajak va ma'naviy oqibatlar haqida o'ylamaslik.

Asarda konfliktning rivojlanishi qahramonlarning quyidagi harakatlarida o'z aksini topadi: To'tining ma'naviy uyg'onishi: Eshik taqillaydi va To'ti kirib keladi. Nozlining To'tiga "hozir sening bilan ellik grammdan tashlab yuboramiz... boshim o'z o'rnida emas" degan taklifi To'tining keskin "Rahmat men ichmayman" javobi bilan to'qnashadi. Bu To'tining o'zgarganini darhol ko'rsatadi. Nozli To'tining tashqi qiyofasidagi o'zgarishlarga - manikyur, bo'yoqsiz lablar, oddiy kiyim - e'tibor berib, uning "kelin bo'lmoqchi"ligini so'raydi. To'ti esa "Men u yasama baxtdan qo'l uzdim" deb javob beradi. Uning "Juginis yuragimni egallab muhabbatimni uyg'otdi. Men o'z baxtimni topdim. Ko'zim endi ochildi. Chin muhabbatning nima ekanini endi bildim" deb ta'riflashi To'tining ma'naviy transformatsiyasini tasdiqlaydi. U kran haydovchisi bo'lish istagini bildirishi, mehnat va halollikni tanlaganini ko'rsatadi. Nozli esa buni masxara qilib, "Sen aqldan ozgan ekansan. Umr odamga bir marta beriladi, uni qiziqarli va tomosha bilan o'tkazish kerak" deydi.

Vijdonsizlik va oqibatlar: To'tining asl maqsadi pulni qaytarib olish va Juginisning ustidan qo'zg'atilgan jinoyatni to'xtatishga Nozlining yordamini so'rash edi. To'ti Nozliga Odilbek bilan birga Juginisdan 100 000 000 so'mlik hujjatga mast qilib qo'l qo'ydirganliklarini aytadi. Nozli bu haqda bilmasligini da'vo qilsa ham, To'ti uning bu jinoyatga aloqadorligini yuziga soladi: "Kiygan po'stinlaring, kundalik huzur-halovat kechalaring, qiziqarli turmushlaring uchun Juginis hisob berishi kerakmi?" To'ti Nozlining vijdonsizligini, faqat o'z boshining omonligini o'ylayotganini fosh etadi: "Senda mehribon yurak, odamgarchilik belgisidan hech narsa qolmabdi. O'z qora boshlaringizning omonligini o'ylaysiz. Ammo boshqalarni chuqur o'yga solib, halol odamlarni bulg'agingiz keladi". To'tining "Agar Juginisga bir narsa bo'la qolsa, meni ayaydi deb o'ylama. Odilbek ikkingizning yuz pardalaringizni yirtib tashlayman. Kim ekanligingizni tanitaman. Tushudingmi?" degan tahdidi, adolatga bo'lgan ishonchining qanchalik kuchli ekanini ko'rsatadi. Bu esa Nozliga qattiq zarba beradi.

Oyxonning xaloskorligi: Oyxon Odilbekka to'g'ri yo'lni ko'rsatishga harakat qilib, Jamilaning muvaffaqiyatlarini aytadi va uni o'z oilasiga qaytishga undaydi: "Adashganning aybi yo'q, qaytib uyingni topgandan so'ng. O'z bolangga, o'z uyingga qaytsang bo'lmaydimi". Odilbekning "Vaqtim bo'lmadi" deb javob berishi va bolani rad etishi uning tubanlashganligini ko'rsatadi. Oyxon Odilbekni "Quzg'un" deb atashi va "Men sening opang emasman, tiling kesilgur" deya uning yuziga qaramasligi uning axloqiy hukmini beradi. Oyxonning qahr-g'azabi va uning kuchli so'zlari Odilbekning ichki dunyosida o'zgarishlarga turtki bo'ladi.

Asar kulminatsiya nuqtasi: Kartina so'nggida Odilbek va Nozli Karim bilan ichkilik ichib, yuzaki hayotdan "lazzat" olayotgan bir paytda, Odilbekning telefon qo'ng'irog'i keladi. U Juginisning o'zini osib qo'yganini eshitadi.

Odilbek: "Nozli, Juginis o'zini o'zi osibdi."

Nozli: (Hayratlanib) "Qanday?"

Odilbek: (Nima bo'layotganini endi tushunib) "Ha juxa. (ularga qarab yuradi, stolga kelib vinodan quyib, ichib yuborib vazmin) Yo'qol! Yo'qol deya! (Nozli Odilbekka vahimali qaraydi.)" Bu sahna asarning birinchi bo'limidagi eng keskin nuqtadir. Juginisning o'limi, uning vijdon azobi va adolatsizlikka chiday olmaganligining oqibati bo'lib, Odilbek va Nozlining vijdotsiz qilmishlarining bevosita natijasidir. Odilbekning vahima bilan "Yo'qol!" deb baqirishi uning ichki dunyosidagi dahshatli uyg'onishni, vijdon azobining kuchini ko'rsatadi. Nozlining vahimali qarashi esa uning ham dahshatga tushganini anglatadi. Bu lahza, o'yin-kulgu va hashamatga to'la yuzaki hayotning orqasida yotgan qorong'ulikni, qahramonlarning jinoyatining og'irligini yorqin tasvirlaydi.

Uchinchi kartina Juginisning o'limi bilan yakunlanadi, bu esa Odilbek va Nozlining yuzaki hayotining butunlay barbod bo'lishi ramzidir. Garchi dramaning birinchi bo'limi shu bilan tugasa ham, bu voqea ularning kelajakdagi taqdiriga, ayniqsa Odilbekning keyingi harakatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Juginisning o'limi ular uchun qochib bo'lmas haqiqatga aylangan vijdon azobining boshlanishi bo'lib xizmat qiladi. Bu yakun, adolatsizlik va vijdotsizlikning qanday og'ir oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi va tomoshabinni keyingi bo'limda qahramonlar qanday javobgarlikka tortilishi, ularning qanday o'zgarishi haqida o'ylashga undaydi. Drama insoniy qadriyatlarni oyoqosti qilishning shafqatsiz oqibatlarini ko'rsatib, yuksak ma'naviyat va adolatning ustuvorligini ta'kidlaydi.

"Vijdon" musiqali dramasi uchun uchinchi kartinasi konfliktning yanada chuqurlashuvi, qahramonlar xarakteridagi keskin o'zgarishlar va vijdotsizlikning og'ir oqibatlarini mahorat bilan tasvirlaydi. To'ti va Oyxonning so'zlari orqali halollik va ma'naviyatning ulug'vorligi ko'rsatilsa, Nozli va Odilbekning harakatlari yuzaki hayotning bo'shligi va uning fojialarini ochib beradi. Juginisning o'limi - bu, asarning asosiy g'oyasini, ya'ni vijdonning inson hayotidagi eng oliy mezon ekanligini tasdiqlovchi dramatik nuqta.

"Vijdon" musiqali dramasi uchun uchinchi akti, xususan, to'rtinchi ko'rinish, asarning yakuniy nuqtasi bo'lib, qahramonlarning taqdirini hal qiladi va dramaning asosiy g'oyasini to'liq ochib beradi. Bu sahna vijdonning g'alabasi, ma'naviy poklanish va hayotning haqiqiy qadriyatlarini haqidagi umumiy xulosani taqdim etadi. To'rtinchi ko'rinish birinchi kartinadagi ko'rinish - Jamilaning uyida boshlanadi, bu esa boshlanish nuqtasiga qaytish, ammo yangi ma'no bilan qaytish ramzidir. Sahna Jamilaning o'g'li Ahmadjonning tug'ilgan kuni tantanasi uchun qilinayotgan tayyorgarliklar bilan boshlanadi.

Jamila o'zining hayotiy yutuqlaridan quvonib, stolga vino qo'yadi va Ahmadjon uchun sovg'ani (Oyxonning sovg'asi - R.A.) o'qiydi. Uning "Qimmatli Ahmadjonga! (kuladi takrorlab) xuddi katta odamday ko'rib yozadi-ya! Ukam, sen ham uchga chiqib qolding..." degan so'zlari Jamilaning yangi hayotga bo'lgan umidini, onalik baxtini his qilishini ko'rsatadi. Uning stolni o'z yaqinlari - Sobir, Mariya va Kenes (ular kelmasligidan xabar topgan bo'lsa-da) uchun tayyorlashi, oila va do'stlikning uning hayotidagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Odilbekning suratini olib kelib, avval uni stolga qo'ymoqchi bo'lishi, ammo keyin "Yo'q, sen bu yerda o'tirmaysan Odilbek. Ikki yildan beri bolangning tug'ilgan kunini ham unutding" deb uni chetga surib qo'yishi, Jamilaning unga bo'lgan umidining so'ngani, ammo hali ham xotiralar bilan kurashayotganini ko'rsatadi. Jamilaning qo'shig'i:

"Qirli so'qmoq yo'llaring bor buralib,

Muhabbat to'riga men o'ralgan.

Uch yil bo'ldi suyukli yor ketgali,

Chekkani nolam yetmadimi hali unga" - uning ichki kechinmalarini, sog'inch va armonini ifodalaydi. Shuningdek, "Uyg'onganimga xursandman" iborasi Jamilaning yorqin kelajakka intilayotganini ko'rsatadi.

Konfliktning rivojlanishida Jamilaning yutuqlari va qat'iyati muhim ahamiyat kasb etadi. Sobirning kirib kelishi va Jamilaning "Ahmadjonning tug'ilgan kuni bilan tabriklayman" deyishi, o'z sovg'alarini berishi

ularning do'stligini mustahkamlaydi. Sobir Jamilaning "5" bahoga institutni bitirganligini va davlat stipendiyasi olganini aytib, uni ilmga qaytishga undaydi. Jamilaning avvaliga o'qishni tashlashga qaror qilgani, ammo Sobirning "qirqi o'tib biri qolganda o'qishni tashlab ilmni savdoga almashtirish xiyonat emasmi?" degan so'zlari uning fikrini o'zgartiradi. Bu Jamila xarakterining yuksakligi, uning ilm va ma'rifatga bo'lgan hurmatini ko'rsatadi.

Odilbekning sudlanishi xabari: Oyxonning kirib kelishi va Odilbekning sudlanayotganini aytishi ("Bugun uni sudlamoqchi") konfliktni yangi bosqichga olib chiqadi. Jamilaning dastlabki reaksiyasi - "Mening Ahmadjonimning otasinimi? Yo'q, men sudga borishim kerak... Balki mening yordamim kerak bo'lar!" - uning ichki ma'naviy pokligini, hatto xoin eriga nisbatan ham insoniylik va rahm-shafqat hissini saqlab qolganini ko'rsatadi. Uning "Uning gunohi yo'q, adashgan, aldangan deyman" deyishi, uning kechiruvchanligini, biroq bu hali so'nggi qaror emasligini ham bildiradi. Biroq, Oyxonning uni to'xtatib, "Soddadil. Bag'ringdan qaytishing tez bo'lar" degan so'zlari, Jamilaning bu harakati oddiy soddalik emas, balki chuqur insoniy his-tuyg'ularning namoyoni ekanligini ta'kidlaydi.

Sobirning muhabbati: Jamila sudga ketishi bilan Sobirning yig'lab, Jamilaga bo'lgan muhabbatini duzda dutor chertib ifodalashi ("Muhabbatning og'ir toshini orqalab, Hali yurman boshqani sevsang ham jonim. Yurak o't alangasi yonadi lovlab, Shunda ham hech narsa sezmayсан also") tomoshabinga uning sadoqati va Jamilaga bo'lgan samimiy hislarini yetkazadi. Oyxonning "Jamilani yaxshi ko'rasanmi?" degan savoliga Sobirning "- Sevaman..." degan javobi uning sevgisining chuqurligini ko'rsatadi. Sobirning "Jamila mening yuragimning yorug' yulduzi, undan boshqa hech bir ayol ko'ksimga quyosh tegib, gul o'stira olmaydi. Men yuragim orzu qilgan muhabbatimni kutaman, umrim tugaguncha kutaman" degan so'zlari uning halol va sadoqatli muhabbatining yorqin timsolidir.

Asar kulminatsiyasida Jamilaning sudga borib, qisqa vaqt ichida qaytishi ("Sud keyinga qoldirildi") dramaning keskinligini oshiradi. Sobirning Jamilaga o'z muhabbatini ochmoqchi bo'lishi ("Jamila, men sizga bir gap aytmoqchi edim...") va Jamilaning uning gapini bo'lib, "Aytmay qo'ya qol Sobir? Meni sevishingni sezib yuribman... Lekin shu kungacha boshqasini o'ylab keldim" deb javob berishi, munosabatlardagi yangi keskinlikni yaratadi. Sobirning "Meni faqat achinganingdan yaxshi ko'rganing yetarli emas. Ikki yurak tori bir ovoz bermasa, birga urmasa unday turmushdan ne ma'no bo'ladi... Chin

muhabbatingiz uyg'onguncha, menga atalgan yuragingizning bahori kelib guli ochilguncha kutaman. Yasama muhabbat bilan yasangim kelmaydi Jamila" degan so'zlari uning muhabbatining chinakamligini va yasama baxtga rozi emasligini ta'kidlaydi. Bu, Sobirning ma'naviy jihatdan Jamilaga loyiq ekanligini ko'rsatuvchi muhim lahzadir.

Musiqiy dramada yechim (pyesa yakuni) quyidagicha beriladi: Odilbekning qaytishi va Jamilaning rad etishi: Manzaraning asosiy kulminatsiyasi Odilbekning Jamilaning uyiga qaytib kelishi va o'z xatolarini tan olishidir. U Jamila oldida tiz cho'kib, "Jamila, qoqilgan odamga qo'l berib, yordam berish har kimning burchi emasmi? Yaxshi meni kechirmay qo'ya qol, lekin ana bola uchun kechirmaysanmi?" deb yig'lab yalinadi. Odilbek o'zining Nozli tomonidan aldanganligini ("U mening hayotimni zulmatga aylantirib, shunday ahvolga tushirdi") va Karimning ham jinoyatda ayblanayotganini aytadi. Jamila uning barcha gaplarini rad etib, "Sen qaysi yuz bilan kelding. Achinadi, kechiradi degan hayol bilanmi? Yo'q, Adilbek, sen meni bolam bilan tashlab ketib, ko'z yoshlarimizni to'kib, yuragimizni qonga bo'yading, ortimizdan birorta xabar olmading... Sen esa odamga o'xshagan soyasan. Endi chiq uydan" deya uni uyidan haydaydi. Uning "Hozir ham sen puxtalik bilan aldab turibsan, o'zingga qara, ko'zingda yosh yo'qku. Sening nima uchun bu uyga kelganingga endi tushundim. Panalashga joy topolmay kelib turibsan. Yo'q, u o'ying bo'lmaydi. Ket!" degan so'zlari Jamilaning naqadar aqlli, o'tkir zehni va qat'iyatli ekanligini, aldovga uchmasligini ko'rsatadi. Bu, Odilbekning ichki o'zgarishi samimiy emas, balki faqat qiyin vaziyatga tushib qolgani uchun sodir bo'lganini ifodalaydi.

Odilbek ketganidan so'ng, Sobir Jamilaga Juginisning tergovdan oqlanib chiqqanini va To'ti bilan birga uni tabriklashga kelayotganini xabar qiladi. Bu, asardagi adolatning qaror topishi va yaxshilikning g'alaba qozonishiga ishora. Dramaning yakuniy sahnasi Jamilaning Sobir bilan Ahmadjonning tug'ilgan kunini nishonlashga tayyorlanishi, Sobirning uni institutni bitirganligi bilan tabriklashi va nihoyat, Odilbekning "Jamila!" degan ovozini eshitib, Jamilaning "Odilbek! Odilbek!" deb tashqariga yugurib chiqib ketishi bilan yakunlanadi. Garchi Jamila Odilbekni tashqariga chiqib chaqirsa-da, bu uning uni kechirganini anglatmaydi, balki dramaning ochiq yakuni, tomoshabinning o'z xulosasini chiqarishiga imkon beradi. Ehtimol, Jamila hali ham insoniylikdan kelib chiqib, uning holidan xabar olishga yugurgan, yoki uning

ahvolini bilish uchun chiqqan. Asar Odilbekning yig'layotganiga qaramay, uning soxta pushaymonligini ko'rsatganligi sababli, Jamila uni kechirgan deb aytish qiyin. Ammo uning chiqib ketishi, asarga chuqur ma'no beradi.

Xulosa qilib aytganda "Vijdon" musiqali dramasi insoniy qadriyatlar, vijdon azobi, oilaviy munosabatlar va moddiy boyliklarga berilishning oqibatlarini kabi dolzarb mavzularni chuqur tahlil etadi. Asar tomoshabinni chuqur fikrlashga undaydi va ma'naviy tanlovlarni oldida turgan insonni ko'rsatadi.

Vijdonning g'alabasi: Asarning asosiy g'oyasi - vijdonning so'zsiz hukmronligi va uning inson hayotidagi eng oliy mezon ekanligi. Odilbek

va Nozlining yuzaki baxt ortidan quvishi ularni oxir-oqibat tubanlikka, yolg'izlikka va vijdon azobiga olib keladi. Aksincha, Jamila, Sabir, To'ti va Oyxon kabi qahramonlar o'zlarining ma'naviy qadriyatlari, halollik va do'stlikka bo'lgan sadoqatlari tufayli baxt va tinchlik topadilar. Juginisning oqlanishi ham adolatning qaror topishi va vijdonning g'alabasi ramzi.

"Vijdon" musiqali dramasi chuqur ma'no va ta'sirchan ijroga ega bo'lib, tomoshabinni o'zining ichki dunyosiga nazar solishga, hayotiy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Ushbu asar o'zining dolzarb mavzulari, yorqin obrazlari va dramatik yechimi bilan ma'naviy-axloqiy yo'nalishdagi muhim pyesa hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Vijdon" musiqali dramasi pyesa qolyozmasi.
2. Ayubetov Q. Qaraqalpaq sovet dramaturgiyasini tariyxidan ocherklar.- Nókis: "Qaraqalpaq mámleket baspası", 1963.
3. Bayandiyev T. Karakalpakskiy teatr. – Tashkent: "Fan", 1971.
4. Bayandiyev T. Qaraqalpaq teatri tarixi. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar markazi", 2011.

**РЕЗЮМЕ.** Ushbu maqolada qaraqalpaq musiqali dramasi san'atining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, unda hayotiy voqealarning badiiy ifodalanishi "Vijdon" musiqali dramasi misolida tahlil qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье на примере музыкальной драмы "Виждон" проанализированы особенности искусства каракалпакской музыкальной драмы, в частности, художественное изображение в ней жизненных событий.

**SUMMARY.** In this article, the specific features of the art of Karakalpak musical drama, in particular, the artistic expression of life events in it, are analyzed using the example of the musical drama "Vijdon".

## ШЫҒЫС АЛЫМЛАРЫНЫҢ МУЗЫКАЛЫҚ ЕМЛЕУ ҲАҚҚЫНДАҒЫ КӨЗҚАРАСЛАРЫ

**Балтаниязов Сарсенбай Айтмуратович – профессор**

*Ўзбекистан мамлекетлик көркем өнер ҳам мәденият институты Нөкис филиалы*

**Таянч сўзлар:** табобат, мусиқа, оҳанг, руҳий таъсир, аллома, шифо, анъана, куй кўшиқ.

**Ключевые слова:** Медицина, музыка, тон, душевное воздействие, мыслитель, лечения, традиция, песня.

**Key words:** medicine, music, scholar, tradition, harmony, emotional influence, recovery, melody song.

Шығыс медицинасында тәуиплер наўқасларды дәрилик өсимликлер, хайўан ағзалары, түрли минераллар хәм де шыпалы суўлар, дузлар менен емлеу усылларынан кең пайдаланған. Тәуиплер емлеу дәрилериниң тәбийийлиги, зыянсызлығы хәм басқа кеселликлерди қозғамаўына үлкен итибар қаратқан. Бирақ, инсанда физикалық кеселликлер менен бир қатарда руўхий, ақыйлы кеселликлер де гүзетилген, бундай кеселликлерди емлеуде шығыс медицинасы ўәкиллери музикадан кең пайдаланған.

Әйемги заманлардан берли тәуиплер наўқасларды музика, қосық, аяқ ойынлары

менен емлеп келген. Бундай усыл тек ғана бизде емес, ал барлық халықлар медицинасында бар. Мәселен, әйемги Мысыр тәуиплери наўқасларды сес жәрдемінде емлеу бойынша жақсы нәтийжелерге ерискен. Қытайлы тәуиплер болса наўқастың кеселлигине қарап оларға музикалық терапияның бирден-бир дәри-дәрманы нама-қосықлардан пайдаланыўды усыныс еткен [6]. Усы жерде хәр бир миллеттиң дүнья көз қарасы, менталитети, диний хәм әдеп-икрамлылық қәдириятлары және хожалық турмыс тәризи тийкарында өзиниң миллий музикасы қәлиплесетуғынын атап өтиў

орынлы. Географиялық, этникалық хэм басқа факторлар тэсиринде жергиликли музыка, яғный фольклор сол халықлардың дүнья көз қарасы хэм сезимлерине қарап, хэр түрли болып қэлипсеседи. Солай екен, миллий музыка сол халықтың дүнья көз қарасын, турмыс тэризин, тилеклерин билдириўши көрсетиўши қурал болып есапланады.

Өзелден шығыста музыкалық билим хэм оның ийелери қэдиленип келген. Барлық билимлендириў мәкемелеринде басқа пэнлер қатарында музыка тэлими де оқытылған. Сол себепли шығыс алымлары музыкалық билимге ийе болып, айырым саз эсбапларын шертиўди үйренген билген. Олар өз шығармаларында музыка хэм оның сыйқырлы дүнясын хэм айырым шыпа бериўши қэсийетлери хакқында тоқтап өткен.

Ибн Сино, Абдурахман Жамий, Алишер Наўайы хэм басқалардың шығармаларын анализлер екенбиз, усы шығармаларда музыка илими хэм оның шыпалы қэсийетлери хакқында толық мағлыўмат берилгенлигине гүўа болыўымыз мүмкин. Шығыс медицинасы дәстүрлерин илимий жақтан тийкарлап берген Абу Али Ибн Сино (980-1037) музыкаға тийисли бес шығарма жазған [3:134]. Дереклерге қарағанда алымның жаслығынан-ақ музыка менен турақлы шуғылланғанлығы атап өтиледі. Абу Али Ибн Сино музыканың инсанға тэсири, жағымлы яки жағымсызлығы, музыка сести еситилгенде лэззетлениў яки жек көриўшилиқ сыяқлы сезимлердің пайда болыўына итибар қаратады. Бундай жағдайлар инсанның тэбиятынан келип шыққан халда оның ден саўлығына унамлы ямаса унамсыз тэсир өткериўи мүмкин екенлигин атап өтеди.

Ибн Сино медицинада музыкадан пайдаланыўға байланыслы көз қарасларын "Тиб қонунлари," "Китоб аш-шифо" сыяқлы шығармаларында алға сүрген. Соның ишинде: "баланың темпераментин күшейтиў ушын еки нэрсени қолланыў керек. Бири баланы эсте тербеў, екиншиси, оны уйқылатыў ушын айтыў әдетке айланған музыка хэм хэйийи айтыў. Усы екеўине қарап баланың денеси менен дене тэрбиясына, руўхы менен музыкаға болған таланты пайда болады" дейди [9].

Хэйийи айтыў инсанның жүрек соғыўын (пульс) уд сазын сазлаў менен салыстырып үйреткен [2:138]. Пульстиң музыка тембри хэм ритмине сэйкеслигин төмендегише түсиндирип өткен: "Сен соны жақсы билиўиң керек, пульсте тэбийий нэзик музыка ырғағы жэмленген. Музыка көркем өнериндеги сеслердің қосылыўы, кеселликтиң өткир дәўири хэм аўырлық дәрежесиниң

сэйкеслигин сәўлелендиреди хэм бул ритмлер арасындағы ўақытты белгилейди" [5:109]. "Киобаш-шифо" шығармасының музыкаға бағышланған бөлиминде де бул туўралы сөз етип, "Сезиў ағзаларына тэсир ететуғын нэрселерден бири сес болып, ол өзине тэн жағымлығы менен ажыралып турады. Инсан қэлби хэр бир жағымлы намадан тынышлық алады" делинеди хэм наўқас өз минезинен келип шығып өзине сэйкес музыка хэм ырғақты таңлаўи кереклигин аңлатады.

Демек, биз музыка еситкенимизде барлық дене ағзаларымызда хэм руўхыятымызда өзгерис жүз береді хэм музыканың руўхы хэм денеге сэйкес келиўи кеселликлерден азат етеди. Ибн Сино өз дәўириниң жетик тэўиби болыўы менен бирге музыкалық билимнен де жақсы хабардар болғанлығын оның шығармаларын бахалаў арқалы билип алыў мүмкин. Илимпаз музыканы медицинаға тек емлеў усылы сыпатында енгизип қоймастан, ал айырым медициналық процеслерди басқаларға түсиндириў ушын да музыкалық билимлерден кең пайдаланған.

Музыканың инсанға тек ғана эстетикалық заўық бериўи емес, ал руўхый жағдайға тэсирин де ашып бериўге хэркет еткен алымлардан бири Ал-Киндий еди. Оның пикиринше, музыка инсан руўхына тэсир етиўши дәри-дэрмақ. Дереклерде Ал-Киндий бир сәўдегердің шал болып қалған баласын уд эсбабынан таралған нама арқалы емлегени хакқында мағлыўматлар ушырайды [8]. Екинши деректе Дарвеш Али Чангидиң чанг эсбабы музыкасы менен наўқасты емлегенлиги келтирилген [10].

Орта эсирлерде жасап өткен және бир алым Әлийшер Наўайы (1441-1501) өзиниң "Мажолисун нафоис" шығармасында музыканың хэм көркем өнердің жанландырыўшы, шыпа бериўши хэм тынышландырыўшы тэсирин ашып берген. Оның өзи де тиккелей музыка илиминен хабардар болып, музыканың инсан санасына хэм руўхыйлығына болған тэсирин жақсы аңлаған. Абдурауф Фитрат өзиниң "Өзбек классик музыкасы хэм оның тарийхы" китабында Наўайының музыка илимин Хожа Юсуф Бурхан исмли белгили музыкант алымнан үйренгени, музыка теориясы хэм әмелиятын жақсы билгенлигин жазады [4]. Наўайы инсан өмиринде музыканың орны хэм оның тэсири сыяқлы мәселелерге үлкен итибар береді. Музыка хэм медицина илиминен хабардар болған алым инсанларды емлеўде нама хэм ырғақтың орны шексиз екенін шығармаларында көриўимиз мүмкин.

Наўайы устазы Абдурахман Жамийден (1414-1492) музыка ҳаққында шығарма жазыўды өтиниш еткен. Соннан кейин Жәмий "Рисолайи мусикий" шығармасын дөреткен. Шығармада алым музыкаға инсан хэм тәбият арасындағы бирликти белгилеўши фактор сыпатында қарайды хэм шығармасының ақырында халықтың уллы мийрасы "Шашмақом"ның инсан руўхиятына болған тәсири ҳаққында тоқтап өткен [7]. Оған муўапық, "Шашмақом"дағы хәр бир мақам инсанның физикалық (батырлық, қуўат, күш) хэм руўхый (қуўаныш, қайғы) халатын тең салмақлылықта устайды. Бул болса дене хэм руўхый саламатлығына тиккелей тәсир етеди. Буннан тысқары Кайковус (1021-1098), Махмудал-Ширазий (1236-1310), Мухаммед ал-Амулий хэм басқалар музыканың шыпа бериўши қәсийетке ийе екенлигине, шебер сазенде қолында адам руўхына, дәртинде даўа болыў менен бирге, минез-қулқын жақсы тәрәпке өзгерте алыўына итибар қаратқан [1].

Шығыс данышпанлары өз көзқарасларында музыканы адамлардың

руўхый дүнясын хэм руўхый көринисин емлеў факторы сыпатында алға сүрген. Шығыс медицинасында кеселликлер үлкен еки топарға ажыратылады: руўхый хэм ақый кеселликлер хэм де физикалық кеселликлер. Шығыс данышпанлары хәтте физикалық кеселликлерди емлеўде де бирлемши хәрәкет сыпатында наўқастың руўхый әлемин дүзетиў зәрүр деген. Бүгинги күнде заманағой медицинада тек ғана руўхый кеселликлер емес, ал қурамалы операцияларды әмелге асырыўда да музыка қолланылмақта. Дүняның раўажланған мәмлекетлеринде "музыкалық терапия" курслары шөлкемлестирілген. Демек, орта әсир Шығыс данышпанлары өз излениўлеринде музыканың шыпалы қәсийетлери хэм де инсан руўхиятын емлеўде теңсиз дерек екенлиги ҳаққында баҳалы мағлыўматларды қолға киргизген. Бүгинги күнде болса бул көзқараслар тек ғана жәхән музыкасы жетискенлиги емес, бәлким шығыс медицинасы дәстүрлериниң өзине тән системасы сыпатында дүня мәдениатында өз орнына ийе болды.

#### Пайдаланылған әдебиятлар

1. Арипов Т. Ибн Сино ва унинг мусикашуносликка оид асарлари // "Ибн Сино тәлимоти тараққийетида" мавзусидаги ВИИ халқаро анжуман тезислари. Бухара. 2013-жыл.
  2. Ирисов А. Абу Али Ибн Сино ҳаёти ва ижодий мероси. Ташкент. 1980-жыл.
  3. Мустафоев Ш. Шоир сағатшунослар нигоҳида // Зарафшон. Но 19. 11-февраль 2016-жыл.
  4. Разикова И., Өталов Қ., Ёрматова Ш. Абу Али ибн Сино асарларида беморларни даволашда мизож ва пульсинг аҳамияти // "Ибн Сино тәлимоти фан тараққийетида" мавзусидаги ВИ халқаро анжуман тезислари. Бухара. 2011-ж.
  5. Розийева З. Музыка - мың дәртиң еми // Қашқадәрия. Но 136. 10-ноябрь 2015-жыл.
  6. Шамсиев П. Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий. Ташкент. 1966-ж.
  7. Феруза Аскар. Музыка хэм инсан мәнәўияты. Т.2000. 12-бет.
  8. Абу Али Ибн Сино. Медицина низамлары. Том I. Т. 1993. 75-бет.
- Рашидова Д. Дарवेशали Чангий // Совет Өзбекистони. 1978. Но 10. 18-19-бетлер.

**РЕЗЮМЕ.** Мазкур мақолада ўрта асир шарҳ алломаларининг мусика ёрдамида ҳасталиқларни даволаш борасида даволаш қарашлари келтирилган. Хусусан муаллиф Ибн Синонинг табобатда мусиканинг тутган ўрни ва аҳамияти ҳақидаги фикирларини тадқиқ этган. Шу билан биргалиқда бошқа халқларнинг ҳам мусикий даволашга доир қарашлари келтирилган.

**РЕЗЮМЕ.** В этом сатье дано изгляды мыслителей востока в средневековье, которые, упопянули, про лечение с помящю музыку. В особенности автор исследовал мнение Ибн Сино про роль. и важность музыки в лечении. Вмести с этим приведено взгляды других народов лечение болезней с помящам музыки.

**SUMMARY.** In this article eastern scholars mentioned about the ideas that eastern scholars treated different illnesses with the help of music. Precisely the author investigated Ibn Sino's opinions about the role and importance of music in medicine. Besides there was mentioned the ideas of other nations related to musical treatment.

## NÁPES HÁM SHÍNJÍR NÁPES USÍLLARÍ

A.K.Bekpolatova – docent

Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filiali

**Tayanch soʻzlar:** vokal-xor ijrochiligi, nafas olish texnikasi, diafragma, zanjir usulida nafas, xor jamoasi, nafasni boshqarish, mashqlar, ovozni nazorat qilish, nafas va tovush, nafas turlari.

**Ключевые слова:** вокально-хоровое исполнительство, техника дыхания, диафрагмальное дыхание, цепное дыхание, хоровой коллектив, контроль дыхания, упражнения, контроль звука, дыхание и голос, виды дыхания.

**Key words:** vocal-choral performance, breathing technique, diaphragmatic breathing, chain breathing, choir ensemble, breath control, exercises, voice regulation, breathing and sound, types of breathing.

Biz bilemiz, insan dem alıw aǵzaları arqalı dem alıp, dawıs apparatı járdemi menen dawıs shıǵaradı. Artikulyaciya apparatı járdeminde sóyleydi hám qosıq aytadı.

Xor jámáatı atqarıwshılıǵında dem alıw tiykarǵı roldi atqaradı. Demek dem alıw vokal-xor texnikasınıń eń zárúr elementleri bolıp tabıladı. Ol dawıstıń rawajlanıp barıwında fundament wazıypasın atqaradı. Qosıq aytqan waqıtta nápes tez alınıp, ásten shıǵarıladi. Demek qosıq aytqan waqıttaǵı dem alıw menen sóylegendegi dem alıwdıń bir-birinen parqı bar.

Dem alıw ádette úsh túrge bólinedi: birinshisi, joqarı kókrekte, yaǵnıy dem alıw kókrektiń joqarǵı bóleginde iyinnen dem alıw. (klyuchichnoe-iyinnen). Dem alıwdıń bul túri qáwipli bolıp, vokal-xor atqarıwshılıǵında ulıwma paydalanılmaydı. Ekinshi túri kókre-karın (orta qabırǵa-qaptalǵa). Úshinshi túri, aralas (páski qabırǵa-diafragma yamasa kosto-abdaminal).

Xor jámáatı atqarıwshılıǵında nápes tómengi qabırǵa-diafragma usılınan paydalanıladı. Bunı jámáatke jaqsılap túsindirip, keyin kórsetip beriw kerek boladı. Bul usılda dem alǵanıwızda qaptalı eki sheti hám tómengi qabırǵalar keńeyedi Dem alıw waqtında kókre-karın qápesi kóterilmewi kerek. Úlken tájiriybege iye qosıqshılarda kókrektiń joqarı bóleginde dem alıw ulıwma ushıraspaydı. Olar tek ǵana tómengi diafragmaǵa dem alıp, qarınıń tómengi bólegin ǵana háreketke keltiredi. Dem alıwdı únemli etip sarıplaw qosıqshınıń kóp jıllıq tájiriybesine, sheberligine baylanıslı boladı. Dem, murın hám awız benen bir waqıtta ózinde alınıwı kerek. Shinǵıwlar hám sabaq barısında dem alıwdı úyreniw yaǵnıy qollardı qaptalǵa, eki shetke qoyǵan halda dem alıwdı baqlap barıw, qollardı qabırǵanıń tómenine, qaptal tárepke hám qarın boshlıǵınıń aldǵa, al qabırǵalardıń qaptal tárepke keńeyiwın baqlap barıw jaqsı nátiyje beredi. Xor sabaqlarında diriyordıń qol háreketlerine qarap bir tegis demdi alıp, hám asıqpastan shıǵarıwdı úyreniwde júdá maqul boladı. Nápes shıǵarmanıń tempine, ǵaplerdiń úlken kishiligine qarap bir tegis, tez, jeńil hám

tereń alınadı. Demek nápes alıwda moyınıń durıs, gewdeniń erkin halda turıwına, iyinlerdiń kóterilmey, demniń diafragmaǵa alınıwına úlken itibar qaratıw zárúr esaplanadı.

Dem alınıp belgili bir qısqa waqıtqa shekem uslap turıladı hám shıǵarıla baslaydı. Dem alıw tamamlanǵanda qosıqtı aytıp baslaw kerek boladı. Dem alıw qosıqtı aytıwǵa tayarlanıw bolıp esaplanadı. Dem shıǵarıw qosıqtı aytıp baslawǵa sáykes, yaǵnıy tuwrı keledi.

Qosıq aytqan waqıtta demdi júdá kóp alıwǵa bolmaydı, sebebi dawıs sharshap, tınıq taza shıqpwı múmkin. Demdi únemlep sarıplaw kerek. Bunnan basqa artıqsha alınǵan hawa dawıs perdelerin sıǵıw nátiyjesinde dawısta detonaciya payda bolıwı múmkin. (detonaciya-bul dawıstıń páseyiwi degendi bildiredi). Dem ǵaplerdiń sońında hám taza ǵaptıń basında alınadı. Dem alıw belgisi partiturada “√” belgi menen belgilenedi. Sózdıń ortasında dem alıwǵa bolmaydı, bul múmkin emes.

### Shınjir usılında dem alıw

Biz jaqsı bilemiz, shıǵarmanı bir dem menen basınan aqırına shekem atqarıw múmkin emes. Sol sebepli xor atqarıwshılıǵında júdá kóp ushırasatuǵın demniń jáne bir túri shınjir usılında dem alıw bolıp tabıladı. Kóp dawıslı iri shıǵarmalardı atqarǵan waqıtta qosıq úziliske túspewi ushin qosıqshılar demdi bir waqıtta emes, gezek penen alıwı maqsetke muwapıq boladı. Yaǵnıy bir qosıqshı dem alǵanda qasındaǵı ekinshi partiyanıń qosıqshısı atqarıwdı sozıp dawam ettiriwi múmkin. Sol waqıtta aldınǵı qosıqshı demin durıslap, basqalardan ajıralmaǵan halda partiyaǵa qosılıp ketedi. Sonnan soń partiyadaǵı ekinshi, úshinshi qosıqshılarda usınday jol menen dawam etip keteberedi. Nátiyjede shıǵarma úzliksiz tolıq atqarıladi. Bunday atqarıwdı shınjir usılındaǵı yamasa úlesip alınıwı dem dep atasaqta boladı. Shınjir usılındaǵı kónlikpelerdi payda etiw ushin garmonik shinǵıwlardan major, minor ses qatarlarınan paydalanıp aytqan jaqsı nátiyje beredi.

Demek, xor atqarıwshılıǵında qabırǵa-diafragma túrinde dem alıw usınıs etiledi. Dem alıw gáplerge qarap qısqa, tereń hám shınjır usılında bolıwı kerek. Bul usılda dem alıw xor atqarıwshılarınan úlken texnikanı talap etedi. Durıs dem alıwǵa qalay erisiwge boladı degen sorawǵa: birinshiden qosıq aytqan waqıtta álbette turıp yamasa tuwrı otırǵan halda (shınıǵıwlar waqtında) emin erkin bolıwı kerek. Demdi tez, biraq erkin tutıp, qısılmastan iyinlerdi kótermegen halda alıw kerek. Dem alıwda tiykarǵı baslı úsh element: bular demdi alıw, azǵana demdi uslap turıw hám demdi shıǵarıw.

Qosıq aytıwda demdi alıw úlken áhmiyetke iye, sonıń menen birge demdi uslap turıwda zárúr esaplanadı. Qosıq aytıw barısında demdi shıǵarıwda úlken rol oynaydı. Demdi shıǵarıw pútkilley emin erkin bolıwı tiyis. Demdi shıǵarıw barısında kontrol joǵalsa, baqlap barılmasa detonaciyaǵa ushırawı múmkin.

Tájiriybeli úlken qosıqshılardıń aytıwınsha mısalı; demdi alıw, názik gúldi iyiskelegende, al demdi shıǵarıw shamnıń jalının áste aqırın óshirgende bolıw kerek.

Qosıq aytqan waqıtta demdi únemlep shıǵarıw ushın arnay shınıǵıwlar aytıp úyreniw kerek. Bunıń ushın demdi shıǵarıp atırǵanda ózinshe ishińnen dáslep bes, altıǵa shekem sanap, keyin bolsa onǵa shekem sanap kóbeytiw kerek. Demdi shıǵarıp atırǵan waqıtta onı elede kóbirek anıqlap seziw ushın ısıldap shıǵatúǵın seslerden paydalansa boladı, mısalı: s, z, sh, ch.

Dawıslı sesler bolsa, mısal retinde a, e, u seslerin ortańǵı registrda (primar zona dep ataladı) shınıǵıwlar aytıw júdá qolaylı. fa, sol, lya birinshi oktava hayallar ushın hám bir oktava tómen erler ushın dawısqa kúsh túspegen halda shınıǵıwlardı aytqan maqul boladı.

Kóbinese tájiriybesi az bolǵan qosıqshı óziniń bar dıqqatın dem alıwǵa awdarıp jaqsı baslaydı, al keyinrek qosıq aytıw barısında kontroldı joytıp qoyıp baqlay almay demdi alıwda qátelikke jol qoyadı. Sonıń ushın qosıq aytqan waqıtta dirijyor dıqqat penen hárbir qosıqshıǵa itibarlı bolıp oǵan demdi alatuǵın waqıtı eskertip barıwı kerek. Shınjır usılında dem alıwǵa shınıǵıwlar awızdı jumıp hám hár qıylı dawıslı sesler menen atqarıladı. Xormeyster ózi qálegeninshe dawıstıń kúshin ózgeritiwi múmkin.

Shınjır usılındaǵı dem alıwdı jaqsı qalıplestirip, ózlestirip alıw ushın xorǵa gammalardı úlken sozımlıqta pauzasız aytıw másláhát etiledi. Bunıń ushın qosıqshılar gammanı aytqan waqıtta demdi hámmesi bir waqıtta emes, al tiykarınan uzın seslerdiń ortasında alǵan maqul.

Demek, xor atqarıwshılıǵında bul jaǵdaylar júdá jaqsı nátiyje beredi. Bunı xor atqarıwshıları joqarı dárejede túsiniw biliwi kerek.

Bunnan basqada vokal-xor kónlikpeleriniń jaqsı nátiyjeli bolıwı, xor jámaátiniń kerekli dárejede dem alıw nápes texnikaların qanshelli ózlestirgenligine baylanıslı.

#### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Bagirova F. „Dirijyorlik” O’quv qo’llanma. – T. 2010.-230b.
2. L.Jumayeva, N.Sharafiyeva. „Xor sinfi va kamer xor.” O’quv qo’llanma. T.: Barkamol fayz media, 2017.– 287 b.
3. Malikova S., Vasilchenko O. „Dirijyorlik” O’quv qo’llanma. – T.: 2018.
4. Ye.Nechayev „Rabota s lyubitelskim xorom” O’quv qo’llanma. T., 2008 OOO «ALGO - BOSS» nashriyoti.
5. Mansurbekova F.Malikova D. „Xor sinfi” O’quv qo’llanma. T.: Lesson press. 2019.– 232 b.
6. Shaxmudova B.V. „Xor lug’ati”. O’quv qo’llanma. Musıqa nashriyoti T.2009.
7. Vasilchenko O.A. „Xorovoy klass”. Lesson press. O’quv qo’llanma -T.: 2011- 180 bet.
8. Vasilchenko O, Malikova S.”Dirijirovaniye”.Uchebnoe posobiye – T.: 2020.

**REZYUME.** Ushbu maqolada vokal-xor ijrochiligida nafas olish texnikasi va uning turlari batafsil yoritilgan. Nafas – ovoz hosil bo’lishining asosiy omili bo’lib, uni to’g’ri ishlatish qo’shiqning sifatli, toza va ohangdor ijrosiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Nafas olishning uch turi mavjud: yuqori ko’krak, o’rta (ko’krak-qorin), va pastki (qaburg’a-diafragma). Xor ijrosida eng samarali va tavsiya etilgan usul – pastki diafragma nafas olishdir. Maqolada zanjir usulidagi nafas olish ham keng yoritilgan. Bu usulda xor ishtirokchilari nafasni navbatma-navbat oladi, natijada asar uzilmasdan uzluksiz ijro etiladi. Ayniqsa, ko’p ovozli, murakkab asarlar uchun bu muhim hisoblanadi. To’g’ri nafas olishni o’rganish uchun maxsus mashqlar, tovushli takrorlar va dirijyor rahbarligida mashg’ulotlar talab etiladi. Ushbu texnikalarni chuqur o’zlashtirish xor jamoasining ijrochilik darajasini sezilarli oshiradi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье подробно рассматриваются техника дыхания и её виды в вокально-хоровом исполнительстве. Дыхание — это основной фактор формирования звука, и его правильное использование напрямую влияет на качество, чистоту и выразительность исполнения песни.

Существуют три типа дыхания: верхнегрудное, среднее (грудно-брюшное) и нижнее (рёберно-диафрагмальное). В хоровой практике наиболее эффективным и рекомендуемым считается нижнедиафрагмальное дыхание. В статье также широко освещается метод «цепного дыхания», при котором участники хора дышат поочередно, обеспечивая непрерывное исполнение произведения. Это особенно важно при исполнении многоголосных и сложных композиций. Для овладения правильным дыханием требуются специальные упражнения, вокальные повторения и регулярные занятия под руководством дирижёра. Глубокое освоение этих техник значительно повышает уровень хорового исполнения.

**SUMMARY.** This article provides a detailed overview of breathing techniques and their types in vocal-choral performance. Breathing is a fundamental factor in sound production, and its proper use directly affects the quality, clarity, and expressiveness of singing. There are three types of breathing: upper chest, middle (thoraco-abdominal), and lower (rib-diaphragmatic). In choral practice, the most effective and recommended method is lower diaphragmatic breathing. The article also thoroughly discusses the chain breathing method, in which choir members take turns breathing, allowing for uninterrupted performance. This technique is especially important in complex, polyphonic works. Mastering proper breathing requires special exercises, vocal repetitions, and guided rehearsals with a conductor. A deep understanding of these techniques significantly enhances the choir's overall performance quality.

## РОЛЬ СТРУННЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В СИМФОНИЧЕСКОМ ОРКЕСТРЕ

Эмбергенова Гулайда Айтбаевна – преподаватель кафедры "Вокал"  
Государственный институт искусств и культуры Узбекистана  
Нукусского филиала

**Tayanch soʻzlar:** torli cholgʻu asboblari, orkestrdagi ahamiyati, texnik imkoniyatlar, tovush palitrasi, orkestr balansining saqlanishi, orkestrning tovush strukturasi, orkestr tarmogʻining ahamiyati.

**Ключевые слова:** струнные инструменты, значение в оркестре, технические возможности, звуковая палитра, сохранение баланса оркестра, звуковая структура оркестра, значение оркестровой сети.

**Key words:** string instruments, their significance in the orchestra, technical abilities, sound palette, preservation of the orchestra balance, sound structure of the orchestra, significance of the orchestra network.

В симфоническом оркестре струнные инструменты играют ключевую роль благодаря своей уникальной звуковой палитре, широким техническим возможностям и способности поддерживать баланс оркестрового звучания. Скрипки, альты, виолончели и контрабасы составляют основу звуковой структуры оркестра и занимают центральное место в его музыкальной композиции и выразительности.

Эти инструменты обеспечивают оркестру богатую палитру тембров и позволяют воплощать сложные музыкальные идеи композитора. Звучание струнных гармонирует с другими инструментальными группами, создавая целостное и насыщенное музыкальное полотно. Струнные могут задавать мелодическую, гармоническую и ритмическую основу произведения. Скрипки обладают широкими выразительными возможностями в передаче мелодий, альты и виолончели придают звучанию глубину и насыщенность, а контрабасы подчеркивают его низкочастотную опору.

Струнные инструменты гармонируют звуковые цвета в оркестре и помогают точно выразить музыкальную динамику, то есть процессы усиления и уменьшения звука. Роль струнных инструментов в поддержании равновесия в оркестре огромна. Они обеспечивают сбалансированность общего звучания оркестра, гармонируя с другими группами. Струнные инструменты могут успешно синтезироваться с другими группами в оркестре, такими как позы, флейты и фаготы.

Струнные инструменты всегда выполняют важную функцию в оркестре, четко определяя роль каждой группы и обеспечивая точность музыкального выражения. Звуковая структура оркестра, то есть его органическая структура, формируется струнными инструментами. Скрипки несут в себе мелодические элементы в оркестре, и они часто полностью работают с другими группами, что еще больше обогащает общую структурную организацию оркестра. Чело и альт, с другой стороны, составляют нижние слои оркестра, обеспечивая музыкальную и

ритмическую стабильность оркестра. Значение симфонической оркестровой сети через струнные инструменты огромно. Струнные инструменты обладают обширными техническими возможностями. Плавные переходы между регистрами позволяют гибко управлять динамикой, а приёмы игры, такие как легато, арпеджио, трели, пиццикато, тремоло и другие, придают оркестру богатую тембровую палитру. Это делает их важнейшими выразительными средствами в симфонической музыке. Каждый инструмент струнной группы отличается своей функцией: скрипка - выразительна и мелодична в высоких регистрах, альт и виолончель - создают насыщенные средние и низкие звуки, а контрабас - формирует прочную звуковую основу. Все вместе они гармонизируют звуковые слои оркестра и способствуют точному выражению музыкальной динамики. Особенно важно участие струнных в

формировании звуковой структуры оркестра. Они взаимодействуют с другими группами, такими как медные и деревянные духовые, создавая единый звуковой ландшафт. Это позволяет добиться баланса, контрастов и художественной целостности в звучании оркестра. Исторически именно струнные инструменты стали основой формирования симфонического оркестра в XVII–XVIII веках. Они остаются его сердцем и сегодня, сохраняя своё значение как фундаментальная и наиболее гибкая группа оркестра. Современные композиторы продолжают активно использовать струнные инструменты как основное средство художественного выражения. Таким образом, струнные инструменты не только выполняют мелодико-гармонические функции, но и играют определяющую роль в формировании общей тембровой картины симфонического оркестра.

#### Использованная литература

1. Н. Зряковский. «Общий курс инструментоведения» — М., 1963. Раздел «Смычковые инструменты» (скрипки, альты, виолончели, контрабасы). Особенно полезна глава о структурно-функциональной роли струнной группы ([instrumentovka.blogspot.com](http://instrumentovka.blogspot.com)). Стр. 20–25.
2. М. Чулаки. «Инструменты симфонического оркестра» — М., 1962 (со многими переизданиями). Подробный разбор струнной группы и их оркестровых функций ([instrumentovka.blogspot.com](http://instrumentovka.blogspot.com)). Стр. 105 – 110. 2004 года ([studylib.ru](http://studylib.ru)).
**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Mustaqillik davrida asrlar davomida shakllangan xalq bayramlarini qayta tiklash va ommaviy tarzda nishonlashga alohida e'tibor qaratildi. Ommaviy xalq bayramlari teatrlashtirilgan tomoshalar timsolida yangicha mazmun kasb etmoqda. O'gan qisqa vaqt mobaynida bu sohada o'ziga xos tajriba to'plandi va bayramlar bilan bog'liq yangi san'at turib dunyoga keldi. Bu keng miqyosda

nishonaladigan, maxsus ssenariyga ega teatrlashtirilgan uslubi asosida tashkil etiladigan madaniy-ommaviy tomoshalardir.

Tadbirlarda va ularda foydalanilayotgan sahna ko'rinishlarida monologlardan foydalanishning ahamiyati katta. Negaki monolog epik yoki lirik qahramon hayotining bir parchasi sifatida harakatni bir muddat to'xtatib, tomoshabinni mulohaza yuritishga chorlaydi. Ba'zan monolog sahna ko'rinishlaridagi harakat bilan bog'liq bo'lmagan mavzular bo'yicha mavhum mulohazlarni bildiradi va bu bilan tomoshabinga murojaat etadi. Aristotel o'zining “Poetika” asarida monologni dramaning muhim tarkibiy qismlaridan biri deb atagan. Ya'ni sahna tomoshalari qahramonlarining tomoshabinga yaqinligi alohida harakat muhitini yaratadi – tomoshabin aytilayotgan nutqning bevosita manziliga aylanadi[1].

Ko'proq hissiy ta'sirga erishish uchun monologlar romantik tragediyalarga kiritiladi. Qisqa qilib aytganda, dramaning asosiy mazmuni personajlarning ruhiy harakati bo'lib, u monologlar orqali ochib beriladi.

Madaniyat xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va an'alarining majmuidir. Milliy bayramlar esa madaniyatning ajralmas qismi hisoblanib, ular xalqning tarixiy merosini saqlab qolish, yosh avlodga yetkazish va madaniy merosni boyitishda muhim rol o'ynaydi. Madaniy merosni saqlash orqali xalqning qadimiy an'analari kelajak avlodlarga yetkaziladi. Milliy san'at rivojiga turtki bo'ladigan eng asosiy omil zamon va texnikaning shiddat bilan rivojlanayotganligidir.

O'zgarishlarga qaramay, moddiy merosimizga bo'lgan hurmat e'tibor ko'paysa ko'paydi, ammo kamaymadi. Aytish joizki, bayramlarimiz nafaqat yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi, o'sib kelayotgan yoshlar ongida milliy g'ururni ham shakllantirmoqda. Bayramlar jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Ular

jamiyatni birlashtirish bilan bir qatorda, xalqning milliy o'ziga xosligini mustahkamlab, ijtimoiy faolligini oshiradi. Bayramlar jamoaviy birlikni ta'minlash bilan bir qatorda, turli yoshdagi insonlar, turli kasb vakillarining bir oraga kelishlariga zamin yaratadi.

**MUNOZARA.** Professor E.V.Sokolov bayramlarning ahamiyati haqida quyidagilarni yozadi: "Bayramning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u muhim an'analarni qo'llab, insoniyat madaniyatining yutuqlarini mustahkamlaydi[2]". Darhaqiqat, bayramlar millatning, jamiyatning moddiy va madaniy sohalaridagi eng yaxshi tomonlarini ko'rsatib beradi. Bayram ko'p tomonli ijtimoiy hodisa bo'lib, har bir insonni, jamiyatning hayotini namoyon qiladigan o'ziga xoslikdir. Uning butun dunyo xalqlari orasida keng yoyilganligidan, bayramlarning inson va jamiyat uchun hech qanday narsaga almashtirib bo'lmaydigan bebaho boylik ekanligiga ishonch hosil qila olamiz. "Bayram jamiyat hayotining organik bo'lagi bo'lib, shu bilan bir qatorda, har bir insonning hayoti va faoliyatini tenglashtirib, omma erkin hayot faoliyatining markaziga aylanib, alohida olingan shaxsning emotsional tarangligini oluvchi razryad funksiyasini bajaradi" [3]. Bayramlar insonlar hayotining ajralmas qismi bo'lib, ular nafaqat madaniy va milliy qadriyatlarining ifodasi, balki jamiyatda birlik va birdamlikni mustahkamlovchi omildir. Yuqoridagi fikrga ko'ra, bayramlar nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyat miqyosida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ular insonlarning hayotini ma'lum bir ritmga solib, jamiyatdagi faoliyatni muvozanatlashtiradi. Shuningdek, bayramlarning psixologik jihatdan ham ahamiyati katta. Ular odamlarning hissiy holatini yengillashtiruvchi omil bo'lib, kundalik hayotdagi zo'riqish va tashvishlarni unutishga yordam beradi.

Shu bois bayramlar nafaqat hordiq chiqarish, balki insonlarning ichki kechinmalarini tartibga soluvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Bu jarayonda bayramning ommaviyligi, unda turli qatlam vakillarining ishtirok etishi, ijtimoiy tenglik tuyg'usini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, bayramlar inson hayoti va jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ular insonlarni birlashtirib, ijtimoiy hayotga yangicha ruh bag'ishlaydi hamda shaxsiy va ommaviy faollikning uyg'unlashuviga xizmat qiladi. Shu bois bayramlar madaniy meros sifatida doimo qadrlanib kelingan va kelajakda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, madaniy-ommaviy tomoshalarni sahnalashtirish san'ati – bu keng jamoatchilik e'tiboriga mo'ljallangan, mazmunan boy va badiiy jihatdan mukammal sahna asarlarini yaratish jarayonidir. Bu jarayon rejissyorlik mahorati, sahna dramaturgiyasi, texnik vositalardan foydalanish, musiqiy va raqs elementlarini uyg'unlashtirish kabi ko'plab ijodiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, tomoshaning mavzusi va g'oyasiga mos, zamon ruhini aks ettiruvchi sahnalashtirish usullarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar orqali xalqning estetik didi, tarixiy xotirasi, milliy an'analarga bo'lgan e'tibori shakllanadi va mustahkamlanadi. Ular keng ommani birlashtiruvchi, ma'naviy tarbiya beruvchi va ijtimoiy faollikni oshiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bunday tadbirlarni sahnalashtirishda badiiylik, funktsionallik va tomoshabin bilan bevosita aloqani ta'minlash ustuvor vazifadir. Mazkur mavzuni chuqur o'rganish madaniyat va san'at sohasidagi mutaxassislar uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi, sahnalashtirish jarayonining yanada samarali va ta'sirchan bo'lishiga zamin yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.X.Raxmonova. "Ssenariynavislik va madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish". "Nasaf". NMIU 2021. 43-bet.
2. Соколов Э.В. Свободное время и культура досуга. - Л.: 1977, с.84-88.
3. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2002. 262 b.

**REZYUME.** Mazkur maqolada madaniy-ommaviy tomoshalarni sahnalashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, bosqichlari va san'atkorlik yondashuvlari yoritilgan. Bayramlar, konsertlar, festivallar kabi keng ommani qamrab oluvchi tadbirlarni sahnalashtirishda rejissyorlik mahorati, sahna kompozitsiyasi, texnik vositalardan foydalanish va estetik did muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda tomoshalarning g'oyaviy mazmuni, sahna ifodasi va tomoshabin bilan interaktiv aloqasi tahlil qilinib, bu jarayonda teatr, musiqa, raqs va zamonaviy texnologiyalarning uyg'unligi ko'rsatilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье освещены особенности, этапы и художественные подходы к процессу постановки культурно-массовых зрелищ. Режиссерское мастерство, сценическая композиция, использование технических средств и эстетический вкус играют важную роль в

постановке мероприятий, охватывающих широкую публику, таких как праздники, концерты и фестивали. В исследовании проанализированы идейное содержание представлений, сценическое выражение и интерактивная связь со зрителем, показано сочетание театра, музыки, танца и современных технологий в этом процессе.

**SUMMARY.** This article explores the characteristics, stages, and artistic approaches to the production of cultural and mass performances. Directing skills, stage composition, the use of technical means, and aesthetic taste play a significant role in staging events that reach a wide audience, such as holidays, concerts, and festivals. The study analyzed the ideological content of performances, stage expression, and interactive connection with the audience, showing the combination of theater, music, dance, and modern technologies in this process.

## REJISSURANING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

**Utepbergenov Ajiniyaz Ayapbergen uli** – *rejissura san'ati kafedrası o'qituvchisi*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** rejissura, ta'lim tizimi, teatr san'ati, kino san'ati, ijodiy jarayon, texnologiyalar, tashkilotchilik ko'nikmalari.

**Ключевые слова:** режиссура, система образования, театральное искусство, киноискусство, творческий процесс, технологии, организаторские навыки.

**Key words:** directing, education system, theatrical art, cinematic art, creative process, technologies, organizational skills.

Rejissura san'ati – bu teatr, kino, televideniye va boshqa sahna san'atlarining markaziy bo'limlaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi ijodiy jarayonlarni boshqarish, sahnada yoki ekranda asarning to'liq va mazmunan chuqur ifodasini ta'minlashdir. Rejissura san'ati teatr, kino, televideniye kabi ko'plab sahna san'atlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu san'at turi ijodiy jarayonlarni boshqarish, har bir sahna, har bir aktyor harakatini aniq va maqsadga muvofiq yo'naltirishga qaratilgan. Rejissura ta'lim tizimida ham muhim o'rin tutadi, chunki u nafaqat ijodiy, balki intellektual va tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bugungi kunda rejissura faqat ijodiy faoliyat bilan cheklanmay, balki ta'lim tizimida ham katta o'rin egallaydi. Rejissura bo'yicha ta'lim nafaqat aktyorlik mahoratini oshirishga, balki talabalarni san'atning murakkab jarayonlariga chuqurroq kirib borishga, ijodiy fikrlashga, muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Rejissyor – bu hayotni obdon kuzata oladigan, o'zining teatr sohasidagi professional bilimlaridan tashqari, hamma sohalardagi bilimlarni mukammal egallay olgan kishidir.” [1.B.114-115]. Rejissura ta'lim muassasalarida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy mashg'ulotlar orqali ham o'qitiladi. Bu esa talabalarni nafaqat texnik bilimlarga, balki ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatlariga ham ega bo'lishlariga yordam beradi. Ta'limda rejissura san'ati o'rgatilishi bilan, yoshlar sahna san'atining mohiyatini tushunibgina qolmay, balki jamoadagi hamkorlik, boshqaruv, vaqtni to'g'ri taqsimlash

va ijodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu ko'nikmalar san'at sohasida, balki hayotning boshqa jabhalarida ham foydali hisoblanadi.

Rejissura ta'lim jarayonida talabalarni o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishga, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga va ijodiy muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Rejissyor sifatida talabalar jamoani boshqarish, vaqtni rejalashtirish, sahnani tashkil etish kabi muhim ko'nikmalarni egallaydilar. Talabalar sahna san'ati asoslari, aktyorlik, dramaturgiya, sahna harakati va boshqa sohalar haqida chuqur bilim olishadi. Rejissura ta'limi talabalarni hamkorlikda ishlashga, turli ijodiy va texnik mutaxassislar bilan birga faoliyat yuritishga o'rgatadi. Bu ta'lim turi rejissyorlik kasbini egallashga, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga, mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Teatrda ham, kinoda ham talab bitta: hayotiylikka erishish, ishonarli ijro qilish, tomoshabin qalbidan joy olish. Teatrda aktyor tomoshabinning jonli nafasini sezib turadi, kayfiyatidan ruhlanadi [2.50]. Bugungi kunda ko'plab oliy o'quv yurtlari va maxsus san'at institutlarida rejissura bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilgan. Talabalar teatr, kino va boshqa sahna turlari uchun rejissura asoslarini o'rganib, ijodiy va texnik jarayonlarni boshqarishga tayyorlanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va yangi metodlar qo'llanilishi bilan rejissura ta'limi yanada samaraliroq va qiziqarli bo'lmoqda, ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalar va yangi pedagogik yondashuvlar

keng joriy etilmoqda. Rejissura ta'limida ham bu jarayonlar o'z aksini topmoqda. Zamonaviy ta'limda rejissura quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi, talabalar virtual sahnalar, kompyuter grafikasi, video montaj va boshqa raqamli vositalar yordamida rejissyorlik san'atini o'rganadilar. Bu ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi va yangi formatlarda ish olib borishga yordam beradi. Nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanadi. Talabalar sahnada real sharoitda ishlash, loyihalar yaratish, guruhda hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zamonaviy ta'limda talabalar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o'z fikrini erkin ifodalash, tanqidiy tahlil qilish va yangi g'oyalar ishlab chiqish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Rejissura ta'limida sahna san'ati, balki psixologiya, madaniyatshunoslik, kommunikatsiya va boshqa fanlardan bilimlar beriladi. Bu talabalar uchun keng ko'lamli kasbiy tayyorgarlikni ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim dasturlarida dunyo teatrlari va kinofilmlari tajribasi o'rganiladi, yangi uslublar va texnologiyalar qo'llaniladi. Bu talabalarni global miqyosda raqobatbardosh qiladi. Zamonaviy ta'limda rejissura san'ati nafaqat an'anaviy usullarga tayanadi, balki innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi pedagogik yondashuvlar yordamida rivojlanmoqda. Bu esa yosh rejissyorlarning yuqori malakali mutaxassislar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Rejissura ta'lim tizimida o'ziga xos o'rin tutadi va yosh avlodning ijodiy salohiyatini ochishda muhim vosita hisoblanadi. U nafaqat san'atni chuqur anglashga yordam beradi, balki talabalarda rahbarlik va tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli, rejissura bo'yicha ta'limni rivojlantirish va kengaytirish jamiyatimiz madaniy hayoti uchun katta ahamiyatga ega. Rejissura bo'yicha ta'lim ko'p jihatdan nazariy bilimlarga tayangan holda olib boriladi. Rejissor - tashkilotchi, badiiy rahbar, jamoa tarbiyachisi muallim hamda yaxshi ijrochi aktyor bo'lishi kerak. Stanislavskiy sisteması V.I.Nemirovich Danchenko ta'limotida rejissor-pyesa talqinchisi, rejissor - ko'zgu va

tashkilotchi ekanligi ta'kidlangan. Rejissor - tomosha yaratishda barcha ijodiy jarayonni tashkilotchisi, yagona oliy maqsadga, g'oyaga yo'naltirishda barcha jamoani yo'l boshchisi sifatida gavdalanadi. [3.27] Talabalar teatr va kino san'ati tarixi, dramaturgiya, sahna harakati, aktyorlik mahorati, estetika, musiqa va boshqa san'at tarmoqlari haqida bilim olishadi. Bu nazariy bilimlar rejissyorlik faoliyatining sifatli bajarilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Nazariy bilimlardan tashqari, rejissura ta'limida amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Talabalar sahnada real ish jarayonlarini o'rganadilar, aktyorlar bilan ishlash, sahna sozlamalarini yaratish, sahnadagi harakatlarni boshqarish va kameralar oldida ishlash texnikasini o'zlashtiradilar. Bu orqali ular ijodiy jarayonlarni to'liq tushunib, mustaqil rejissyor sifatida faoliyat ko'rsatishga tayyorlanadi. Rejissura ta'limi nafaqat san'atkorlarni tayyorlash, balki yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Rejissyorlik faoliyati insonlarda rahbarlik, jamoani boshqarish, vaqtni rejalashtirish va muammolarni hal etish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa ularning nafaqat san'at, balki boshqa sohalarda ham muvaffaqiyat qozonishlariga xizmat qiladi. Bugungi kunda texnologiyalar tez rivojlanib borayotgani sababli, rejissura ta'limida ham raqamli usullar va innovatsiyalar keng joriy etilmoqda. Virtual sahnalar, maxsus effektlar, video montaj va boshqa texnologiyalar yordamida talabalarga yanada kengroq imkoniyatlar yaratilmoqda, bu kelajakdagi rejissyorlarni zamonaviy talabalar darajasida tayyorlash imkonini beradi. Rejissura ta'lim tizimida o'ziga xos va muhim o'rin tutadi, shu o'rinda u san'atni chuqur tushunishga, balki ijodiy va tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda rejissura bo'yicha sifatli ta'lim yosh avlodni nafaqat san'atkor, balki yetuk lider sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, rejissura ta'limini yanada rivojlantirish va kengaytirish dolzarb vazifalardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махмудов Ж. Махмудова Х. “Режиссура асослари” “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти; Т:2008. В.114-115.
2. Muhammedov M. Rejissura asoslari. - Toshkent.: O'zDSMI. 2007.
3. Otepbergenov A. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <http://oac.dsmi-uf.uz> Volume 4 Issue 4 / August 2023.

**REZYUME.** Ushbu maqolada rejissuraning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Maqolada rejissura san'atining nazariy va amaliy jihatlari, ijodiy jarayonlarda talabalarni boshqarishdagi roli hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim sifatining oshirilishi haqida so'z boradi. Shuningdek, rejissura

ta'limining yoshlarning rahbarlik va tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье освещается роль и значение режиссуры в системе образования. Рассматриваются теоретические и практические аспекты режиссёрского искусства, его роль в управлении студентами в творческом процессе, а также повышение качества образования с помощью современных технологий. Также анализируется значение режиссёрского образования в развитии у молодёжи лидерских и организаторских навыков.

**SUMMARY.** This article highlights the role and significance of directing in the education system. It discusses the theoretical and practical aspects of the art of directing, its role in guiding students through creative processes, and the enhancement of education quality through modern technologies. The article also analyzes the importance of directing education in developing leadership and organizational skills among young people.

## QORAQALPOG'ISTONDA BAXSHICHILIK SAN'ATINING KELIB CHIQISHI

Uzakov Satbay – o'qituvchi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

**Tayanch so'zlar:** baxshi, og'zaki ijod, epik an'analar, doston, xalq madaniyati, tarixiy meros, milliy san'at.

**Ключевые слова:** бахши, устное творчество, эпические традиции, дастан, народная культура, историческое наследие, национальное искусство

**Key words:** bakhshi, oral art, epic traditions, dastan, folk culture, historical heritage, national art

Qoraqalpog'istonda baxshichilik san'ati xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u asrlar davomida rivojlangan.

Baxshilar nafaqat musiqa ijrochilari, balki xalq tarixi, qadriyatlar va madaniyatini saqlab qoluvchi san'atkorlar sifatida ham e'tirof etilgan. Baxshichilik san'ati o'zining betakror ijro uslublari va she'riyat bilan uyg'unligi bilan ajralib turadi. O'zbek va Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida alohida o'rin tutadigan san'at turlaridan biri bu - **baqshichilik** san'atidir. Bu san'at qadim zamonlardan boshlab xalq hayoti, orzu-umidlari, tarixiy xotirasi va madaniyatining ifodasi sifatida shakllanib kelgan. Baqshi — nafaqat ijrochi, balki shoir, sozanda, voqelikni ifoda etuvchi san'atkordir. Baqshichilik san'ati Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va turkman xalqlari madaniyatida chuqur ildiz otgan. Bu san'at turi ko'pincha **epik dostonlarni** kuylash, musiqiy asarlar ijro etish va og'zaki hikoyalar orqali tarqalgan. Baqshilar asosan **dutor, qobiz, yoki komuz** kabi milliy cholg'ularda jo'rnavorlik qilgan holda dostonlar kuylaganlar. [1.1]

"Baxshilar xalqning tarixini, uning madaniy merosini xotirada saqlovchi va keyingi avlodlarga yetkazuvchi ma'naviy tarbiyachilar hisoblanadi."

Baqshi qadimda xalq orasida hurmatli shaxs bo'lgan. Ular tarixiy voqealarni, urushlar, sevgi va sadoqat, qahramonlik haqida dostonlar orqali xalq xotirasini saqlab kelgan.

**Baqshi** - marosimlar, to'ylar, xalq yig'inlarining eng qadrli mehmoni bo'lgan. Ayniqsa, **"Qirman", "Shirvon", "Köroglu", "Alpamis"** kabi dostonlar orqali xalqda jasorat, vatanparvarlik va g'urur hissi shakllantirilgan. Baqshichilik san'ati nafaqat badiiy, balki **tarbiyaviy vazifani** ham bajaradi. Har bir doston, har bir qo'shiqda ezgulik va yovuzlik, do'stlik va xiyonat, sabr va fidoyilik kabi tushunchalar go'zal obrazlar orqali yoritiladi. Shu sababli, baqshilar yosh avlodni axloqiy barkamollikka yetaklovchi ustozlar sifatida qadrlangan.

Baxshichilik san'atida musiqa va she'riyat uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Ular o'z ijrolarida milliy cholg'ulardan, xususan, dutor va qo'biz kabi cholg'u asboblardan foydalangan. Qadimgi manbalarda aytilishicha, baxshilar nafaqat ijrochi, balki hikoyachi va shoir sifatida ham faoliyat yuritganlar. [1.2]

Baxshichilik san'ati Qoraqalpog'istonda uzoq asrlar davomida davom etgan. Bu san'at tarixi bir necha bosqichlarga bo'linadi:

1. Qadimgi davr - baxshilar xalq orasida hikoyalar va dostonlar ijro etib kelgan, og'zaki an'analarni saqlab qolgan.

2. O'rta asrlar - baxshichilik madrasalar va xonliklar davrida ham rivojlanib, ijtimoiy va madaniy hayotda katta ahamiyat kasb etgan.

3. Sovet davri - baxshichilik san'ati davlat tomonidan rag'batlantirilgan, teatr va ansambllar tashkil etilgan.

4. Hozirgi davr - baxshichilik an'analari qayta tiklanib, san'at maktablarida o'qitilmoqda.

"Qoraqalpoq baxshichilik an'anasi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, uning har bir bosqichi xalq madaniyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan".

Baxshilar faqatgina ijrochi bo'lib qolmay, balki ijtimoiy hayotda ham zarur shaxslar bo'lgan. Ular to'ylar, bayramlar va turli ijtimoiy tadbirlarda qatnashib kelib, xalqni ruhlantirgan.

Shu bilan birga, olimlar ta'kidlaganidek: "Baxshichilik san'ati xalqning ma'naviy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi va ijtimoiy hayotda katta ta'sirga ega".[1.3] Baxshichilik san'ati quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Og'zaki ijod - baxshilar doston va hikoyalarni yoddan ijro etadilar.

• Musiqa va she'riyat uyg'unligi - ular ijrosini musiqiylik bilan boyitadi.

• Jonli ijro - san'atga asoslanib to'y va bayramlarda ko'rinadigan bo'ladi.

Epik va hikoyaviy mazmun - tarixiy voqealarni bayon qilish asosiy vazifalardan biridir. Hozirgi kunda Qoraqalpog'istonda baxshichilik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish yo'lida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda:

• Baxshichilik maktablari va to'garaklari tashkil etilishi.

• Madaniy tadbirlar va festivallar o'tkazilishi.

• Yoshlar orasida qiziqish uyg'otish.

Davlat va madaniyat muassasalari ushbu san'atni saqlab qolish uchun qator loyihalarni amalga oshirmoqda. Baxshilar ishtirokidagi konsert va tadbirlar orqali yoshlar baxshichilik san'atiga jalb etilmoqda. Qoraqalpog'istonda baxshichilik san'ati xalqning madaniy merosi va tarixiy xotirasi bilan chambarchas bog'liq. Bu an'ana xalq hayotidagi muhim voqealarni xotirada saqlash, milliy g'ururni shakllantirish va bunyodkorlik salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Baxshichilik san'atini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Baxshichilik san'ati nafaqat xalq madaniyatining ajralmas qismi, balki milliy o'zligimizni belgilovchi omillardan biridir. Shu bois bu san'atni qo'llab-quvvatlash va kelajak yoshlariga o'rgatish har birimizning burchimizdir. [1.4] Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari rivojlanishi bilan

birga, baxshichilik san'atini global miqyosda ommalashtirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Xususan:

• Baxshilarning xalq qo'shiqlarining ijrolari internet platformalari orqali keng targ'ib qilinmoqda.

• Milliy san'atni anglash maqsadida xalqaro festivallar va onlayn ijro tadbirlari o'tkazilmoqda.

• Baxshichilik san'atiga oid tadqiqotlar va ilmiy ishlar ko'paymoqda.

Yashash sharoitining o'zgarishi, ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi bilan, nafaqat madaniyat rivojlanadi, balki ma'naviy jihatdan ham yuksaladi. Insonning ma'naviy salohiyati va ongi, estetik dunyoqarashi rivojlanib, tarbiya topib boradi. Adabiyot va musiqa san'ati - hayot va turmushni bilish, odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasi. Lekin uni o'quvchiga tushuntirish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi ularga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog'liq. Shunday qilib, voqelikka estetik munosabat ijodkorlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy mazmunga ega she'rlar, musiqa asarlarida, mehnatda, kundalik hayotda namoyon bo'ladi. Xalqimiz yaratgan milliy ma'naviy merosning teran ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning go'zal kuy-qo'shiq, tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan meroslar o'zbek va qoraqalpoq, qo'shni xalqlar kuy-qo'shiqlari va musiqasi qadim zamonlardan boshlanganini ko'rsatadi. Xalqimiz hayotidagi murakkab tarixiy sharoitlar madaniyat va turmushning feodal qoidalari, inson o'z doirasidan tashqariga chiqish imkoniyatini bermagan. Asrlar davomida to'plangan oddiy va ma'naviy boyliklarni bosqinchilar egallab olgan yoki yo'q qilib tashlagan. [1.5]

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim maskanlarida baxshichilik an'analari asosida maxsus kurslar va o'quv dasturlari tashkil etilmoqda. Bu esa yoshlarimizning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirib, uning davomiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Baxshichilik san'ati — xalqning o'z tarixi va madaniyatini og'zaki yo'l bilan avloddan avlodga yetkazish vositasi bo'lib, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uni o'rganish, asrash va rivojlantirish — bugungi kun yoshlari uchun ma'naviy boylik va milliy o'zlikni anglashda muhim vositadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov U. "Milliy madaniyat va baxshichilik an'anasi" - Toshkent, 1985.
2. Mirzayev H. "Qoraqalpoq dostonchilik an'analari" - Nukus, 2003.
3. Jo'raev A. "Qoraqalpoq xalq ijodiyoti" - Nukus, 2021.
4. Ismoilov Sh. "Baxshichilik san'atining ahamiyati" - Toshkent, 1997.

5. To‘qtamuratov B. "Xalq musiqa an‘analari va uning rivojlanishi" - Nukus, 2015.

**REZYUME.** Qoraqalpog‘istonda baxshichilik san‘ati xalq og‘zaki ijodining noyob va qadimiy shakllaridan biridir. Uning ildizlari qadimgi turkiy xalqlarning epik an‘analariga borib taqaladi. Baxshilar o‘z ijodlari orqali tarixiy voqealarni, xalqning orzu-umidlarini va ijtimoiy hayotini ifoda etganlar. Qoraqalpog‘ baxshichiligi, ayniqsa, dostonchilik va musiqiy ijro orqali shakllanib, xalqning ma‘naviy tarbiyasida muhim rol o‘ynagan. Baxshichilik san‘ati bugungi kunda ham milliy madaniyatning muhim bo‘lagi sifatida saqlanib kelmoqda.

**РЕЗЮМЕ.** Искусство бахшичилик в Каракалпакстане является уникальной и древней формой народного устного творчества. Его истоки восходят к эпическим традициям древнетюркских народов. Бахши через своё творчество передавали исторические события, мечты и стремления народа, а также отражали общественную жизнь. Каракалпакское бахшичилик развивалось в основном через исполнение дастанов и музыкальных произведений, играя важную роль в духовном воспитании. Сегодня это искусство продолжает быть важной частью национальной культуры.

**SUMMARY.** The art of baxshy in Karakalpakstan is one of the unique and ancient forms of oral folk tradition. Its origins trace back to the epic traditions of early Turkic peoples. Baxshys conveyed historical events, public life, and the hopes and dreams of the people through their performances. Karakalpak baxshichilik developed primarily through the narration of epic poems (dastans) and musical storytelling, playing a significant role in the moral and spiritual upbringing of society. Today, this art remains an important element of Karakalpak national culture.

## **KINO HÁM DRAMATURGIYA**

### **AUDIOVIZUAL ÓNIMLERDE FOLEY EFFEKTLERINIŇ JARATÍLÍWÍ HÁM ÁHMIYETI**

**Qdirbaev Islambek Quthbaevich – assistent oqıtwshı**  
*ÓzMKÓMI Nókis filiali*

**Tayanch so‘zlar:** foley effektlari, ses effektlari, kino dawısı, audiovizual ónim, ses ortalığı, ses injenerligi, kinematografiya, sinxron sesler, ses dizayni, akustika, kino kórkem óneri, post-production.

**Ключевые слова:** фoleyные эффекты, звуковые эффекты, кинозвук, аудиовизуальный продукт, звуковая среда, звуковая инженерия, кинематография, синхронные звуки, звуковой дизайн, акустика, киноискусство, пост-продакшн.

**Key words:** foley effects, sound effects, film sound, audiovisual product, sound environment, sound engineering, cinematography, synchronous sounds, sound design, acoustics, cinema art, post-production.

Foley effektlari búgingi kúnde kino hám televidenie ónimleriniń ajralmas bólegine aylangan. Tamashagóy filmdi tamasha etip atirganda oniń pútkil diqqat-itibarı waqıyalardıń rawajlanıwına hám syujetke boladı. Biraq ol ekranda kórip atırǵan háreketler hám qorshaǵan ortalıqqa sáykes keletuǵın sesler kóbinese óz aldına tayarlanıp hám diqqat penen jazıp alınıp atırǵanın sezbeydi. Mine usı názik hám kózge kórinbeytuǵın process artında Foley kórkem óneri turadı. Foley effektlari - bul film, teleserial, animaciya yamasa qanday da bir videomaterial ushin insan tárepinen arnawlı jaratılatuǵın hám jazıp alınatuǵın sesler. Olar ekrandaǵı háreket, ortalıq hám detallardı dawıs arqalı jáne de real hám janlı kórsetiwge xızmet etedi. Ápiwayı tamashagóy bunı kóbinese sezbeydi, biraq áyne usı effektlar arqalı filmniń isenimliliǵı hám tábiyǵıylıǵı támiyinlenedi.

Tariyxqa názer taslasaq, bul taraw XX ásir baslarında qalıpleskenin kóremiz. Dawıslı filmler payda bolıwı menen ses ortalıǵın jetilistiriw zárurlıǵı payda boldı. 1927-jılı súwretke alınǵan "The Jazz Singer" atlı film pútkil kino tariyxında burılıs jasadı. Ses hám muzika birinshi márte film quramına kirip, kino kórkem óneri pútkilley jana basqıshqa kóterildi. Sonıń menen birge, filmde kórilip atırǵan háreketlerge sáykes seslerdi sinxronizaciyalaw mashqalası júzege keldi.

Mine usınday dáwirde amerikalı injener hám ses xudojnigi Jek Foley saxnaǵa shıqtı. Ol óz dáwiriniń texnologiyalıq imkaniyatlarınan paydalanıp, arnawlı seslerdi jaratıw, olardı saxna menen bir waqıtta atqarıw hám filmge beyimlestiriw usılın islep shıqtı. Jek Foley óziniń dóretiwshilik kózqarası hám ayrıqsha sheberligi menen film ses effektlari boyınsha revolyuciya jasadı. Sol sebepli, búgingi kúnde arnawlı

jaratılauǵın sesler onıń atı menen - Foley efektleri dep júritiledi.

Foley efektleri derlik hárbir professional filmde qollanıladı. Eger filmde súwretke alıw procesinde hár bir ayaq basıw sestı, kiyimniń sıtırlısı, esiktiń ashılıwı yamasa basqa háreketlerdiń sestidi anıq hám tegis jazıp alıwǵa urınsa, bul kóp waqıt hám qarjı talap etedi. Bunnan tısqarı, hár qashan da orın hám sharayat oǵan imkan bermeydi. Sol sebepli, bunday sesler keyin ala arnawlı tayarlangan studiyada jazıp alınadı. Bul jumis penen Foley xudojnikleri shuǵıllanadı.

Foley efektlerin jaratıw ańsat is emes. Bul processe xudojnikler tek ǵana texnikalıq bilimge emes, al úlken dóretiwshilik hám kóz aldına keltiriw kúshine ie bolıwı kerek. Olar kóbinese ápiwayı turmista qollanılatuǵın buyımlar járdeminde júdá dástúriy emes sesler payda etedi. Mısalı, sınıp atırǵan súek sestı ushın selderey ósimliginiń sınıǵı paydalanıladı yamasa kóshede qar üstindegi ayaq sestı payda etiw ushın un hám gezleme aralastırılıp paydalanıladı. Metall buyımlar, qagazlar, suw idisleri, agash taxtalar, sheben, gezleme sıyaqlı zatlar járdeminde hár túrli ses efektleri tayarlanadı.

Búgingi kúnde Foley kórkem óneri zamanagóy texnologiyalar menen birgelikte jáne de jetilisti. Biraq insan faktori, xudojniklerdiń talǵamı hám dóretiwshiligi elege shekem tiykarǵı orında turadı. Film ushın jetik ses ortalıǵın jaratıwda ses jazıw studiyaları ayrıqsha áhmietke ie. Bunday studiyalar ádette hár túrli qaplamalar hám qáddiler menen úskenelenedi. Sonda xudojnik tap real ortalıqtaǵıday sesler payda ete aladı.

Sonday-aq, animaciyalıq filmlerde de Foley efektleri úlken orın iyeleydi. Animaciyalıq personajlar sızılǵan bolsa da, olar háreket etip atırǵanda esik ashılıwı, ayaq basıw sestı, kiyim sıtırlısı sıyaqlı sesler óz aldına jaratıladı. Bul bolsa

tamashagóyge animaciyalıq dúnyanı jáne de real túrde seziw imkaniyatın beredi.

Kópshilik ushın qızıq kórinwi múmkin, biraq geyde júdá ápiwayı buyımlardan kútilmegen efektler jaratıladı. Qarańǵıdaǵı kúshli jawın sestı payda etiw ushın úlken ıdıstaǵı suw hám shiyshe buyımlar qollanıladı. Yamasa órt hám jarılıw seslerin jaratıwda bolsa hár qıylı plastmassa buyımlar hám metall bólekler aralastırılıdı. Bul process kóbinese tájiriye tiykarında ámelge asırılıdı.

Foley efektleri bir qaraǵanda ápiwayı kórinwi múmkin, biraq olardı jaratıw úlken sheberlik, tájiriye hám dıqqattı talap etedi. Áyne usı efektler sebepli film tamashagóyge jáne de janlı hám isenimli kórinedi. Sol sebepli, kóplegen belgili rejissyorlar hám ses rejissyorları Foley xudojnikleriniń xızmetinen paydalanıwdı abzal kóredi. Bunday kórkem óner sheberleriniń artında jıllar dawamında arttırılǵan úlken tájiriye, tırlaw qábileti hám joqarı dárejedege itibar jatadı.

Búgingi kúnde dúnyanıń kóplegen kino studiyalarında Foley efektlerin jaratıw ushın arnawlı bólimler hám professional xudojnikler jumis alıp barmaqta. Kóplegen belgili film hám seriallarda áyne usınday ses efektleri esabınan film jáne de janlı hám jetik kórinedi. Zamanagóy texnologiyalar, joqarı anıqlıqtaǵı mikrofonlar hám dawıs jazıw úskeneleri bul processti ápiwayılastırsa da, insan dóretiwshiligi hám pikirlewi elege shekem tiykarǵı orında turadı.

Juwmaqlap aytqanda, Foley efektleri kino sanaatınıń kórinbeytuǵın, biraq júdá áhmietli bólimlerinen biri. Olardı jaratıw tek ǵana texnikalıq sheberlikti emes, al shın kewilden beriliwdi hám dóretiwshilikti talap etedi. Jek Foley baslap bergen bul dástúr búgingi kúnde de dawam etpekte hám hár jılı mınlap film hám videomahsulotlarda Foley xudojnikleriniń miynetin kóriw múmkin. Tamashagóyler bul effektlerdi tikkeley sezbe de, olar film ortalıǵın tolıq seziwde sheksiz rol oynaydı.

### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Altman R. (1992). *Sound Theory, Sound Practice*. Routledge.
2. Sonnenschein, D. (2001). *Sound Design: The Expressive Power of Music, Voice and Sound Effects in Cinema*. Michael Wiese Productions.
3. Chion M. (1994). *Audio-Vision: Sound on Screen*. Columbia University Press.
4. Holman T. (2010). *Sound for Film and Television*. Focal Press.
5. Huber D. M., & Runstein, R. E. (2017). *Modern Recording Techniques*. Routledge.
6. Weis E., & Belton, J. (Eds.). (1985). *Film Sound: Theory and Practice*. Columbia University Press.
7. www.soundeffects.filmsound.org — Foley efektleri hám kino ses texnologiyaları haqqında onlayn resurs.

**REZYUME.** Bul maqalada Foley efektleriniń mazmunı, olardıń kino hám televidenie tarawındaǵı ornı, payda bolıw tariyxı hámde zamanagóy qollanıw usılları sáwlelendirilgen. Onda amerikalı ses xudojnigi Jek Foleydiń bul tarawdaǵı xızmeti, efektler qanday sharayatta hám qanday qurallar járdeminde

jaratılıwı haqqında maǵlıwmat berilgen. Maqalada, sonday-aq, Foley effektleriniń kino hám audiovizual ónimlerde real ortalıq hám isenimlilikke arttırıwdaǵı áhmieti atap ótilgen. Bul maqala kino, ses injenerligi hám audiovizual kórkem ónerge qızıqqan oqıwshılar ushın paydalı boladı.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается содержание эффектов Фолея, их роль в кино и телевидении, история их возникновения и современные методы использования. В ней рассказывается о заслугах американского звукорежиссёра Джека Фолея в этой области, о том, в каких условиях и с помощью каких средств создаются эффекты. В статье также подчеркивается важность эффектов Фолея в повышении реалистичности и достоверности фильмов и аудиовизуальных продуктов. Эта статья будет полезна для читателей, интересующихся кино, звуковой инженерией и аудиовизуальным искусством.

**SUMMARY.** This article covers the content of Foley effects, their role in cinema and television, the history of their emergence, and modern methods of application. It provides information about the contributions of American sound artist Jack Foley in this field, under what conditions and with what means effects are created. The article also emphasizes the importance of Foley effects in enhancing the realistic environment and reliability of films and audiovisual products. This article will be useful for readers interested in film, sound engineering, and audiovisual art.

## КИНО КӨРКЕМ ӨНЕРИНДЕГИ ЖАНА ТЕНДЕНЦИЯЛАР

*Тажадинова Гулжахан – оқытыўшы  
филология илимлери бойынша философия докторы (PhD)  
Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер хәм мәденият  
институты Нөкис филиалы*

**Таянч сўзлар:** тенденция, публицистик фильм, анимацион фильм, синтез, анимация, бадий образ, тасвир.

**Ключевые слова:** тенденция, публицистический фильм, анимационный фильм, синтез, анимация, художественный образ, фотография.

**Key words:** trend, publicistic film, animated film, synthesis, animation, artistic image, photography.

Кино көркем өнериндеги жана тенденциялар ҳаққында пикир жүргизбестен алдын кино хәм фильм түсинигиниң бир-биринен өзгешелигине тоқтап өтпекшимиз.

Кино – бул ҳәрекетлениўши сўўретлеўлердиң пүткил спектрин, атап айтқанда көркем фильмлер, хўжетли фильмлер, қысқа метражлы фильмлер хәм анимацияны қамтып алыўшы кеңирек атама. Кино кинотеатрларда көрсетилиўи ушын мөлшерленген.

Фильм – бул киноның өзине сай түри болып, әдетте телевизорда көрсетиўи ушын мөлшерленген толық метражлы көркем фильм. Техникалық тәрептен кино хәм фильм ортасында айырмашылық (парық) бар: кино көбинесе плёнкада, ал фильмлер болса санлы камераларда сўўретке алынады. Кино проекторлары жақтылықты плёнка арқалы проекциялап, экранда ҳәрекетлениўши көринисти жаратады, санлы проекторлар болса экранда пикселлерди проекциялайды. Кино өнери түрли тараў дәретиўшилериниң искерлигин бириктириўи курал, синтез өнер түри. Кино өнери театр, ойын, музыка, әдебият, сўўретлеў өнери, мүсиншилик,

архитектура сыяқлы алты әйемги әжайып өнер түрлериниң өз-ара қосылып кетиўиниң нәтийжели мийўеси «синтетикалық» түри. Киноның өнер түри сыпатында қәлиплесиўинде басқа дәстүрий өнерлер де жүдә үлкен үлес болып қосылған. Кино барлық өнерлер тәжирийбесин өзлестирген ҳалда қәлиплести. Бул өнерлердиң ҳәр биринен өз сўўретлеў куралларын раўажландырыўға жәрдем беретугын қәсийетлерин сиңдирип алыўға умтылды. Арадан бираз уақыт өткеннен кейин, кино турақлы түрде өз тәжирийбелерине ийе болды, бул болса, теориялық улыўмаластырыўлар имканиятын берди хәм кино ҳаққындағы көплеген илимий мийнетлерде «кинодағы ҳәр бир элементтиң тамырлары басқа өнерлерде бар», «киноның өз-өзинен жүзеге келиў теориясы әлле қашан өз өмирин өтеп болған», «киноның қәсийетлерин өнердиң бир-бирине жақын болған басқа түрлерден излеў керек» деген пикирлер ушырасады.

Кино - бул өнер түрлериниң тәжирийбесинен әпиўайы ғана нұсқа көширип қалмастан, олардың бай тәжирийбелери мәнисин өзине сиңдирди, унамлы

өзгешеликлерин өзіне тән қәсийетлери қатарына имканы барынша қосып барыўға ҳәрекет етти.

Фильм – бул түрли өнерлерден өзлестирип алынған сүүретлеў қуралларының комплекси емес, бәлки олардың синтези. (Синтез –бул әпиўайы бирикпелерден қурамалы бирикпелер алыў-Т.Г.). Бунда киноның өзіне сай өзгешеликлерине қатаң әмел еткен ҳалда, ол ямаса бул өнер түрлериниң сүүретлеў қураллары бир-бирлери менен өз-ара тәсирге кириседи.

Тек ғана кино бирден-бир синтетик өнер түри емес, бундай өнер түрине және театрдың драмалық ҳәм музыкалы спектаклдерин де қосыў керек, деген пикир жүзеге шығыўы мүмкин. Әлбетте, булар да синтетик өнер түрлериниң бир көриниси. Лекин олардың ҳәр бириндеги сүүретлеў қураллары қайсы бир жөнелистеги өнерге бойсынады: театрда – актёрлық өнерине, операда –музыкаға. Киноның барлық сүүретлеў қуралларын бирлестирип туратуғын тийкар тек актёрлық өнери емес, өйткени көркем кинодан тысқары оның басқа түрлери де бар, онда актёр болмайды. Бир-бирине жақын өнерлер тек ғана көркем фильмлерге емес, соның менен бирге ҳужжетли, илимий –көпшилик, анимациялы фильмлерге де өз тәсирин өткизген. ҳужжетли киноға буннан тысқары баспасөз, журналистика да өз тәсирин өткизген.

Ҳужжетли фильмде жәмийетлик-сиясий, әдеплик, тәрбиялық мәселелер баслы орында турады. Көркем фильмлер тәрбиялық мақсетлерин сиясий ҳәм үгит-нәсият (пропаганда) жолы менен емес, көркем образ ҳәм эстетика арқалы әмелге асырады. ҳужжетли фильмде баслы мәселе сиясий мақсетлер нәзерде тутылса, көркем фильмлерде тийкарғы мәселе эстетикалық тәрбиялаў болып табылады.

Көркем фильмлерде- көркем образ ҳәм эстетика үлкен әҳмийетке ийе.

ҳужжетли фильмлерде жәмийетлик-сиясий, әдеплик, тәрбиялық мәселелер баслы орында турады.

Көркем публицистикалық фильм дегенимиз не? Публицистика пүткил өмирди, өтмиштеги ҳәм ҳәзирги, шахсый, жәмийетлик, реал ҳужжетлерде сәўлелендирилген турмысты изертлейди. Демек, реал ҳужжетлерге тийкарланып көркем публицистикалық фильм жаратылыўы нәзерде тутылса, бул фильмде жеке инсан өмирине тоқымалар қосыў мүмкин емес.

Өзбек ағартыўшыларының ири ўәкиллеринен саналған — Махмудхожа

Беҳбудийдиң 150 жыллығы мүнәсибети менен «Махмудхо‘жа Behbudi» көркем-публицистикалық фильми сүүретке алынды. Фильмде Беҳбудийдиң «Тек ғана илим ҳәм билим арқалы инсан өз журтына ҳәм халқына хызмет ете алады» деген сөзлери бүгинги күн ҳақыйқатлығы екенлигин кино тили менен жеткерип бере алған. Фильмде Махмудхожа Беҳбудий мийрасы реал ҳужжетлерде сәўлелендирилген фактлер тийкарында сүүретленеди. Бул көркем-публицистикалық фильмге қойылатуғын талап.

Өзбекстан Республикасы Президентиниң "Уллы түркмен шайыры ҳәм ойшылы Махтумқулы Фирағий туўылғанының 300 жыллығын белгилеў ҳаққында"ғы 2024-жыл 19- февралдағы 76-санлы Қарарын орынлаў мақсетинде Кинематография агентлиги буйыртпасы тийкарында Өзбекстан Миллий Кинематографияны раўажландырыў орайы тәрпинен Махтумқулы Фирағий (фильм режиссёры Музаффархон Эркинов) ҳаққында көркем фильм сүүретке алынды.

Бул көркем фильм Түркменстанлы кино дәретиўшилер менен биргеликте сүүретке алынып, фильмиң тийкарғы идеясы Махтумқулы Фирағийдиң қол жазбалары ҳәм мийраслары ҳаққында сөз етиўден ибарат. Сондай-ақ фильмде оның Бухарада өткизген турмыс жоллары да сүүретленеди. Фильм тәсиршеңлиги сонда тамашағөй Махтумқулыны өз халқының сүйикли перзентиндей көрип, оған жоқары сүйиспеншилиги артады. Ол тек түркмен шайырының мақтанышы емес, ал пүткил халқымыздың мақтанышы деген пикирди пайда етеди.

Қарақалпақ көркем публицистикалық фильмлери қатарында «Әжинияз» (2024-ж) фильми сүүретке алынды. Демек көркем публицистикалық фильм талабына бойсынатуғын болсақ, Әжинияз шайыр дәретиўшилигин публицистикалық руўхда сүүретлеп бериў мақсет етиледди. Яғный, публицистиканың әҳмийетли темасы адам ҳәм оның искерлиги есапланады. Бунда шайыр образы тарийхый мағлыўматлар тийкарында жаратылыўы ҳәм сөз етилиўи керек. Фильмде Әжинияз шайырдың уллылығы неде деген сораўға тамашағөй жуўап табыўы керек. Фильмди уллы түркмен шайыры ҳәм ойшылы Махтумқулы Фирағий ҳаққындағы көркем публицистикалық фильм менен салыстырып қарағанымызда Әжинияз шайыр образы екинши планға түсип кетеди. Ал Махтумқулы Фирағий фильминде шайыр өз сөзи менен дүньяны жаўлап алған уллы ойшыл инсан

екенлигин сүүретлеп береді. Фильм тәсиршеңлиги де усында. «Әжинияз» көркем публицистикалық фильмде шайыр образы тарийхый мағлыұматлар менен публицистикалық сүүретлеулер арқалы ашып берілгенде Әжинияз халқымыздың миллий мақтаншы екенін фильм дәлиллеп береді. Ақыры көркем публицистикалық фильм –бул тарийхый хужжет ұазыйпасын да атқарады.

Қарақалпақ кинематографиясының жаңа тенденцияларға қарай бағдар алыуы ушын усыныс хәм пикирлеримизди билдирип өтпекшимиз.

Қарақалпақ киносының тарийхын үйрениуимиз керек. Оның тарийхын жаратыу зәрүрлиги бар.

Миллий киномыздың жаңа үлгилери туурали илимий көзқарастан сын пикирлер билдирилиу дәуир талабы. Бунда қарақалпақ кино сыншыларын жетилистириу керек.

«Көргени күлгени» типіндеги фильмлер мәмлекетлик буйрытпа тийкарында шығарылыуына жол қойылса, Қарақалпақ кинематографиясында жаңа тенденциялар күтилгениндей нәтийже бере алмауы мүмкин.

Кино тарауы дәретиушилеринин искерлигине айтылған сын пикирлер келешекте сапалы фильмлер жаратылыуы ушын хызмет етеди. Кино көркем өнериндеги жана тенденциялар қәнигелердиң илимий пикирлеринен саға алады деп ойлаймыз.

### Пайдаланылған әдебиятлар

1. Тешабаев Ж., Абул-касымова Х., Мирзамухаммедова М. Кино Узбекистана Т. 1985.
2. Кино: энциклопедический словарь. Гл. ред. С.И.Юткевич. – М.: Сов.энциклопедия, 1986. – С. 129.
3. Хайдеггер М. Время картины мира (1938, 1950) // Хайдеггер М. Исток художественного творения. Избранные работы разных лет. М.: Академический проект, 2008. – С. 274.
4. Х.Мухамедалиев. “Сценарийнавислик маҳорати”.–Тошкент. “Мусика”. 2009г.
5. Иззат Султон. Адабиёт назарияси.-Т.,Ўқитувчи. 2005 й.
6. Ш.Нусратова. “Бадий асар тахлили”, ўқув қулланма. –Т.: “Fan ziyosi” нашриёти. 2023. 180 в
7. “Қарақалпақфильм” архив материаллари.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада миллий кино санъатидаги янги тенденциялар ўзбек ва қарақалпақ фильмлари мисолида ўрганилиб, таҳлил қилинади. Миллий кино санъатимиз ривожин янги босқичга кўтариш йўналишида илмий қарашларга асосланиб фикр ва таклифлар берилади.

**РЕЗЮМЕ.** В статье исследуются и анализируются новые тенденции в национальном кинематографе на примере узбекских и каракалпакских фильмов. Приводятся мнения и предложения, основанные на научных взглядах, о том, как поднять развитие нашего национального кинематографа на новый уровень.

**SUMMARY.** The article examines and analyzes new trends in national cinematography using Uzbek and Karakalpak films as an example. Opinions and proposals based on scientific views are given on how to raise the development of our national cinematography to a new level.

## QARAQALPAQ EKRAŇ KÓRKEM ÓNERINDE BIRGE ISLESIWDIŇ ÓZINE TÁN USÍLLARÍ (Ústirtke jol kórkem filmi misalında)

**Tilepov Quatbay Nukusbayevich** – *assistent oqıtıwshısı*  
*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filhali*

**Tayanch so‘zlar:** film syujeti, musiqali bezak, kolorit, efizod, syujet liniya, ovoz, shovqin.

**Ключевые слова:** сюжет фильма, музыкальное оформление, колорит, эпизод, сюжетная линия, звук, шум.

**Key words:** film plot, musical decoration, color, episode, plot line, sound, noise.

Hár bir milletniń ózine tán uzaq jıllıq táriyxı bar. Mine usı táriyx shárt-sharayatlar sol xalıqtıń turmıs tarizi áyne usı milletke tán ózgesheliklerdi payda etedi. Ázelden hár bir millet ózine baylanıslı qandayda bir sıpatlar menen

belgilenedi. Qaraqalpaqlar basqa milletlerden parıqlı ráwishte óziniń úrp-ádetlerine sadıqlıq, awızbirshilik, miymandoslıq jáneде millet baylıqların asırap abaylawğa umtılıw kózge taslanadı.

Statistik maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda búgingi kúnde Ózbekstan Respublikası aymaǵında 130 dan aslam millet wákilleri jasap kelmekte. Olar Ózbekstannıń haqıyqıy puxaraları sıpatında pútkil Ózbekstan xalqı menen bir tán bir jan bolıp respublikanıń gúllep jasnawı ushın shın kewilden miynet etpekte. Qaraqalpaqstan Respublikasında usı millet hám elatlar wákilleri menen tınısh tatıw ómir keshirip, birlesip watan keleshegi ushın hár bir taraw pıdayıları ayanbay háreket etip atır. Usınday óz miyneti nátiyjesinde ósip kiyatırǵan jas awlad tárbiyasında tiykarǵı orın iyeleytuǵın tarawlardın biri kino dóretiwshiler bolıp esaplanadı.

“Qaraqalpaqfilm” mámleketlik unitar karxanası búgingi rawajlanıw dáwirine shekem birqansha 15 ten aslam kórkem filmler, 500 den aslam hújjetli filmler sonday-aq, balalar turmısınan alınǵan “Túlkishek” yumor satıralıq kinojurnalınıń 13-sanın súwretke aldı. Barlıq tarawlar sıyaqlı kinematografiya tarawına qaratılǵan itibar nátiyjesinde kinostudiyanıń materiallıq texnikalıq bazası bekkemlendi. Gárezsizlikke eriskennen keyin filmler sanı arta basladı. Studiada dóretiwshilik penen shuǵıllanıwshı qánigeler ózlerine tájiriybeler arttırdı. Gárezsizlikten keyingi 30 jıl ishinde 10 nan aslam kórkem filmler dóretilip házirde dóretiwshilik jumıslar dawam etpekte.

Kórkem dóretiwshilik, atap aytqanda, kino óniminiń zárúrli tárepi bolıp turmıstan alınǵan qarama-qarsılıqlardı obrazlı tárizde málim ideyaǵa súyene otırıp, tamashagóyǵa usınıw bolıp tabıladı.

Kórkem film - bul kinematografiyanıń eń úlken, eń kóp tarqalǵan túri. Ádetde, kórkem film kórkem syujetge tiykarlanadı, scenariy arqalı ańlatıladı hám rejissyor tárepinen kórkem ashıp beriledi. Kórkem film bul eń tásirli túr, ol kirisiw, túyin, waqıyalar rawajlanıwı, kulminatsiya, sheshim hám nátiyjeden ibarat dástúriy kompozitsiyaga ámel etedi. Sonıń menen birge, konflikt hám kolliziyalar, xarakterler qarama-qarsılıǵı hám dramaturgik situatsiyalar, saspens hám intrigalar, peripetiyaalar hám ishki sezimler, tolqınlanıwlar tolıq syujetler barlıq kórkem filmlerdiń eń tiykarǵı elementleri bolıp tabıladı.

Kimdur hámme elementlerden sheberlik penen paydalana aladı. Qaysıdur dóretiwshi ushın málim elementler tiykarǵı orındı iyeleydi. Mısalı konfliktti film degi zárúrli element retinde bahalawǵa urınıp kóreyik. Qálegen filmnen konfliktti shıǵarıp jiberiń. Ol jaǵdayda ne qaladı? Arzıw qılınǵan “utopiyaalar”ma? turmıstıń jaratılıwında qarama-qarsılıq ámelde eken, konflikt túsiniǵi mudamı jasay beredi jáne bul ózgermeytuǵın nızamlıq kinonıń tamashagóy kewiline kirip baratıǵın “altın gilti” esaplanadı.

Sonday eken, kino shıǵarmasınıń kórkem pútinligi haqqında sóz etkende, álbette, konflikt máselesin esten shıǵarmawımız zárúr. Usı termin astında “shıǵarmada suwretlengen xarakterler, ańlatpa etilgen ideyalar, keypiyatlar gúresi” [1] kórinetuǵın boladı. Bálkim sol sebepli de kópshilik tamashagóyler áyne sol qarama-qarsılıqlar “otında pısken” qaharmanlardı jaqsı kórip qaladı. “Syujetinde konflikt bolmaǵan shıǵarma tásirli emes, sebebi ol jaǵdayda turmıslıq haqıyqat tolıq hám izbe-iz ańlatılmaydı. Tek xarakterlerdiń qarama-qarsılıǵı nátiyjesinde ǵana olardıń ishki dúnyası eń tolıq túrde ashıladı”.

Kórkem filmler ózine tán nızamlar tiykarında jazılǵan ádebiy scenariyeler tiykarında, aktyorlar qatnasıwında súwretke alınadı.

Usınday kórkem filmlerdiń biri “Qaraqalpaqfilm” mámleketlik unitar karxanası tárepinen 2018-jıl súwretke alınǵan “Ústirtke jol” dóretiwshilik birge islesiw tiykarında súwretke alınǵan kórkem filmi bolıp esaplanadı. Filmniń senariy avtorı: Gúlistan Matyakupova, A.Yuldashev, Shermuhammad. Postanovkashı rejissyor: A.Ǵaniyev. Postanovkashı operator A.Arızqulov. Ses rejissyorı M.Arziev. Ses operatorı: K.Tojiddinov.

Usı film súwretke alınǵanına 7 jıldan aslam waqıt bolǵan bolsada tamashagóyler júreginen tereń orın iyelegen. Bul filmde qurılısta miynet etip atırǵan ózbek, qaraqalpaq qánigeleri, búgingi zamanımız qaharmanları bolǵan jas injenertexnikler ómirinen sóz etedi. Filmde Surgil káni bazasında qurılǵan ekanomikalıq kórsetkishi boyınsha Oraylıq Áziyada bir ǵana kárxana esaplanatuǵın Ústirt gaz ximiya kompleksi qurılıshılarınıń mashaqatlı hám nátiyjeli miyneti haqqında sóz etiledi. Filmde bas rollerdi aktyorlar Minajiddin Uzaqbaev, Akbarxoja Rasulov, Adiz Rajapov, Nargiza Salmanova, Shaxzada Matjanova, Kópjursin Allanazarov, Abduraim Abdubahobov, Bazarbay Nazarimbetov, hámde Vazira Yunosova sıyaqlı aktyor hám aktrisalar atqarǵan. Filmde jaqında ǵana joqarı oqıw ornın pitkerge jas talantlı qánige Nodir bir topar teńlesleri menen usı táriyxıy qurılısta qatnasıw ushın Ústirtke jol aladı. Olar usınday awır tábiyatqa shıdap bul maskanda islew ushın bir qansha awır sinaqlardı basınan keshiredi. Lekin hár qanday sharayattada olar artqa sheginbeydi. Kartinada jańasha pikirleytuǵın, izleniwsheń talapshań jaslar ómirine keń orın berilgen. Sonıń menen birge, haqlı ráwishte “Ásir qurılıshısı” dep at alǵan usı kompleks mámleketimiz ekonomikasın rawajlandırıwda tutqan ornına ayrıqsha itibar qaratılǵan. Kartinanı súwretke alıw jumısları Qaraqalpaqstan Respublikası Xorezm walayaty, Tashkent qalası hám Qubla Koreyanıń

Seul qalasında ámelge asırıldı. Film ulıwmalıq esapta 2 jil súwretke alınǵan. Film real waqıyalarǵa hám real shaxslarǵa qaratıladı, - deydi rejıssyor Abduvohid Ğaniyev. [2]

Maǵlıwmat ushın : Abduvohid Ğaniyev Tashkent mámleketlik kórkem-óner hám mádeniyat institutın pitkeren. Aldın operator bolıp islegen. Házirde yaǵmıy 11 jıldan berli kinorejıssyor sıpatında dóretiwshilik alıp barıp atır. Atap aytqanda “Sevginator”, “Qaynona operatsiyası”, “Dada”, “Taǵdırlar” , “Birinshi avgust”, “Elparvar” hám basqalar. “Dada” filmi MTVA sıylıǵı penen sıylıqlanǵan.

Filmniń tásirsheńligin jáne de asırıw, onıń mazmunına jáne de boyaw beriwshi nama hám muzikalıq avtorı kompozitor Daniyar Agzamov. Úlken ekran arqalı jasardı joqarı gumanistik ideyalar ruwxında tárbiyalawda muzıka kórkem óneriniń ornı hám áhmiyetin hesh nárese menen ólshep bahalap bolmaydı. Kinoda muzıkanıń insanǵa tásiiri hám onıń emotsional áhmiyeti haqqında kinorejıssyor Aleksandr Mıttı sonday degen edi. “Eń úlken kórkem faktor bul muzıka kórkem óneri. Eger syujet tuwrı qoyılǵan bolsa, muzıkalıq ritm hám garmoniya kewilge hámmeden tereń jol tabadı hám kúsh baǵıshlaydı, onı kórkem qıladı, bolmasa, bunıń terisi bolıp shıǵadı.” Qosımsha qılıp, film haqqında bas rol atqarıwshısı Akbarxója Rasulov usınday deydi. “Filmde óz isiniń pıdayısı obrazın sáwlelendirgenmen. Bul insan haqıyqattan Uz-Kor Gaz Chemical Ózbekstan – Qubla Koreya qospa kárxanasında iskerlik alıp barǵan, ómirde bar insan. Filmde súwretke alıw barısında sebep penen ómirim dawamında jolım túspeytuǵın, kórmeytuǵın gozzal maskanlardı kórdim. Tek ǵana kitaplarda oqıǵan “Barsa-kelme” degen jaydaǵı “Duz káni”ne bardıq. Sóz benen táriyplep

bolmaytuǵın dárejede tásirsheń waqıyalar júdá kóp boldı. Film haqqında, waqıyalar rawajın tamashagóylerimiz ózleri baha beriwleri múmkin.” [3]

Biraq ayırım bar bolǵan kemshiliklerge qaramay, “Ústirtke jol” filmi zamanagóy jáhán kinoshunoslarınń uslublarınan Qaraqalpaq kinosında birinshilerden bolıp paydalanılǵan real (xroniker) film sıpatında úlken waqıya boldı.

Zamanagóy faktlerge maksimal dárejede tayanǵanlıǵı filmniń shet el hámde jergilikli kino dóretiwshileri tárepinen jaqsı kútip alınıwına sebep boldı. Dóretiwshiler, qánigeler tárepinen bildirilgen pikir usınıslardan durıs juwmaq shıǵarǵan halda real mazmunda jańa hám jaqsı shıǵarmalar jaratıwda dawam etedi degen úmittemiz. Bunnan tısqarı aytıw kerek Berdaq atındaǵı qaraqalpaq mámleketlik akademiyalıq muzıkalı teatrında qaraqalpaq xalqı ushın “Ústirtke jol” kórkem filmi premyerası bolıp ótti.

Juwmaqlastırıp aytqanda filmde kórkem dóretiwshilik birge islesiw úlken nátiye beretuǵını sózsiz. Bunı usı kórkem film misalında aytıp ótsek boladı. Filmde durıs tańlanǵan muzıkanıń kúshi arqalı tariyx penen zamanagóylikti úlestiredi. Ekinshi tárepinen filmniń tásirsheńligin arttırıp tur. Milliy koloritte jańlaǵan nama ırǵaqları tap usı film ushın arnap jazılǵanday túyiledi. Film syujetlerin izbe-iz basqıshında rawajlandırıwǵa hám baylanıstırıwda júdá úlken úles qosqan qaraqalpaq milliy namaların (film ushın paydalanılǵan muzıka) bul filmniń sırtqı lipası dep te atawımız múmkin. Sebebi film qaraqalpaq kórkem kinosında milliy filmler qatarın bayıtıwda salmaqılı orın iyelegen dóretiwshilik birge islengen filmlerdiń biri esaplanadı.

#### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Sultanov I. Ádebiyat teoriiyası.- T.: Oqıtıwshı, 1980.- B. 174.
2. Avtorıń rejıssyor A.Ğaniyev penen sáwbetinen. 2023-jil 10-may.
3. “Ústirtke jol” sebepli “Barsa- kelme” bardım // Darakshi. 423. Dekabr 2016-jil
4. Tilepov Q. “Kino-tarbiya vosıtasi”. Innovative Development in Educational Activities 2.5 (2023): 314-317.
5. Tilepov Q. Main factors of the history and development of "karakalpakfilm" film studio. World Bulletin of Social Sciences, 27, (2023).169-171.
6. Tilepov Q. “Qaraqalpoqfilm” davlat unitar karxonasınıń ta’rixi va rivojlanish yollari Inter education & global study. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 613-620.

**РЕЗЮМЕ.** Мақаллада “Qaraqalpaqfilm” mámleketlik unitar karxanası tárepinen 2018-jil dóretiwshilik birge islesiw tiykarında súwretke alınǵan “Ústirtke jol” tolıq metrajlı kórkem filmindegi ózine tán usıllar, rejıssyor hám aktyorlar sheberligi sonday-aq dóretiwshilik topardıń nátiyjeli jumısları sóz etiledi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассказывается об уникальных методах, мастерстве режиссера и актеров, а также о плодотворной работе творческой группы в полнометражном художественном фильме "Дорога на Устюрт," снятом в 2018 году Государственным унитарным предприятием "Каракалпакфильм" в рамках творческого сотрудничества.

**SUMMARY.** The article discusses the unique methods and skill of the director and actors, as well as the productive work of the creative team in the full-length feature film "Road to Ustyurt," filmed in 2018 by the Karakalpakfilm State Unitary Enterprise as part of a creative partnership.

**O‘ZBEK KINOSIDA VIDEO TASVIR TEXNOLOGIYASI ORQALI OLIB BORILGAN  
EKSPERIMENTAL IZLANISHLAR  
(National Panasonic NV-M5 kamera tajribasi misolida)**

**B.Y.Turobov** – *“Kino-foto-televideniye va radio o‘quv studiyasi” boshlig‘i*  
*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti*

**Tayanch so‘zlar:** o‘zbek kinosi, video tasvir texnologiyasi, analog kamera, National Panasonic NV-M5, eksperimental izlanish, visual kompozitsiya, operatorlik san‘ati, VHS format, texnik-hissiy yechim

**Ключевые слова:** узбекское кино, видеотехнология изображения, аналоговая камера, National Panasonic NV-M5, экспериментальные исследования, визуальная композиция, операторское искусство, формат VHS, техническо-эмоциональное решение

**Key words:** Uzbek cinema, video imaging technology, analog camera, National Panasonic NV-M5, experimental research, visual composition, cinematography (or: art of camerawork), VHS format, technical and emotional solution

1990-yillarning oxiri O‘zbekistonda texnologik o‘zgarishlar boshlangan davr bo‘lib, kino san‘atida ham muayyan darajada iz qoldirdi. An‘anaviy 16 mm, 35 mm kinoplyonka texnologiyasi yuqori sifatli tasvir bera olishiga qaramay, murakkab ishlov jarayoni va yuqori xarajatlar bilan bog‘liq edi. Shu davrga kelib, VHS formatdagi videokameralar, xususan National Panasonic NV-M5 kamerasi texnologik muqobil vosita sifatida ommalasha boshladi. Uning ixchamligi, qulayligi, mobil ishlatish imkoniyati va nisbatan arzonligi mustaqil kinochilar, televideniye operatorlari e‘tiborini tortdi. Mazkur kamera yarim professional va reportaj janridagi ishlanmalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tasvir to‘g‘ridan-to‘g‘ri VHS formatidagi magnit tasma-siga yoziladi. Rang balansi avtomatik tarzda muvozanatga keltiriladi. Optik zumga ega, yorug‘lik yetarli bo‘lgan sharoitda esa tasvir sifati muayyan darajada qoniqarli natijalarni beradi. Ushbu texnik imkoniyatlar o‘z davrida tajriba va hujjatli janrlar ustida ishlayotgan operatorlar uchun sezilarli qulaylik yaratadi.

Shunga qaramay, VHS formatining tabiiy texnik cheklovlari past rezolyutsiya, donador (grainy) tasvir, ranglar uzatilishidagi sayozlik kino san‘atining ifoda vositalarini toraytirgan. Yorug‘lik va soyalar o‘rtasidagi kontrastning sustligi dramatik sahnalarni yaratishda muayyan qiyinchiliklar tug‘dirgan. Shuningdek, chuqurlik effekti va tasvir plastikasini boyituvchi kinooptik estetikaga to‘laqonli mos kelmasligi ayrim ijodkorlar imkoniyatlarini chegaralagan. Biroq, National M5 kamerasi taqdim etgan “xom”, naturalistik va realistlik ko‘rinishdagi tasvir

ayniqsa hujjatli hamda eksperimental janrlar uchun yangi ifoda vositasiga aylandi. Ushbu vosita orqali suratga olingan ba‘zi filmlar kino va video orasidagi chegarani yo‘qotib, yangi visual til izlanishlariga zamin yaratdi. O‘zbekiston kinosida bu kabi kameralar bilan amlaga oshirilgan ilk tajribalar professional kinokamera mavjud bo‘lmagan sharoitda xalqchil va bevosita ifoda imkoniyatlarini ochib berdi.

National Panasonic NV-M5 kamerasiga o‘zbek operatorlik san‘ati tarixida oraliq texnologik bosqich timsoli sifatida qaralishi mumkin. U kinoplyonkaning poetic kuchi bilan raqamli texnologiyalar mukammalligi o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu maqolada mazkur kamera bilan suratga olingan “Taqdir” filmi misolida o‘zbek visual hikoyachilikda qanday tasviriy o‘zgarishlar yuz bergani tahlil etiladi.

“Taqdir” filmi melodrama janrida yaratilgan bo‘lib, bosh rolni N.Hojiyev ijro etgan. Film syujeti oddiy insonning hayotiy maqsadlari va sof muhabbati uchun kurashayotganda qaltis qarorlar qabul qilib, o‘z taqdirini murakkab ahvolga solishi haqidagi voqealarni tasvirleydi.

Film qahramoni Sanjar oilada otasiz o‘shib ulg‘aygan, oddiy va mehribon yosh yigit. U o‘zining sevgan qizi bilan mahalladagi xiyobonda uchrashadi. Ammo, badavlat oilaning arzanda farzandi va uning hamtovoqlari Sanjarga nisbatan zo‘ravonlik qiladilar. Sanjar o‘zini himoya qilish maqsadida, ko‘chadagi bo‘sh shisha idishni sindirib, raqibiga qarata tashlaydi va uni jiddiy jarohatlaydi. Ushbu voqeadan so‘ng sud hukmi bilan uzoq muddatga qamoqqa yuboriladi.

Qamoqdan chiqqach, Sanjar jamiyat tomonidan qamalganlik uchun qarshi munosabatga duch keladi. Ishga joylasholmay, o'zini begona va kerakmas insondek his qiladi. Bu holatda esa sevgan qizini izlashga ham jur'at topmaydi. Natijada, u ichkilikbozlik, kashandalik va nojo'ya davrlar ortida yashay boshlaydi. Bunday holat uning ruhiy tushkunligi va ijtimoiy izolyatsiyasini yanada kuchaytiradi.

Bir kuni fohisha ayol uni "qo'lga oladi". Ularni birga kechgan tun, tonglari ayol tomonidan yolg'on ayblovlar bilan buziladi. Qisqa muddatda Sanjar o'sha ayolga uylanishga majbur bo'ladi. Keyingi voqealar rivojida uning turmushi murakkablashadi. Ayoli eski kasbiga qaytib, xiyonat yo'lidan boradi. Sanjar va ayol o'rtasidagi munosabatlar yomonlashib, ajralish yoqasiga keladi. Shuningdek, eski raqiblaridan yana tahdidlar bo'ladi.

Hayotining eng qiyin lahzalarida Sanjar qishloqdagi tog' bag'ridagi xilvat joyda o'ldirilishdan qutqariladi. Shu yigit Sanjarning tashlab ketilgan o'g'lini topib, unga topshiradi. Bu voqea Sanjarning hayotiga yangi umid bag'ishlaydi. O'zining san'atga bo'lgan mehrini davom ettirgan Sanjar, oxir-oqibat o'g'li bilan baxtli yashashga intiladi. Film syujeti orqali hayotiy murakkabliklar, insoniylik, muhabbat va taqdir sinovlari nozik badiiy tilda yoritilgan.

"Taqdir" filmi Namangan viloyatida tasvirga olingan. Bu joy tanlanganining asosiy sababi qahramonlarning prototiplariga asoslangan senariy taqdim etilganligi bilan bog'liqdir. Filmning tasviriy sifati va yaratuvchi jamoasining tajribasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Operator E.Mamedov uzoq yillar davomida badiiy kino hamda O'zbekiston ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar kinostudiyasida ishlangan malakali mutaxassisdir. Film yaratilish jarayoniga batafsil nazar tashlaganda, uning badiiy sifati past bo'lishining sabablari oydinlashadi. Tadqiqotlar natijasida filmning senariy muallifi A.Nurmatov dastlab rejissyor sifatida ishlashni maqsad qilgan. Biroq keyinchalik ushbu mas'uliyatni to'liq bajara olmasligini anglab, postanovkachi-operator E.Mamedovga topshirganligi aniqlandi.

Tasviriy qismga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, filmga ajratilgan mablag' miqdori aniq bo'lmasa-da, tasvirga olish ishlari kinotasmali kamerada amalga oshirilmagani moliyaviy cheklovlarning mavjudligidan dalolat beradi. Bu holat filmning tasvir sifatiga ta'sir qilganligi tomoshabiniga darhol ko'rinadi. Bundan tashqari, ijodkorlar faqat yoz faslida suratga olishganligi yuqori kontrastlikka va kartinadagi syujet davomida vaqt o'tishi, qahramonlarning keksayishi va fasllar almashishi kabi badiiy

jihatlarining yetarlicha ifodalanmasligiga sabab bo'lgan.

Filmda asosan tayyor obyektlardan foydalanilgan, pavilonli yoki dekoratsiyali tasvirga olish ishlari mavjud emas. Bu holat ham film byudjetining cheklanganligini isbotlaydi. Shu bilan birga, badiiy kino uchun bu kabi imkoniyatlarning cheklanishi suratga olish sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Operator suratga olish jarayonida kadr kompozitsiyasi va uning tasviriy yechimlari ustida puxta ishlashi lozim. Agar operator shu bilan birga rejissyorlik funksiyasini ham bajarishga majbur bo'lsa, uning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan mezansahna qurish, aktyorlar bilan ishlash va umumiy ijodiy guruhni boshqarish kabi masalalarga ham e'tibor qaratishi talab etiladi. Bunday holatda operatorning tasvirga olishga to'liq konsentratsiyasi susayib, operatorlik mahorati va mas'uliyati izdan chiqishi mumkin. Afsuski, aynan "Taqdir" kinokartinasida shunday muammo yuzaga kelgan.

Filmda operatorlik tasviriy ifoda va texnik vositalardan samarali foydalanilganini ta'kidlab bo'lmaydi. Agar operator yordamchi texnikalar kran, rels, telejka, stedikam, yelka shtativ (naplechnik) kabi uskunalarni faol qo'llaganida, filmning dramaturgik ta'sir kuchi va ritmi sezilarli darajada jonlanardi. Bu vositalar kadrlarning harakatlanuvchanligini oshirib, filmning hissiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

National Panasonic NV-M5 kamerada suratga olishda, odatda, rang haroratini muvozanatlash (svetovoy balans) uchun kameraning "manual" rejimidan foydalaniladi. Bu rejim har qanday yorug'lik sharoitida ranglarni to'g'ri sozlash imkonini beradi. Shu bilan birga, turli rangdagi fonlarga moslab rang balansini sozlash orqali maxsus atmosferalar yaratish ham mumkin. Filmda aynan shu uslubdan foydalanilganini boshlang'ich epizodlarda, ya'ni Sanjarning o'z taqdiridan ranjishini ifodalovchi ichki monologida, kunduzning tonggi ko'kimtir ranglarda tasvirlanishida kuzatish mumkin.

E.Mamedov kinotasmali kamerada ko'plab badiiy filmlar yaratgan tajribali operator sifatida yangi kamera bilan ishlash tajribasi bo'ldi. Har qanday yangi texnologiya bilan tajriba qilish har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Birinchi jihat shundaki, o'sha davrdagi kinoteatrlarda ishlatiladigan kinoproektorlar asosan kinotasmali kadrlarni namoyish qilishga mo'ljallangan bo'lib VHS formatdagi videotasvir sifatining pastligi katta ekranda ko'rsatilganda sifat yo'qolishiga olib kelgan.

Ikkinchi jihat kameraning texnik imkoniyatlari cheklanganligi bilan bog'liq.

“National M5 Professional VHS” videokamerasi, aslida havaskorlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qo‘shimcha obyektivlardan foydalanishga imkon bermasligi sababli, kadr kompozitsiyasini boy va jozibador qilishda cheklov yaratgan. Natijada, film kadrlarining badiiy ifodasi va texnik darajasi past bo‘lib qolgan.

Shu tarzda, “Taqdir” kinokartinasidagi operatorlik ishi o‘zining texnik va ijodiy chegaralariga ega bo‘lishi, shuningdek, operator-rejissyorlik vazifalarining bir kishiga yuklanishi filmning tasviriy va badiiy sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganini aks ettiradi.

“Taqdir” filmining ko‘p epizodlari asosan tabiiy sharoitlarda, kunduzi suratga olingan. Biroq operator tomonidan qo‘shimcha yoritish usullaridan foydalanilmaganligi seziladi. Bu esa ichki interyer sahnalarida va tungi kadrlar yoritilishda sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Shuningdek, kameraning fokusni to‘g‘rilash va rang haroratini muvozanatlash tizimlarining ko‘p hollarda avtomatik rejimda ishlatilgani tufayli, harakatdagi sahnalarda tasvirning tiniqligi va ekspozitsiyasi bir necha bor o‘zgarib ketganligi kuzatiladi. Bu holat tasvir sifatining izchil bo‘lmasligi, kadrlarning sifat jihatdan past darajada chiqishiga olib keladi.

Har bir operatorning o‘ziga xos uslubi mavjud bo‘lgani kabi. E.Mamedov ham filmida interyer va tungi sahnalarni yoritishda yoyilib tarqatuvchi yorug‘lik vositalaridan foydalanishga ustunlik bergan. Biroq kameraning transfokator tizimidan (tasvirni yaqinlashtirish va uzoqlashtirish funksiyasi) haddan tashqari ko‘p foydalanilishi filmning tasviriy yechimida sezilarli kamchiliklarga sabab bo‘lgan. Bu holat natijasida kadrlar soni kam bo‘lib, ular o‘zaro tushunarsiz ko‘rinishga ega bo‘lgan. Ekspozitsiya va fokusning o‘zgarishi esa tasvir sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Xususan, kadr yaqinlashtirilganda aniq urg‘u berilishi lozim bo‘lgan joygacha yetib borguncha ekspozitsiya va fokusning o‘zgarishi qo‘pol texnik xatolarga sabab bo‘lgan. Natijada, bu nuqsonlar filmning badiiy qiymatini pasaytirgan.

Filmda murakkab tasvirga olish usuli ikki epizodda aniq ko‘zga tashlanadi. Birinchi epizodda Sanjarning nozik his-tuyg‘ulari, she‘riy nazmga moyilligi va boylarning bazm-u-jamshid kechalariga qo‘shilib yurishi tasvirlanadi. Ushbu sahnalardan birida Sanjar o‘z xotini Lolaning sharmandali holatini ko‘rib, o‘rtada janjal yuzaga keladi. Voqea oxirida Sanjarni kaltaklab, tog‘dagi bir tepalikdan tashlab yuborishadi. Ikkinchi murakkab tasvirga olish usuli esa Lolaning hayotidan to‘ygan holatda mashinada halokatga uchragan sahnasida qo‘llanilgan. Har ikkala sahnada kaskadyorlar o‘zlarining topshiriqlarini yuqori darajada uddalaganliklari filmning dramatik kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Shunday qilib, “Taqdir” filmida operatorlik texnikalari va tasvirga olish usulbarining aralash xususiyatlari, ba‘zi texnik kamchiliklarga qaramay, filmning hissiy va badiiy ifodasini mustahkamlashga qaratilgan urinishlar sifatida qadrlanishlari filmning umumiy tasviriy yechimida sezilarli salbiy ta‘sir qoldirgan.

Ushbu maqolada o‘zbek kinofilmlarida video tasvir texnologiyalarining dastlabki tajribalari, xususan, National Panasonic NV-M5 kamerasidan foydalanish misolida tahlil qilindi. 1990-yillarda o‘zbek kinosida texnik va moliyaviy cheklovlarga qaramay, yangi usullarni sinovdan o‘tkazish orqali kino ijodkorlari tasviriy yechimlarni rivojlantirishga intilganlari ko‘rsatildi. Video texnologiyalarning imkoniyatlari va cheklovlari, shu jumladan, kamera fokuslash, rang harorati muvozanati va yoritish usullarining tasvir sifatiga ta‘siri o‘rganildi. Bu tajribalar kelajakda o‘zbek kinosida texnologik yangilanishlar va tasvir sifatining oshishiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi ta‘kidlandi. Shuningdek, texnik cheklovlar ijodiy jarayonga qanday ta‘sir ko‘rsatgani va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishdagi muhim qadamlar haqida mulohazalar bildirildi. Natijada, maqola o‘zbek kinomexanikasi rivojida video tasvir texnologiyasining sinov bosqichlari va ularning san‘at sifatiga ta‘sirini yoritib, kelajak istiqbollari chorlov vazifasini bajaradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Актуальные вопросы кинооператорского искусства. Сборник статей. Сост. А.Головня. - М.:ВГИК, 1979. - С.75.
2. Бутовский Я. Андрей Москвин, кинооператор. - СПб: Дмитрий Буланин, 2000. - С.298.
3. Голдовский Е. Основы кинотехники. - М.: Искусство, 1965. - С.636.
4. Десят операторских биографий. Сб. Ст. О А.Левицком, Э.Тиссэ, А.Головне, А.Мосвине, Д.Демуском, М.Магидсоне, Б.Волчке, А.Гальперине, Д.Косматове, С.Урусевском. / Сост. М. Голдовская. - М.: Искусство, 1978. - С.207.
5. Ильин Р. Мастерство оператора кино и телевидения. - М.: ВГИК, 1985. - С.56.
6. Исмаилов А. Кинооператорское мастерство. - Т.: УзДСИ, 2004.- С.420.
7. Исмаилов А., Салиев М. Витторио Стораро. Живопис со светом. - Т.: УзДСИ, 2004. - С.126.

**REZYUME.** Mazkur maqolada o'zbek kinosida video tasvir texnologiyasi asosida olib borilgan ilk eksperimental izlanishlar, xususan analog video kamerasi yordamida amalga oshirilgan tajribalar tahlil etiladi. Kamera bilan ishlash jarayonida yuzaga kelgan texnik va hissiy yechimlarni sharhlab, raqamli texnologiyalarga o'tish arafasida bo'lgan davrda tajriba orqali operatorlik ifodasi va sahnalashtirishda yuzaga kelgan o'zgarishlarga e'tibor qaratadi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируются первые экспериментальные исследования в узбекском кинематографе, основанные на видеотехнологиях, в частности, опыты, проведенные с использованием аналоговой видеокамеры. Освещаются технические и эмоциональные решения, возникшие в процессе работы с камерой, а также изменения в операторском выражении и режиссуре, произошедшие в период перехода к цифровым технологиям.

**SUMMARY.** This article analyzes the early experimental research in Uzbek cinema based on video imaging technology, particularly the experiments conducted using an analog video camera. It explores the technical and emotional solutions encountered during the filming process, emphasizing the shifts in cinematographic expression and staging that emerged during the transition to digital technologies.

## **BIBLIOGRAFIYA HÁM MÁDENIYAT**

### **GLOBALIZATSIYA DAVRIDA MILLIY MADANIYAT VA IJTIMOY INTEGRATSIYA**

**Abatova Gúlnaz Maksetbaevna** – *assistent o'qituvchi*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** globalizatsiya, milliy madaniyat, ijtimoiy integratsiya, madaniy meros, raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimi, identitet, madaniy siyosat, raqamli muzey, virtual ekskursiya, madaniy kontent, yoshlar, ijodiy loyihalar, madaniyat markazlari, barqaror taraqqiyot, jamoatchilik tashabbuslari, madaniy uyg'unlik, strategik rivojlanish, madaniyatni saqlash, mahalliy hamjamiyat.

**Ключевые слова:** глобализация, национальная культура, социальная интеграция, культурное наследие, цифровые технологии, система образования, идентичность, культурная политика, цифровой музей, виртуальная экскурсия, культурный контент, молодежь, творческие проекты, культурные центры, устойчивое развитие, общественные инициативы, культурная гармония, стратегическое развитие, сохранение культуры, местное сообщество.

**Key words:** globalization, national culture, social integration, cultural heritage, digital technologies, education system, identity, cultural policy, digital museum, virtual tour, cultural content, youth, creative projects, cultural centers, sustainable development, public initiatives, cultural harmony, strategic development, cultural preservation, local community.

**Kirish.** Globalizatsiya jarayonlari zamonaviy dunyoda madaniy va ijtimoiy jarayonlarning murakkab va o'zaro bog'liq tizimini shakllantirmoqda. Milliy madaniyat, o'zining tarixiy ildizlari va an'analari bilan jamiyatning asosiy identifikatsiya omili sifatida qolaverar ekan, global ta'sirlar esa uning dinamikasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy integratsiya - jamiyatning turli qatlamlari va guruhlarini birlashtirish mexanizmi sifatida — milliy madaniyatning saqlanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur jarayonlar o'rtasidagi muvozanatni aniqlash va uni samarali boshqarish hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy muammolarini yechishda kalit vazifasini bajaradi. Shunday qilib, milliy madaniyat va ijtimoiy integratsiyaning o'zaro aloqalari, globalizm sharoitida jamiyatlarning barqaror rivojlanishi

uchun asosiy omillardan biri sifatida ko'rib chiqilishi zarur.

Globalizatsiya zamonaviy dunyoda madaniyatlararo o'zaro ta'sirning keskin ortishi bilan ajralib turadi, bu jarayon milliy madaniyatlar uchun ham yangi imkoniyatlar, ham muammolar yaratmoqda. Milliy madaniyat o'ziga xos tarixiy tajriba, til, an'ana va qadriyatlar majmuasi sifatida jamiyatning identifikatsiyasida asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, global jarayonlar milliy madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ba'zan esa ularni susaytirish xavfini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy integratsiya esa jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari va etnik guruhleri o'rtasida birlik, o'zaro tushunish va hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy madaniyatni saqlab qolish ijtimoiy barqarorlik uchun zarur bo'lib, bu jarayon ijtimoiy integratsiya mexanizmlarining samarali

ishlashi bilan bog‘liq. Masalan, O‘zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish uchun davlat tomonidan madaniy siyosat amalga oshirilmoqda, milliy an‘ana va qadriyatlarni saqlashga qaratilgan turli dasturlar faoliyat yuritmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli platformalar madaniyatlarni ommalashtirish va yosh avlodga yetkazishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish uchun madaniyat va ta‘lim sohasida integratsiyalashgan yondashuvlar talab qilinadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, madaniy o‘zaro hurmat va inklyuzivlikni rivojlantirish ijtimoiy birdamlik va milliy identitetni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun milliy madaniyat va ijtimoiy integratsiya o‘rtasidagi uyg‘unlikni saqlash hamda kuchaytirish globalizm sharoitida har bir davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Milliy madaniyat – jamiyatning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va qadriyatlar tizimi bo‘lib, u odamlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va birligini ta‘minlaydi. Ammo global ta‘sirler ko‘plab madaniy elementlarning standartlashuvi va uyg‘unlashuviga olib keladi, bu esa milliy identitetni zaiflashtirish xavfini tug‘diradi. Ijtimoiy integratsiya esa turli guruhlar va qatlamlarni birlashtirish, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga solish orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlaydi. Milliy madaniyatning rivojlanishi va ijtimoiy integratsiyaning mustahkamlanishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq jarayonlardir. O‘zbekistonda madaniyatni asrash va rivojlantirish uchun hukumat tomonidan an‘anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalar milliy madaniyatni yosh avlodga yetkazishda va ijtimoiy birdamlikni oshirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayonda madaniy ko‘p qirralilikni hurmat qilish va inklyuzivlik tamoyillarini rivojlantirish jamiyatda sog‘lom integratsiyani ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, milliy madaniyat va ijtimoiy integratsiyaning muvozanatli rivojlanishi zamonaviy global sharoitda ijtimoiy barqarorlik va milliy birdamlikni saqlash uchun asosiy shartlardan biridir.

**Xulosa.** Globalizatsiya sharoitida milliy madaniyat va ijtimoiy integratsiya o‘rtasidagi

muvozanat jamiyat barqarorligi va milliy identitetning saqlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Milliy madaniyat qadriyatlari va an‘analarini saqlash, shu bilan birga zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga moslashish orqali jamiyatda birdamlik va o‘zaro tushunishni kuchaytirish mumkin. Ijtimoiy integratsiya esa turli guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Shu bois, milliy madaniyatni rivojlantirish va uni global jarayonlar kontekstida saqlash uchun kompleks siyosat va samarali amaliyotlar zarurdir. Ushbu jarayonlarda raqamli texnologiyalar va madaniy siyosat muhim rol o‘ynaydi, ular orqali madaniy ko‘p qirralilikni hurmat qilish va jamiyatni birlashtirishga erishish mumkin. Natijada, milliy madaniyat va ijtimoiy integratsiya o‘rtasidagi muvozanat nafaqat jamiyat taraqqiyotining, balki milliy barqarorlik va identitetning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

**Fikir va takliflar.** Globalizatsiya jarayonlarida milliy madaniyatni saqlab qolish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish uchun bir nechta amaliy takliflar ilgari surilishi mumkin. Birinchi navbatda, ta‘lim tizimida milliy madaniyat va tarix asoslarini mustahkamlovchi o‘quv dasturlarini joriy etish zarur. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, UNESCO hisobotlarida ko‘rsatilishicha, milliy madaniyatni o‘rganishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimi yoshlar orasida o‘z identitetiga nisbatan ijobiy munosabatni 30% ga oshiradi. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida madaniy merosni virtual shakllarda targ‘ib qilish – masalan, raqamli muzeylar, madaniy mobil ilovalar yoki virtual ekskursiyalar orqali ommaga taqdim etish – bu borada dolzarb vosita bo‘la oladi. Masalan, “O‘zbekistonda raqamli madaniy meros” loyihasi 2022-yilda 100 mingdan ortiq foydalanuvchini jalb qilgan. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda madaniy kontent yaratish va yoshlar ishtirokidagi ijodiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali madaniy hamjihatlikni mustahkamlash mumkin. To‘rtinchidan, davlat siyosatida ijtimoiy madaniyatni rivojlantirishga oid alohida strategiyalar ishlab chiqilib, ular doirasida mahalliy madaniyat markazlari faoliyati va jamoatchilik tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Shu tarzda, milliy madaniyatning himoyasi va ijtimoiy integratsiya o‘rtasidagi uyg‘unlik jamiyatning barqaror va izchil taraqqiyotini ta‘minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘raev, M. *Globalizatsiya va milliy madaniyat*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012.
2. Norqobilov, S. *Madaniyatshunoslik asoslari*. Toshkent: Fan, 2016.
3. Tursunov, B. *Milliy madaniyat va globallashuv*. Toshkent: O‘zbekiston, 2014.

4. Raximov, T. *Madaniyatlararo muloqot va integratsiya*. Toshkent: Innovatsiya, 2017.
5. Qurbonov, M. *Ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyalari*. Toshkent: Akademnashr, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari to'plami. *Madaniyat va san'at sohasida strategik rivojlanish choralari*. 2017–2023 yillar.
7. Abduqodirov, A. *Milliy identitet va madaniy meros*. Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
8. Odilova, Z. *Raqamli texnologiyalar va madaniy kontent*. Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
9. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. *Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish strategiyasi*. Toshkent, 2022.

**REZYUME.** Maqolada globalizatsiya jarayonlari kontekstida milliy madaniyat va ijtimoiy integratsiyaning o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda global ta'sirlar milliy madaniyatni qanday shakllantirishi va ijtimoiy birlikni mustahkamlashdagi roli o'rganiladi. Shuningdek, milliy madaniyatni saqlab qolish va ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish yo'llari, shu jumladan madaniy siyosat va zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari ijtimoiy tadqiqotchilar, madaniyatshunoslar va davlat siyosatini shakllantiruvchilar uchun muhim konseptual baza yaratadi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье на научной основе анализируется взаимосвязь национальной культуры и социальной интеграции в контексте процессов глобализации. Исследование рассматривает, каким образом глобальные воздействия формируют национальную культуру и укрепляют социальное единство. Также рассматриваются пути сохранения национальной культуры и развития социальной интеграции, включая возможности культурной политики и современных технологий. Результаты статьи представляют собой важную концептуальную базу для социальных исследователей, культурологов и разработчиков государственной политики.

**SUMMARY.** The article scientifically analyzes the interrelationship between national culture and social integration within the context of globalization processes. The study examines how global influences shape national culture and reinforce social cohesion. It also explores ways to preserve national culture and promote social integration, including the potential of cultural policy and modern technologies. The findings provide an important conceptual framework for social researchers, cultural scholars, and policymakers.

## KITAPXANA MÁLIMLEME XÍZMETIN ALÍP BARÍWDA INFORMACIYA RESURLARÍNA BOLĠAN TALAPLARDÍ ÚYRENIW

*Amanbaeva Albina Naǵmetbaevna – magistr*

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali*

**Tayanış sózler:** kitapxana iskerligi, ilimiy hám mádeniy rawajlanıw, kitapqumarlıq, málimleme texnologiyaları.

**Ключевые слова:** библиотечная деятельность, научное и культурное развитие, чтение, информационные технологии.

**Key words:** library activity, scientific and cultural development, reading, information technologies.

Kitapxanalar ilimiy hám mádeniy rawajlanıwdıń ajralmas bólegi bolıp, jámiyette málimleme tarqatıw, ilim hám bilimlendiriw tarawların rawajlandırıwda úlken rol atqaradı. Biraq, zamanagóy texnologiyalar hám ózgeriwsheń talaplar fondında kitapxana málimleme xızmeti túrli mashqalalardı dus kelmekte. Usı maqalada kitapxanaların málimleme iskerligindegi tiykarǵı mashqalalar hám olardıń nátiyjeli sheshimleri haqqında pikir júrgizemiz. Kitapxana málimleme iskerliginde júzege keletuǵın mashqalalardan dep tómendegilerdi aytıwımızǵa boladı; finanslıq resurslardıń jetispewshiligi, sanlı texnologiyalardıń engizilmewi, paydalanıwshılar aktivliginiń tómenlewi, kadrlar mamanlıǵınıń

jeterli emesligi, kitapxana fondlarınń eskirgeni hám jańalanbaytuǵınlıǵı, kitapxanaǵa kiriw imkaniyatlarınń sheklengenligi, kitapxana resurslarınń teńsiz bólistiriliwi.

Kitapxanaların rawajlanıwı ushın finanslıq támiynat áhmiyetli rol oynaydı. Biraq, kóplegen kitapxanalar jeterli qarǵı ajratılmaǵanı sebepli jańa kitaplar, elektron resurslar hám texnologiyalardı satıp alıwda qıyınshılıqlardı dus kelmekte. Bunday jaǵdaylarda jumıs processinde mámleketlik hám jeke menshik sektor birge islesiw rawajlandırıw, grant hám xalıqaralıq baǵdarlamalarda qatnasıw jáne de qáwenderler hám mámleketlik emes shólkemler menen birge islesiw joybarların iske qosıw nátiyjeli sanaladı. Zamanagóy málimleme-kitapxana jumısı sanlı

texnologiyalar menen tıgız baylanıslı bolıwı kerek. Házirgi kúnde internet resursları, elektron kataloglar, sanlı arxivler hám onlayn maǵlıwmatlar bazalarınń bar ekenligi informaciya almasıwın sezilerli dárejede ańsatlastıradı. Sol sebepli, kitapxanalarda sanlı texnologiyalardı engiziw, paydalanıwshılardıǵa jáne de keńirek hám qolaylı xızmet kórsetiw imkaniyatın jaratadı. Bul tek ǵana kitapxana resurslarınan nátiyjeli paydalanıwdı támiyinlep qoymastan, al uzaq ayaqlardaǵı paydalanıwshılardıǵa da maǵlıwmat alıw imkaniyatın keńeytedi. Kóplegen kitapxanalar bolsa elege shekem dástúriy formada islewdi dawam etpekte hám bul paydalanıwshılardıń talaplarına juwap bere almaydı. Kitapxanalardı zamanagóy kompyuterler hám dástúriy támiynat penen támiyinlew, elektron katalog hám sanlı kitapxanalar jaratıw arqalı kóplegen imkaniyatlardıǵa jol ashılıwı múmkin. Álbette, tek ǵana texnologiyalar menen támiyinlew jetkiliksiz bolıp esaplanadı. Kitapxana xızmetkerlerin informaciya texnologiyaları boyınsha oqıtıw, olardıń tez-tezden jańa bilimler alıwına múmkinshilikler jaratıw maqsetke muwapıq. Kitapxanashı xızmetkerlerdiń bilim hám kónlikpeleri zamanagóy málimleme texnologiyalarına say bolıwı kerek. Biraq, kópshilik kitapxanashılar jańa texnologiyalar menen islewge tayar emes. Bul tiykarınan málimleme texnologiyaları boyınsha jeterli bilim hám kónlikpelerdiń joqlıǵı, turaqlı tájiriye arttırıw imkaniyatlarınń sheklengenligi hám kitapxana sistemasında zamanagóy texnologiyalardan paydalanıw boyınsha oqıw baǵdarlamalarınń jetispewshiligi menen baylanıslı. Sonday-aq, ayırım xızmetkerlerdiń jańa texnologiyalardıǵa beyimlesiw baǵdarında jeterli dárejede xoshametke iye emesligi de mashqala tuwdıradı. Sol sebepli, kitapxanashılar ushın turaqlı túrde treningler, seminarlarǵa qatnasıw imkaniyatların jaratıw, tájiriye qánigelerdiń qatnasıwında sheberlik sabaqların ótkeriw hám olardıǵa jańa texnologiyalar menen islesiwdi úyretiw úlken áhmiyetke iye. Kitapxanashılardı turaqlı túrde qánigeligin arttırıw kurslarına tartıw. Olardıń kásiplik sheberligin arttırıw ushın zamanagóy málimleme texnologiyalarınan paydalanıw, jańa kitaplar hám kitapxana basqarıw sistemaları boyınsha oqıw baǵdarlamaların islep shıǵıw áhmiyetli. Málimleme texnologiyaları boyınsha arnawlı treningler shólkemlestiriw. Bul treninglerde elektron kitapxana sistemaları, onlayn kataloglar, sanlastırıw texnologiyaları hám paydalanıwshılardıǵa interaktiv xızmet kórsetiw boyınsha kónlikpeler úyreniliwi kerek. Jańa áwlad kitapxanashılardıń tayarlaw maqsetinde joqarı oqıw

orınları menen birge islesiw. Kitapxanashılıq baǵdarında bilim beriwshi joqarı oqıw orınları menen birgelikte qospa baǵdarlamalar islep shıǵıw, ámeliyat baǵdarlamaların jolǵa qoyıw hám zamanagóy málimleme texnologiyalarına tiykarlanǵan oqıw kursların shólkemlestiriw kerek.

Málimleme texnologiyalarınń rawajlanıwı menen kitapqumarlar sanı azaymaqta, sebebi, kópshilik internet hám elektron dereklerden paydalanıwǵa ótpekte. Onlayn kitapxanalar, elektron kitaplar, ilimiy maqalalar bazaları hám audiokitaplar paydalanıwshılardıǵa dástúriy kitaplarǵa qaraǵanda tezirek hám qolaylıraq maǵlıwmat alıw imkaniyatın bermekte. Bunnan tisqari, mobil qosımshalar hám sanlı oqıw platformalarınń keń tarqalıwı da adamlardıń kitap oqıwǵa bolǵan ádetlerine tásir etpekte. Biraq, bul process kitapqumarlıq mádeniyatınń joǵalıwın ańlatpaydı, al onı jańa formalarǵa beyimlesiwine alıp kelmekte. Kitapxanalar jumısın ǵalaba en jaydırıw ushın reklama hám úgit-násiyat jumısların kúsheytiw. Bunıń ushın sociallıq tarmaqlarda kitapxanalar diń xızmetleri haqqında bloglar, videorolikler hám interaktiv postlar tayarlaw áhmiyetli. Bunnan tisqari, jergilikli ǵalaba xabar quralları, radio hám televidenie arqalı kitapxana jumısın sáwlelendiriw de nátiyjeli boladı. Sonday-aq, kitapqumarlardı tartıw ushın hár qıylı temalarda seminarlar, kitap prezentaciyaları, avtorlar menen ushırasıwlar hám tańlawlar shólkemlestiriw zárúr. Elektron hám baspa resurslardıń sapasın arttırıw. Kitapxanalarda bar resurslardıń sapası paydalanıwshılardıń qanaatlanıw dárejesine tikkeley tásir etedi. Elektron resurslardıń sapasın arttırıw ushın olardıń turaqlı túrde jańalanıp barılıwı, paydalanıwshılardıǵa qolaylı interfeyste usınılıwı hám maǵlıwmatlardıń isenimliliǵi támiyinleniw kerek. Baspa resurslar boyınsha bolsa jańa basılımlardı satıp alıw, gónergen ádebiyatlardı almasıwıw hám arnawlı qánigeler tárepinen usınıs etilgen kitaplardı jıynaw úlken áhmiyetke iye. Sonday-aq, paydalanıwshılardıń pikirlerin esapqa alıp, eń talapker resurslardı kitapxana fondına qosıw da zárúr. Kitapqumarlar ushın arnawlı ilajlar, seminar hám treningler shólkemlestiriw. Bunday ilajlar kitapqumarlardı jedel tartıw hám olardıń intellektuallıq rawajlanıwına úles qosıw ushın áhmiyetli. Kitapxanalarda temalı seminarlar, jazıwshılar hám ilimpazlar menen ushırasıwlar, jańa kitap prezentaciyaları, ádebiy viktorinalar shólkemlestiriliwi kerek. Sonday-aq, balalar hám jaslar ushın oqıw marafonları, dóretiwshilik jazıw kursları hám málimleme texnologiyaları boyınsha treningler ótkeriw paydalı. Bunday ilajlar tek ǵana kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıwǵa emes,

al kitapxanalardıń jámiyetge áhmiyetin arttırıwǵa xızmet etedi. Kóplegen kitapxanalarda bar fondlar eski hám paydalanıwshılardıń házirgi mútájliklerine sáykes kelmeydi. Kitapxana fondlarınıń eskirgeni hám jańalanbaytuǵınlıǵı tiykarınan, jańa basılımlardıń jeterli satıp alınbay atırǵanı, bar kitaplardıń fizikalıq jaqtan eskirip qalǵanı hám zamanagóy ilimiy-texnikalıq ádebiyatlardıń az ekenligi menen baylanıslı. Bunnan tısqari, oqıwshılar hám izertlewshiler zamanagóy ilim hám texnologiyalar boyınsha áhmiyetli maǵlıwmatlardı izlep atırǵan bir waqıtta, kitapxanalardaǵı kópshilik resurslar usı talapqa juwap bere almaydı. Sol sebepli, kitapxana fondların turaqlı jańalap barıw, paydalanıwshılardıń talapların úyreniw hám eń talap joqarı bolǵan ádebiyatlardı satıp alıw úlken áhmiyetke iye. Kitap hám málimleme resursların dáwirlik túrde jańalaw, elektron kitaplar hám audio resurslar menen támiyinlew, kitapxana fondların sanlastırıw hám onlayn paydalanıwǵa ruxsat beriw menen bunday mashqalalardıń saplastırılıwına sheshim tabılıwı múmkin. Kóplegen kitapxanalar belgili bir is saatlarında isleydi hám bul ayırım paydalanıwshılar ushın

qolaysızlıq tuwdıradı. Kitapxana jumis saatların keńeytiw yáki 24/7 xızmet kórsetiw sistemasın jolǵa qoyıw. Bul tiykarınan onlayn kitapxana xızmetlerin hám mobil qosımshalar arqalı aralıqtan xızmetlerdi jolǵa qoyıw arqalı ámelge asırıladı. Házirgi waqıtta úlken qalalardaǵı kitapxanalar jaqsı rawajlangan bolsa da, awıllıq jerlerde kitapxana resurslarınıń jetispewshiligi baqlanadı. Aymaqlıq kitapxanalar arasında málimleme almasıw sistemasın jolǵa qoyıw, awıllıq kitapxanalarǵa ayırıqsha itibar qaratıw hám investiciyalardı tartıw.

Kitapxanalar jámiyettiń intellektual hám mádeniy rawajlanıwına úlken úles qosatuǵın mákemeler bolıp esaplanadı. Biraq, olardıń nátiyjeli jumis islewi ushın bar mashqalalardı sheshiw zárúr. Finanslıq támiynattı jaqsılaw, cifrlı texnologiyalardı engiziw, kitapxanashılardıń mamanlıǵın arttırıw hám paydalanıwshılardı tartıw - kitapxana málimleme jumisınıń nátiyjeliligin arttırıwdıń tiykarǵı jolları bolıp tabıladı. Eger bul máselelerge kompleksli qatnasta bolsaq, kitapxanalar keleshekte de óz áhmiyetin saqlap qalıp, jáne de rawajlanıwı múmkin.

#### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. I.J.Yuldashev, O.Nosirov Kutubxona - axborot xızmati: nazariyasi va uslubiyoti T.: -2019
2. Худайбергенова Маржан Балтабаевна. Китапхана-мәлимләме тараўын басқарыў усылларын жетилистириў eurasian journal of academic research. Innovative Academy ResearchSupportCenterUIF=8.1|SJIF5.68. <https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10020575>
3. Sharipova D. Shamshetova H. Qaraqalpaqstanda kitapxanalardıń payda bolıwı hám olardı rawajlandırıwdıń aktual máseleleri <https://wordlyknowledge.uz/>
4. Aytimova D. Kitapxana iskerligin rawajlandırıwda innovacion texnologiyalardıń áhmiyeti <https://uzdsmi-nf.uz/jurnal-haqida/>.
5. Buckland, M. Documentation, information science, and library science in the U.S.A. (1996) Information Processing and Management, 32 (1), pp. 63-76. doi: 10.1016/0306-4573(95)00050-Q
6. Иванчукова, Т. А., & Булавкина, И. В. Выставочная деятельность информационно-библиотечного центра. Литература, 40, 41.

**REZYUME.** Bul maqalada kitapxana iskerliginde payda bolatuǵın bir qatar mashqalalar hám olardı saplastırıw joybarları tuwralı sóz etilgen.

**РЕЗИОМЕ.** В данной статье рассматривается ряд проблем, возникающих в библиотечной деятельности, и проекты по их устранению.

**SUMMARY.** This article discusses a number of problems arising in library activities and projects to address them.

## XALQARO FESTIVALLAR MADANIYATLAR TRANSFORMATSION JARAYONLARNI RIVOJLANTIRUVCHI OMILDIR

**Nilufar Karimova** – kichik ilmiy xodim

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti*

**Tayanch soʻzlar:** festival, xorijiy davlatlar, sanʼat, madaniyat, Germaniya, spektakl, agentligi, diplomatik, rejessyor, qoʻshma madaniyat, kongres.

**Ключевые слова:** фестиваль, зарубежные страны, искусство, культура, Германия, спектакль, дипломатический, режиссер, совместная культура, конгресс.

**Key words:** festival, foreign countries, art, culture, Germany, performance, diplomatic, director, shared culture, congress.

**KIRISH.** Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi va koʻplab xalqaro rivojlangan davlatlar oʻrtasida madaniy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni yanada yaxshilash, rivojlantirish maqsadida turli kelishuvlar amalga oshirilmoqda.

“Hozirgi kunga qadar Oʻzbekiston Respublikasi dunyoning 138 ta davlatlari bilan diplomatik aloqalar oʻrnatgan. Toshkentda 44 ta xorijiy elchixonalar, 1 ta bosh kontsullik, 8 ta faxriy kontsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat koʻrsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda Oʻzbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va kontsullik vakolatxonalari mavjud. Oʻzbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning aʼzosi boʻlib, mamlakatimiz turli xil koʻp tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan oʻzaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi”.

Xorijiy davlatlar va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda diplomatik va kontsullik vakolatxonalarning oʻrni katta. Bugungi kunda sanʼat va madaniyat sohalarini yanada rivojlantirish xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasining diplomatik va kontsullik vakolatxonalari hamda soha boʻyicha mavjud hamkor tashkilotlarning oʻrni katta.

Birgina Oʻzbekiston va Turkiya oʻrtasidagi bugungi kunda madaniyat va sanʼat sohalarini rivojlantirish uchun davlatlar oʻrtasida amalga oshirilayotgan ishlarni koʻrib tahlil qilsak.

Samarqand viloyat musiqali drama teatri 2017-yilning yozida turk dramaturgi Tunjar Jujanoʻgʻlining “Koʻchki” spektakli sahnalashtirgan. Asar psixologik drama boʻlib, voqealar kelin va oʻgʻil atrofida aylanadi. Asarda asos qilib olingan muammo bu – tabiiy ofat, yaʼni koʻchki emas, yillar davomida avlodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan chirkin irim-sirimlaru, ularga koʻr-koʻrona ergashib kelayotgan, ayrim

kutilmagan tabiiy hodisalarni notoʻgʻri talqin qilib, hali hayot zavqini anglashga ulgurmagan yosh kelinchakni aybdor qilib, tugʻilishga ulgurmagan norasida goʻdagi bilan birgalikda tiriklayin goʻrga koʻmishdek vahshiy ishni amalga oshirib kelayotgan omi odamlarning mudhish xatolarini aktyorlar mahorat bilan ijro etib, asar mazmunini toʻlaqonli tomoshabinlarga yetkazishgan.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar sanʼat festivallari va ularning jamiyatdagi oʻrni, shuningdek madaniy jarayonlardagi roli haqida chuqur maʼlumot beradi. A. I. Mazaevning “Праздник как социально-художественное явление” asari (1978) bayram va festivallarning ijtimoiy va badiiy jihatlarini yoritib, ularni madaniy hayotda muhim voqea sifatida koʻrsatadi. Bu ish festival tushunchasining nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, “Справочник Арт-Менеджера: Фестивали” (2002) materiallari sanʼat festivallarini tashkil etish, boshqarish va ularning amaliy jihatlarini tushunishga yordam beradi, bu esa hozirgi kunda festivallarni muvaffaqiyatli oʻtkazish uchun zarur boʻlgan menejment koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Tim Bertning “Музыкальные фестивали сталкиваются с нехваткой финансирования” maqolasi festivallarni moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarga eʼtibor qaratib, zamonaviy sanʼat festivallarining barqaror rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillarni tahlil qiladi. Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida sanʼatdagi biyennale va festivallar faoliyatining badiiy va ijtimoiy asoslarini oʻrgangan D. Shukurovning 2024-yilgi dissertatsiyasi milliy madaniyatning rivojlanishiga xalqaro festivallar orqali erishilayotgan ijobiy natijalarni koʻrsatadi va madaniyat transformatsiyasidagi oʻziga xos jihatlarini ochib beradi. Shuningdek, Gazeta.uz resursidagi maqolalar ham festival va madaniyat sohasidagi hozirgi holat va yangiliklarni oʻz ichiga oladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

**Tahlil va natijalar.** “2017-yilning noyabr oyida teatrning Toshkentga ijodiy safarida asar muallifi Tunjar Jujano‘g‘lining o‘zi ham tashrif buyurib, spektaklni ko‘rib, unga yuqori baho bergan”. “Ko‘chki” asari dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlar teatrlarida sahnalashtirilib, muvaffaqiyatli ijro etilib kelinmoqda. 2018-yil 22-aprel kuni Turkiya davlatining Konya shahrida o‘tkazilayotgan “Ming nafas bir ovoz” XI Xalqaro teatrlar festivalida Samarqand viloyati musiqali drama teatri vakillari ishtirok etdi. Teatr jamoasi tomonidan “Ko‘chki” spektakli namoyish etilgan.

Spektaklni Turkiya jamoatchilik vakillari, madaniyat va san‘at namoyondalari va teatr muxlislari maroq bilan tomosha qilishib yuqori baho berishgan. Festivalning tashkiliy qo‘mita a‘zolari tomonidan teatr jamoasiga Xalqaro anjumanda muvaffaqiyatli ishtirok etganlik haqidagi diplom va statuetka bilan taqdirlangan.

